ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'limning asosiy vazifasi – ilmiy salohiyatdan foydalanib ta'lim iste'molchilarining ehtiyojlarini qondirish
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
D. Farsaxonova, N. Mamaraximova	6	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish
D. Sodiqova	10	Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta'limning o'rni
F. Babashev	13	O'zbekistonda mediata'lim rivojlanish xususiyatlari
H. Sodiqov	17	"Ta'lim to'g'risida"gi qonunda qo'yilgan talablar asosida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish
K. Karimova, M. Mamadjanova	21	Boshlang'ich sinflarda masalalarni yechishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar
Sh.Ismailov, R. Karimova	25	Materiallarni nazariy o'rganish AB initio usullari va ularning ba'zi yaqinlashishlari
A. Axlimirzayev, Z. Rustamova	30	Masalalarni turli usullar bilan yechishga o'rgatish – o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida
Z. Bobayeva	37	Tabiiy fanlarni o'qitishda ma'naviy qadriyatlardan foydalanish
M. Adilova	40	Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish
		TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
M. Aripova	44	Iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o'qitishda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari
F. Husanov	48	Bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining mazmuni
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Maxmudova	51	Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida shakllantirish
G. Muminova	54	Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
A. Askarov	58	Oliy ta'lim mazmuniga oid o'quv tarkibining variativligiga asoslangan ta'lim ehtiyojlarini boshqarish modeli
Sh. Abdullayeva	63	Talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda ta'limiy geymlardan foydalanish
S. Ruzmetova	66	Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Soibnazarova	70	Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida mutafakkirlarning fikrlaridan foydalanish
K. Pardayeva	73	Umumiy o'rta ta'limda Abdulla Avloniy ijodini o'rganishning ma'rifiy-estetik ahamiyati
N. Xushiyeva, S. Muxammadiyeva	77	Ahmad Yassaviy pedagogik qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati

TA’LIMDA MENEJMENT		
I. Siradjev	81	Xalq ta’limi rahbar xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borilgan tajriba-sinov ishlar natijasi
JISMONIY TARBIYA VA SPORT		
O. Achilov	86	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini murabbiylik faoliyatiga tayyorlash
N. Roziqov	90	Oliy o‘quv yurti talabalarining sport sog‘lomlashtirish faoliyatida ommaviy sportni takomillashtirish texnologiyalari
I. Mirzakulov	94	Belbog‘li kurashning o‘quv fani sifatida qabul qilinishi va tuzilishi
Sh. Nabijonov	100	Texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari
ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK		
D. Karamatova	104	O‘quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish yo‘llari
KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH		
A. Ibragimov, I. Mexmonov	108	O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil etish muammolari
PSIXOLOGIYA		
Sh. Shakarboyeva	112	Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari
Sh. Doniyorov	115	Pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Г. Джавлиева, О. Савенко	119	Особенности модернизации методики изучения математики в начальных классах
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА		
Д. Очилдиева, З. Сапарова	124	Семья как главный институт воспитания
А. Каюмов	127	Будущим учителям о духовно-эстетическом воспитательном потенциале национально-художественных ценностей – фольклоре
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
И. Тугалов	131	Эстетическое воспитание как важный фактор духовного развития учащихся
КУЛЬТУРА, ИССКУСТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ		
М. Абдумуминова	134	Воспевание национального пространства в романе “Тавро Кассандры” Чингиза Айтматова
Р. Мунарова	138	Сила художественной литературы в воспитании молодого поколения
ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ		
Т. Ачилов	141	Кластеризация методических задач учебной дисциплины “физическое воспитание” в высшем образовании

TA'LIMNING ASOSIY VAZIFASI – ILMIY SALOHIYATDAN FOYDALANIB TA'LIM ISTE'MOLCHILARINING EHTIYOJLARINI QONDIRISH

(**Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish yo'nalishlariga nazar)**

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.
Shavkat MIRZIYOYEV

Zamonaviy hayotni bugun ilm-fan va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati dunyo ahli tomonidan e'tirof etilgan. Yoshlarimiz sog'lom hamda farovon turmush kechirishi, egallagan kasbi bo'yicha ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, komillikka erishish uchun sifatli ta'lim olish eng asosiy shartidir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali **O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni uchinchi renessans** poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

O'zbekistonning iqtisodiy hayotidagi jadal yangilanish hamda o'zgarishlar sharoitida ta'lim va fanni innovatsiyalarga yo'naltirilgan holda rivojlantirish, bu borada yangi ta'limiy paradigmalarni, mamlakatda inson kapitalini oshirish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish zarurdir.

Ta'limning asosiy vazifalarini, mavjud ilmiy salohiyat va alohida shaxslarning iste'dodini davlatning, uning tuzilmalari hamda iqtisodiyoti tarmoqlarining amaldagi ehtiyojlariga moslashtirish juda muhim.

Fikrimizcha, bugungi kunda ta'limni modernizatsiyalash jarayonidagi dolzarb muammo bu, ta'lim tizimiga kiritilayotgan yangiliklarni milliy ta'lim-tarbiya talablaridan kelib chiqqan holda, qat'iy ilmiy asoslanganlik asosida ta'minlashdir.

Butun dunyoda jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan yanada demokratik, diversifikatsiyalangan va samaraliroq bo'lgan yangi ta'lim tizimlarini izlash jadal olib borilmoqda.

Pedagogikaga aniqroq ta'rif berib, shuni aytishimiz mumkinki, bu insonning tarbiya, ta'lim, o'qitish, ijtimoiylashuvi va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish qonunlari va qonuniyatlari haqidagi fan.

Pedagogika keng ma'noda – barcha tashqi ta'sirlarning tabiiy va ijtimoiy muhitga singdirilishidir. Tor ma'noda pedagogika – ta'lim muassasalari tizimidagi pedagoglarning

maqsadli faoliyati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, pedagogik tadqiqotning predmeti bo‘lib, shaxsga ta’lim berish, tarbiyalash, o‘qitish, ijtimoiylashtirish va ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishning yaxlit tizimi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda ilmiy muomalada bo‘lgan “sifat” va “ta’lim” tushunchalarining quyidagi maqbul kombinatsiyalarini keltirib o‘tishni lozim topdik:

1. Ta’lim sifati – bu inson, jamiyat, davlatning muayyan ehtiyojlarini qondirishi kerak bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayoni xususiyatlarining yig‘indisi.

2. Ta’lim sifati – kadrlar tayyorlash, ta’lim berish, o‘qitish, bilimlarni uzatish, yangi formatdagi o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish, pedagogik kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi muassasa va tashkilotlarni birlashtiruvchi maqsad hamda natijalar yig‘indisi.

So‘nggi paytlarda ta’lim tizimi jadal rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Umuman olganda, juda murakkab va ziddiyatli tarzda kechadigan bu jarayonda pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish alohida dolzarblikni belgilaydi.

Tahririyatimiz tomonidan nashr etilgan hamda nashr uchun taqdim etilgan maqolalarni tahlil qilib, monitoring o‘tkazib, ilmiy jamoatchilikga nazardan chetda qolayotgan quyidagi pedagogik tadqiqotlar yo‘nalishlariga e’tibor qaratish kerak deb hisoblaymiz:

Ta’limda differensiatsiya – ta’lim muassasalarining ta’lim oluvchilar qobiliyatlarini hisobga olgan holda yutuqlarga erishishga yo‘naltirish. Differensiatsiyani amaliyotda quyidagicha qo‘llash mumkin, masalan, ta’lim oluvchilarni ularning o‘quv natijalariga ko‘ra guruhlash; o‘quv fanlarini majburiy va fakultativga bo‘lish; ta’lim muassasalarini rivojlanishda kechikishlar yoki og‘ishlar bo‘lgan o‘quvchilar uchun ajratish; qiziqishlari va kasbiy yo‘nalishiga muvofiq individual talablar asosida ta’lim oluvchilar uchun individual rejalar va ta’lim yo‘nalishlarini tuzish v.h.

Ta’limda diversifikatsiya – (lotin tilidan tarjima qilinganda – xilma-xillik, ko‘p qirrali rivojlanish). Ta’limni diversifikatsiya qilish bir vaqtning o‘zida har xil turdagi ta’limni, ta’lim muassasalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi bular, alohida fanlarni, kasblarni chuqur o‘rganadigan davlat va nodavlat ta’lim muassasalari bo‘lishi mumkin.

Ta’limda variativlik – ta’lim tizimida tanlov uchun sharoit yaratish va har bir subyektga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini berish; ta’lim oluvchilarni fanlarni, yo‘nalishlarni, kasblarni mustaqil tanlash va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undash; muqobil va mustaqil fikrlashni rivojlantirishni ta’minlash.

Ta’limda ko‘p bosqichlilik – ta’limning har bir bosqichida shaxsning imkoniyatlari va manfaatlariga mos keladigan ta’lim darajasiga erishishni beradigan ko‘p bosqichli o‘quv jarayonini tashkil etish. Har bir bosqich, daraja o‘z maqsadi, muddati va o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Ta’limni fundamentallashtirish – bu shakllanayotgan shaxsni zamonaviy hayotga nazariy va amaliy tayyorlash o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash.

Ta’limda davlat-jamoatchilik boshqaruvi – bu davlat va jamoatchilik xarakteridagi boshqaruv subyektlari faoliyatini birlashtiradi. Shubhasiz, davlat-jamoatchilik boshqaruvi ta’limni boshqarishning barcha tuzilmalarini o‘z ichiga olmasligi yoki almashtirmasligi lozim.

Dilafruz FARSAXONOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsent v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nafisa MAMARAXIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQ O'STIRISH ORQALI IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish mashg'ulotlari orqali ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish xususida fikr yuritiladi. Hozirgi globallashgan zamonda o'quvchilardan talab qilinadigan eng asosiy narsa ham aynan ijodiy tafakkurlashdir.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, o'quvchi, metod, nutq, nutq o'stirish, tafakkur, ijodiy tafakkur, ona tili, o'qish, badiiy asar.

Данная статья посвящена формированию творческого мышления у учащихся посредством развития речи на родном языке и на занятиях по чтению в начальных классах. В современном глобализированном мире самое главное для студентов – мыслить творчески.

Ключевые слова. Образование, воспитание, ученик, метод, речь, развитие речи, мышление, творческое мышление, родной язык, чтение, художественное произведение.

This article discusses how to develop students' creative thinking in their native language and reading literacy classes in primary education through speech development activities. In today's globalized world, the most important thing for students is to think creatively.

Key words. Education, upbringing, student, method, speech, speech development, thinking, creative thinking, mother tongue, reading, artwork.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"[1] ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyatini oshirishda yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq mashqlar orqali o'quvchilarda tafakkur, dunyoqarash, mantiqiy fikrlash, erkin mushohada yuritish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan hisoblangan notiqlik san'ati va madaniyatini o'quvchi-yoshlarda shakllantirish ularda til, tafakkur, so'z,

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

nutq kabi masalalarni rivojlantirish bilan birga ezgulik, muomala, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, donolik, bilimdonlik, xulq-atvor, axloq kabi tushunchalarni kamol toptiradi. Nutq madaniyati bevosita til ta'limi va axloq-odob tamoyillari bilan uzviy bo'lib, shaxsning manaviyati, qiyofasi, turmush tarzi, ruhiyatini namoyon etadi.

Demak, nutq madaniyati inson fikrini til vositasida to'g'ri, erkin, aniq, izchil, yoqimli va ta'sirli bayon qilish bilan birga uning bilimdonligi, yuksak ma'naviyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Nutq va til bir-biriga qanchalik yaqin bo'lmasin, ularning funksiyalari alohida ajralib turadi. Nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni bo'lsa, til fikrni bayon qilishning asosiy qurolidir. Demak, til nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, o'quvchi-yoshlarning ongi va ijodiy tafakkurini o'stirishda, ularni barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritishga yordam beradi. Darhaqiqat, har qanday aloqalar, fikrlar, kishilararo munosabat va muloqotlar og'zaki yoki yozma nutq orqali ifodalanadi.

Nutq madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda, inson, jamiyat va atrof-muhit uyg'unlashuvida o'zaro munosabat vazifasini o'taydi. Nutqning muhim ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Nutq axloqiy madaniyat ko'zgusi sifatida ko'zga yaqqol tashlanadi. Nutqning sof, aniq va tushunarli, sodda va ta'sirli bo'lishi har bir kishining madaniyatli ekanligidan dalolat beradi.

Nutq muomala madaniyati har bir kishining jamiyatdagi o'rnini, vazifasini namoyon etuvchi hodisa sanaladi, ammo, shuni aytish kerakki, har bir inson nutqida uning ijtimoiy-madaniy sharoitlari, aqliy va ma'naviy salohiyati ifoda etiladi.

Shunday ekan, o'quvchilarda nutq madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga o'zbek tilining tuzilishi, tarkibi bilan nutqning uzviyligini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyati inson tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga yetkazish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida – tildan foydalanish jarayonidir[2].

Nutq fikrlarni ifoda etishning asosiy omili bo'lib, inson tafakkurining asosiy mexanizmini, fikrlash operatsiyasini amalga oshiradi. O'quvchining nutqini o'stirish orqali uning bog'lanishli nutqini shakllantirishimiz mumkin. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi. Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin. Ijodiy tafakkur ham nutq orqali rivojlanib boradi. Bu esa o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadigan jarayondir. O'quvchilar bilan ko'proq badiiy asarlar ustida ishlash, insho va bayon yozish bolaning nutq boyligini, bog'lanishli nutqini hamda ijodiy tafakkurini o'stirishga yordam beradi. Badiiy adabiyot doimo taraqqiyotda bo'lganidek, ijodiy tafakkurni shakllantirish ham doimo o'quvchilarning ijodkorligini, mustaqil fikrini rivojlantiradi. Badiiy asar asosida o'quvchilar ijodiy tafakkurini shakllantirishda o'qituvchining asosiy ish metodikasi bu kasbiy tayyorgarligi, ta'limiy va tarbiyachilik malakalari, ma'naviy boyligi talab darajasida bo'lishi zarur. Boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotdan o'quv-tarbiyaviy ishlarda to'g'ri foydalanishning samara-

[2] Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: Fan va texnologiya, 2002, 367-b.

dorligi o‘qituvchining bilim saviyasiga, uning ixtisoslik bilim darajasiga va har bir asarni pedagogik tahlil qila olish mahorati adabiyotning ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanishning shartidir.

Boshlang‘ich ta’lim muammolarini yechish, uni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham olimlarning ilmiy ishlarida boshlang‘ich ta’limning mazmuni, o‘quvchi ijodiy tafakkurini o‘stirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do‘stlik, o‘rtoqlik kabi fazilatlarni shakllantirish nazariy jihatdan yoritilgan. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalaridan biri o‘quvchilar ijodiy tafakkurini oshirishdir.

Tafakkur – falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Ma’lumki, hayotdagi voqea-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongni aks etadi. Tafakkur – insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog‘liq holda hosil qilingan va erishilgan oliy va aqliy ne’matdir[3].

Ijodiy tafakkur – bu ichki aqliy bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar asosida yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsulidir. Ijodiy tafakkur – ma’naviy va intellektual kamolotga erishishda muhim asoslardan biri bo‘lib, uning yordamida shaxs faolligi, aqlini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ijodiy tafakkur yangi ijodiy faoliyatning faol, fidoyi ishtirokchisi bo‘lishni ta’minlaydi[4].

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash, uning tizimi va xususiyatlarini ishlab chiqish.

2. Dars jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirish mazmuni va metodikasini yaratish.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurini shakllantirishni ta’minlaydigan shakl va metodlar, vositalar ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash.

Bola kattalar bilan muloqot jarayonida tilni o‘zlashtiradi. Tilni o‘zlashtirish orqali sekin-asta nutqi o‘sib boradi. Nutq orqali bog‘lanishli nutqi ham takomillashadi. O‘quvchining so‘z boyligi ortishi nutq bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq esda saqlab qolish, qabul qilish, tasavvur qilish, o‘z xissiyotlarini tushunish, odobini boshqarish kabi holatlar bilan bevosita bog‘liqdir[5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda eng, avvalo, o‘quvchida matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak. Birinchi sinfda ya’ni savod chiqarish davridanoq dastlab og‘zaki so‘ngra yozma tarzda matn tuzishni o‘rgatish lozim. Bolalarga matn tuzishni o‘rgatish ulardagi quyidagi sifatlarni takomillashtirishga yordam beradi:

– atrof-muhit haqidagi tushunchalarning qay darajada shakllanganligini;

– fikr yuritish qobiliyatlarini,

[3] Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: Fan va texnologiya, 2002, 462-b.

[4] Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: Fan va texnologiya, 2002, 149-b.

[5] Иномова М.О. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье. Автореф.дис. ... докт. пед. наук. –Т.: ЎзПФИТИ, 1998. –С. 41.

– axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini;
– voqelikka nisbatan mushohada yuritishni;
– munosabat bildirishni;
– voqea-hodisa haqida xulosa chiqarishga.

Bunda bizga turli metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo‘l keladi. O‘qituvchi tomonidan o‘qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o‘quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko‘maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og‘zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-,3-,4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko‘rinishga o‘tib boradi. Ya’ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo‘lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortib borishiga qarab matndagi so‘zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlarga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o‘sishiga, adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so‘z boyligining ko‘payashiga, tuzgan matnlariga va o‘qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko‘nikmalarini rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish orqali matnni tushunishiga va ijodiy tafakkurini o‘stirib borishimiz muhim vazifa sanaladi. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish barcha predmetlarga taalluqli bo‘libgina qolmay, asosiy mas’uliyat ona tili va o‘qish savodxonligi fani zimmasiga tushadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijodiy tafakkurini o‘stirishning muhim vositalaridan biri bu – matn ustida ishlash hisoblanib, matnni tushunish bo‘yicha tadqiqot va adabiyotlar yetarli emas. Ijodiy tafakkurni o‘stirishda, avvalo, o‘quvchiga tez, ongli, ifodali o‘qish o‘rgatilib, o‘qilayotgan matnning mazmuni mustaqil tarzda tahlil etiladi. O‘quvchining ijodiy tafakkurini o‘stirish uchun ijodiy fikrlashini to‘g‘ri yo‘lga solishimiz kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy tafakkurini o‘stirish o‘qituvchidan izchil va muntazam ish olib borishni, yuksak pedagogik mahoratni talab etadigan jarayondir. Buning uchun hozirgi kun pedagoglaridan tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya.–2002.– 500-b.
3. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): – T.: NOSHIR, – 2009. – 480-b.
4. Farsakhanova, D., & G‘ofurova, S. (2021). Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarida Mo‘min P. ijodini o‘rganish metodikasi. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА_1).
5. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlang‘ich sinflarda sifat ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Журнал инновации в начальном образовании, 1(БТНА_1).

Dilfuza SODIQOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta’limning o‘rni va ahamiyati yuzasidan fikrlar bayon qilingan. Muammoli ta’lim orqali talabalarda o‘z fikrini erkin bayon qila olish, tafakkurini oshirish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, ijod, tafakkur, muammoli ta’lim, mutaxassis, kasb, didaktika, faoliyat, pedagogika, qobiliyat, munosabat.

В данной статье рассматривается роль и значение проблемного обучения в развитии творческого мышления учащихся. Проблемное обучение призвано помочь учащимся свободно выражать себя и развивать свое мышление.

Ключевые слова. Студент, творчество, мышление, проблемное обучение, специалист, профессия, дидактика, деятельность, педагогика, способность, отношение.

This article discusses the role and importance of problem-based learning in the development of students’ creative thinking. Problem-based learning is designed to help students express themselves freely and develop their thinking.

Key words. Student, creativity, thinking, problem-based learning, specialist, profession, didactics, activity, pedagogy, ability, attitude.

Barchamizga ma’lumki, oliy ta’limning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatkichlarining asosiysi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda har qanday yo‘nalish bo‘yicha ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilganligidadir. Biz bilamizki, ijodiy faoliyatda o‘zini namoyon qila oladigan, aniq ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtma ham alohida ahamiyat beradi.

Shuning uchun ham har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini saqlash va rivojlantirishda oliy ta’lim alohida o‘rin tutadi. Ijodiy fikrlash va ijodiy mehnatga tayyor bo‘lgan mutaxassislarda jamiyat va kasbiy amaliyot talablari va bo‘lajak mutaxassislarda ushbu turdagi fikrlashning haqiqiy rivojlanish darajasi o‘rtasida ziddiyatlar mavjuddir. Bundan tashqari, oliy ta’limning talabani faol, ijodiy o‘quv va kognitiv faoliyatga jalb qilish imkoniyatlari va talabaning motivatsion ishonchsizligi o‘rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda.

Shundan kelib chiqib ham aytishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosi yanada dolzarblashib bormoqda. Oliy ta’limni o‘quv jarayonining samarali natijasi sifatida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish yo‘nalishida qayta qurish zarurati hali pedagogika nazariyasi va amaliyotida ushbu muammoning yetarli darajada ishlab chiqilganligi bilan tasdiqlanmagan. Bundan tashqari, oliy ta’lim didaktikasida o‘quv faoliyati tarkibida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan yaxlit ishlar amalda yetarli emas deb aytishimiz mumkin.

Bo‘lajak mutaxassisning ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish ayni muddaodir. Shundan kelib chiqib ham aytishimiz mumkinki, jamiyatning ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganligi va kasbiy tayyorgarlik tizimida o‘quvchi yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga rasmiy yondashuvning ustunligi o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish yo‘llarini izlashdan iborat.

Hozirgi sharoitda zamonaviy mutaxassis shaxsining asosiy kasbiy xususiyatlaridan biri, uning ichki salohiyatini faollashtirish, o‘zini-o‘zi anglash sohalarini kengaytirish, dunyoga va o‘ziga ijodiy munosabatni shakllantirishdir. Talabaning ijodiy tafakkurini samarali rivojlantirish muammoli va faoliyatga asoslangan ta’lim sharoitida ta’lim mazmunining maxsus konstruksiyasiga va ta’lim mantig‘iga bog‘liq bo‘ladi.

Shunga ham to‘xtalib o‘tishimiz joizki, “Tafakkur qobiliyati” tushunchasini nazariyaga Rubinshteyn S.L. kiritgan bo‘lib, u o‘z asarlarida “insonga olib keladigan fikrlash jarayonini ochib bermasdan turib, uning intellektini uning faoliyati natijasiga qarab aniqlash mumkin emas” deb ta’kidlagan.

Pedagogikada ijodiy jarayonlarni boshqarish imkoniyati mumkin emasligi masalasi doimo muhokama qilib kelinadi. Ushbu muammoni hal qilishda ikkita eng muhim deb bilgan yondashuvni ko‘rib chiqamiz:

– fikrlashning tegishli usullarini egallash orqali ijodkorlikni boshqarish mumkin;

– ijodkorlikni uning oqimi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali, masalan, shaxsning rivojlanishini rag‘batlantiradigan tegishli psixologik muhit orqali boshqarish mumkin. Ushbu ikki yondashuv har qanday holatda yonma-yon yashashi kerak.

Pedagogika nazariyasida ta’limda fikrlash jarayonini boshqarish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar yetarli miqdorda mavjud. Ularning har biri o‘ziga xos talqini va ilmiy yondashuvning o‘ziga xosligi, aqliy faoliyatning turli bo‘g‘inlarini kuchaytirish usullari majmui bilan tubdan farq qiladi. Biroq muammoli ta’lim sharoitida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosi hozirgacha oliy ta’lim pedagogikasida yetarlicha o‘rganilmagan deb aytishimiz mumkin.

Ijodiy fikrlashni talqin qilishning turli xil yondashuvlarini tahlil qilish orqali, ular ong va umuman tafakkurning muhim xususiyatlariga – uyushmalarning to‘planish jarayoni, harakat, munosabatlarning ixtiyoriy akti sifatida qaralishini ko‘rishimiz mumkin.

Agar biz o‘z oldimizga maqsad – ijodiy tafakkurni rivojlantirishni qo‘ysak, unda tafakkurda subyektiv va obyektiv, empirik va ijodiy, ratsional va hissiy (gnoseologik aspekt) o‘rtasidagi munosabatlarni tushunmasdan turib, unga erisha olmaymiz, uni motivlangan va maqsadli faoliyat sifatida qarashimiz mumkin.

Ijodiy fikrlash mazmunini tahlil qilish orqali, uni jarayon va faoliyat nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqish mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Bu esa ijodiy fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlarini va uning ishlash mexanizmlarini ta’kidlash imkonini beradi. Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning asosi inson psixikasida bir qator xususiyatlarning mavjudligi bo‘lib, ulardan eng muhimini ko‘rib chiqish mumkin: tasvirlar bilan ishlash, hissiy-irodaviy sohaning xususiyatlari, yuqori darajadagi rivojlanish darajasi, kognitiv ko‘nikma va qobiliyatlar, ijodiy tasavvur va boshqalar. Xotiraga tayanishga asoslangan an’anaviy ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va intellektual faolligini rivojlantirishga zaif hissa qo‘shadi, muammo tug‘dirmaydi, ularni oldinga qo‘yish tendensiyasini rivojlantirmaydi va ularni o‘quvchilarning o‘zlari hal qiladi.

Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun turli didaktik strategiyalar qo‘llash maqsadga muvofiq – fosh qilish, reproduktiv-adaptiv, samarali va komplekslashtirish.

Shu narsani takidlab o‘tish joizki, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda

o‘quv ma’lumotlarining mazmunini qurish va joylashtirish mantig‘i muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish samaradorligi barcha o‘quv ishlarini chuqur uslubiy qayta qurishni talab qiladi, uning asosiy yo‘nalishi faol xarakterdagi usul va shakllardan keng foydalanishdir. Shu bilan birga, o‘qitishning an’anaviy shakllari va usullari saqlanib qolishi kerak, ammo ularni yordamchi funksiyaga yo‘naltirish kerak. Shunday qilib, talabalar o‘rtasida kognitiv jarayonlarning ko‘rsatkichlari (idrok, diqqat, xotira, fikrlash) sezilarli darajada o‘zgardi. Muammoli ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga kognitiv tayyorgarlik darajasi, o‘quvchining ijodiy salohiyatini tashkil etuvchi qobiliyatlarning rivojlanishida o‘z o‘rniga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

O‘rganishlar va kuzatishlar natijasi pedagogik boshqarishda o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o‘ynaganligini ko‘rishimiz mumkin. Oxir-oqibat, u o‘quvchini ijodiy qobiliyatlarni o‘z-o‘zini rivojlantirish bilan shug‘ullanish istagiga olib keladi.

Demakki, xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish va tugatishning imkoni yo‘q, chunki bu davom etib boradigan jarayon sanaladi. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun kasbiy, pedagogik prognozning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan eng samarali shakllari va usullarini o‘rganish, uslubiy va o‘quv-uslubiy rivojlanish bilan bog‘liq ishlanmalar istiqbolli hisoblanadi. Shu jumladan, muammoli ta’lim shartlari va talablari ham shunga bog‘liq desak ham bo‘ladi. Lekin yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, muammoli ta’lim orqali ham talabalarning ijodiy tafakkurlarini bir muncha rivojlantirishga erishish mumkin.

Ayrim bolalar o‘zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o‘qishlari mumkin. Har bir boladagi o‘z vaqtida aniqlangan va rivojlantirilgan talant unga hayotda yuksak cho‘qqilarga erishish uchun yo‘l ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayoni bolalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova Z.K. va boshqalar. O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, o‘quv qo‘llanma. –T., 2008.

2. Omonov X.T. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, darslik. –T., 2012.

Farxad BABASHEV,
O‘zbekiston milliy universiteti O‘zbek-Qozon qo‘shma ta’lim dasturi dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O‘ZBEKISTONDA MEDIATA’LIM RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmida mediata’lim mavzusida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga oid tahlillar va xulosalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar. Mediata’lim, ommaviy axborot vositalari, ko‘rgazmali-obrazli xususiyat, fonetik jarayonlar, ekranli ko‘rgazmali vositalar, politexnik ta’lim, kinofilmlar, televideniya, o‘quv televideniyasi, teleekran.

В статье отражены анализ и выводы по научно-исследовательским работам, осуществленным в Узбекистане во второй половине XX века на тему медиообразования.

Ключевые слова. Медиаобразование, средства массовой информации, визуально-образная характеристика, фонетические процессы, экранные наглядные пособия, политехническое образование, кино, телевидение, учебное телевидение, телеэкран.

The article reflects the analysis and conclusions on research work carried out in Uzbekistan in the second half of the XX century on the topic of media education

Key words. Media education, mass media, visual-figurative characteristics, phonetic processes, screen visual aids, polytechnic education, cinema, television, educational television, television screen.

O‘zbekistonda mediata’lim rivojlanishi tarixiga nazar solar ekanmiz, yurtimizda bu boradagi tadqiqotlar XX asrning 60-70 yillarida boshlanganiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur tadqiqotlarda umumta’lim maktablarida hamda oliy ta’lim tashkilotlarida tabiiy fanlar va xorijiy tillarni o‘qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish masalalariga asosiy e’tibor qaratilgan. Maktab davrida o‘quvchilar tafakkuri ko‘rgazmali-obrazli xususiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, diafilm, deopozitiv, hujjatli filmlardan keng foydalanish kun tartibiga kiritiladi. Zero, tabiatdagi turli voqea-hodislar, fonetik jarayonlar to‘g‘risida har qancha gapirganda ham, nazariy bilimlarning amaliy jihatlarini real voqelikda, ekran orqali kuzatish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi aniq.

O‘sha davrda keng tarqalgan ko‘rgazmali texnika vositalari bo‘lgan LETI-60 proyektori, “Svet”– DMB – 2 diaproyektori, Universal proyektor-55, KPSh – Kiev fabrikasining “Kinap” 4 – 1965 kinoproyektori ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etgan. Ayrim hollarda bu foydalaniladigan jihozlarning murakkabligi va qimmatligi, ularning katta hajmi, bolalar uchun xavfi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa holatlarda namoyish qilinishi kerak bo‘lgan hodisalar shu darajada tez sur’atda yuz beradiki, ularni ilg‘ash mumkin bo‘lganida ham, batafsil o‘rganish yoki bevosita kuzatishning umuman imkoni mavjud emas. Ekranli ko‘rgazmali vositalar kimyo fani o‘qituvchisini yuqorida qayd etilgan qiyinchiliklardan xalos qiladi.

Politexnik ta’lim vazifalarini amalga oshirishda ekranli ko‘rgazma vositalaridan

ayniqsa, o‘quv kinofilmlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarish, sanoat korxonalari, fabrika va zavodlar, qishloq xo‘jaligi va transport sohasidagi yangiliklarni bevosita sayohatlar davomida yoki ekran orqaligina kuzatishlari mumkin. Darsni ekranli ta’lim vositalari yordamida tashkil qilish ma’lum darajadagi tayyorgarlik ishlarini ham talab qiladi. Tayyorgarlikning eng muhim sharti–darslarni ekranli ta’lim vositalaridan foydalangan holda tashkil etishni oldindan rejalashtirishdir.

Darsni ekranli vositalar yordamida tashkil qilishning o‘ziga xos murakkabligi bois, dastlab dars rejasini mukammal ishlab chiqish talab qilinadi. Bu darsning barcha bosqichlarini – o‘qituvchining kirish so‘zi, qo‘shimcha izohlar, tajriba va ekran uzviyligini ta’minlash, o‘quvchilarga savollar berish, o‘qituvchi yakuniy so‘zi, uy vazifasini oldindan o‘ylab olish deganidir.

Televideniye yordamida o‘qitish amaliyoti ta’lim nazariyasidan sezilarli darajada ilgarilab ketgan. Ta’limning ushbu uslubi talabalar bilimlari sifatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ammo shu vaqtgacha xorijiy tillarni televideniye yordamida o‘qitishning pedagogik, psixologik va metodik asoslarini ochib berishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar olib borilmagani muallif tomonidan o‘rinli tanqid qilinadi.

O‘quv televideniyesining dastlabki qadamlari uning yutuqlari va kamchiliklari bo‘yicha ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lganki, bu borada o‘ta keskin fikrlar ham bildirilgan.

Yaqin vaqtlarga qadar ta’limning an’anaviy turida bosma so‘zga asosiy manba sifatida qaralgan. Bosma so‘z grafik belgi bo‘lib, uni talqin qilish ham ma’lum psixik operatsiyani talab qiladi. Televideniye orqali axborotni qabul qilish esa ham tezkor, ham yengil kechadi. Tovushli-tasvirli teletimsol psixik operatsiyalarning yagona asosi bo‘lgan ko‘rish va eshitish organlariga zudlik bilan ta’sir qiladi. Og‘zaki timsollarga qaraganda aniq va yorqinroq bo‘lgan teletimsollar oson idrok etiladi va xotirada mustahkam saqlanadi.

O‘quv televideniyesini xorijiy tillarni o‘qitishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida qo‘llash katta ijobiy natijalarga olib kelishiga bo‘lgan qat’iy ishonchini his qilasiz. Bu, ayniqsa, talabalarga o‘zga tildagi turli tovushlarni talaffuz qilish, artikulyatsiya jarayonlarini televizorda yaqqol namoyish qilish imkoniyatlarini oshiradi. Jarayonning inson organizmidagi nafas olish, tovushlarni talaffuz qilish va tinglash kabi qator amaliy faoliyat bilan bog‘liq jihatlari ham ko‘pdir.

Teleekran bilan ishlashni boshlashdan oldin pedagoglar va metodistlar teleekrandan axborotni idrok etishning psixo-fiziologik asoslarini o‘rganish va talabalarni idrok nazariyasining asosiy qoidalari bilan tanishtirishi zarurligi qayd etiladi. O‘qitishning texnik vositalari ichida qator didaktik imkoniyatlari amaliyotda tasdiqlangan O‘quv televideniyesi (keyingi o‘rinlarda – O‘TV) alohida o‘rin tutadi. O‘TV bilish yo‘lini qisqartiradi, talabalarda hissiy idrokni oshiradi, ta’lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Hissiy irodaviy sohani faollashtira turib, O‘TV nazariya va amaliyot o‘rtasida mustahkam aloqani yo‘lga qo‘yadiki, ta’lim jarayoni ochiq va maqsadli tus oladi. Bu esa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy jihatdan o‘zini anglashiga hamda kasbiy o‘zini kashf etish va shakllanishdan iborat masofani muvaffaqiyatli bosib o‘tishiga sezilarli darajada yordam beradi.

Televizion dasturlar o‘quvchilar uchun mavhum bo‘lgan tushunchalarni ko‘rgazmali ravishda ochib beradi, o‘quv materialini rivojlanish jarayonida tasvirlaydi, ularga o‘zlarini jarayon ishtirokchisi sifatida his qilish imkonini beradi, bilish jarayonini yengillashtiradi, tarbiyaviy vazifalarga mos keladi. Demak, televideniye nafaqat o‘qitadi, balki

tarbiyalaydi ham, estetik tuyg‘ularni qo‘zg‘atadi, his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Albatta, bu ishonch va farazlar tasdig‘i sifatida shuni aytish mumkinki, XX asrning 80-90 yillariga kelib televideniyeda qator ko‘rsatuvlar va dasturlar, hatto ta’lim-tarbiyaga doir maxsus telekanallar ham paydo bo‘ldiki, ular bugungi kunda ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, uning kelgusi hayot yo‘li va mehnat faoliyati yo‘nalishini tanlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu kabi ta’lim beruvchi ko‘rsatuvlardan biri sifatida Rossiyaning ‘‘Birinchi kanali’’ tomonidan 1999-yildan buyon efirga uzatilayotgan ‘‘Aqlli bolalar’’ (‘‘Умницы умники’’) butun Rossiya gumanitar televizion olimpiadasini misol tariqasida ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu tanlovning mutlaq g‘oliblari Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi. Mazkur ta’lim muassasasi esa diplomatiya sohasida kadrlar tayyorlashda xalqaro miqyosda ham yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekiston televideniyesida ham, xuddi shu kabi yuqori sifatga, boy mazmun va jozibadorlikka ega bo‘lgan, eng asosiysi, iqtidorli yoshlarimizni o‘ziga jalb etadigan ko‘rsatuv tayyorlash vaqti keldi.

Bugungi kun nuqtayi nazaridan ahamiyatsiz ko‘rinsa ham, XX asrning 70-yillarida ta’lim-tarbiya jarayonida televideniye imkoniyatlaridan foydalanish amaliyoti o‘qitish texnologiyalari uchun olg‘a tashlangan katta qadam edi. Zamonaviy kompyuter va ta’lim texnologiyalari rivojlangan, ta’lim tizimi oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalar hamda talablar qo‘yilayotgan bugungi kunda ham o‘quv televideniyesi o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan o‘quv televideniyesining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tiborimizni qaratamiz.

Birinchidan, o‘quv televideniyesini gurkirab rivojlanishining sababi jamiyat tomonidan odamlarning o‘sib borayotgan ma’naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga bo‘lgan intilishidir.

Ikkinchidan, o‘quv televideniyesi – bu jamiyatning ta’limga bo‘lgan e’tiboriga, pedagoglar tayyorlash, maktablar qurish, darsliklar chop etishga ajratilayotgan mablag‘lar miqdoriga bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimdir.

Uchinchidan, televideniye kino, teatr, adabiyotni rad etmaydi va ularni almashtira olmaydi ham. Faqat ularning ayrim shakllarini kommunikatsiyaning yangi tizimlariga kiritadi, transformatsiya, modifikatsiya va modernizatsiya qiladi. U o‘quv-bilish jarayonida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa ta’lim vositalarini ham inkor etmaydi, balki ular qatorini to‘ldiradi.

To‘rtinchidan, o‘quv televideniyesi o‘qituvchini almashtirish uchun emas, unga amaliy yordam ko‘rsatish uchun yaratilgan. Ommaviy axborot vositalarining har qanday takomillashgan turi ham o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi jonli muloqot o‘rnini bosa olmaydi. Zero, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli suhbat qator afzalliklarga ega. Mavzuning murakkab qismiga doir bahs olib borish imkoniyati, o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini to‘laroq inobatga olish, o‘quvchilar hayotidan misollar keltirish imkoniyatining mavjudligi shular jumlasidandir.

O‘zbekiston viloyatlari markazlarida filmotekalarning paydo bo‘lishi maktablarda ekranli ko‘rgazmali vositalardan yanada samaraliroq foydalanish uchun sharoit yaratdi. Texnika vositalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yuzasidan adabiyotlar, metodik ko‘rgazmalar rus tilida qisman mavjud bo‘lsada, o‘zbek maktablarida foydalanishga oid bunday materiallar deyarli yo‘q bo‘lib, metodik jurnallarda ham bu sohaga doir maqolalar juda kam chop etilayotgani ta’kidlash mumkin.

O‘qituvchilar malakasini oshirishda ularga texnika vositalaridan foydalanishni

o‘rgatish, ilg‘or maktablar bazasida o‘quv-uslubiy tayanch punktlarini tashkil qilish, maktab o‘quv dasturida mavjud bo‘lgan ekranli vositalarning mavzular bo‘yicha katalogini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– O‘zbekistonda mediata’lim bugungi kunda paydo bo‘lgan hodisa bo‘lmasdan, XX asrning 60-70-yillarida umumta’lim maktablarida turli fanlarni o‘qitish, o‘quvchilarning qiziqishlari shakllanishi, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanishi, oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘rganishda ekranli ta’lim vositalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan;

– ushbu izlanishlarda o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan ta’limning texnik vosita lari – teleko‘rsatuvlar va ekranli ta’lim vositalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida keng va samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar chiqarilgan;

– Abdullayev D., Akopyan A., Artikova A., Dratva Y., Osipova E., Ravich B., Svichinskaya N. va b. O‘zbekistonda mediata’limning tamal toshini qo‘ygan olimlar sifatida e’tirof etishimiz maqsadga muvofiq.

Eng asosiy xulosa shundan iboratki, umumta’lim maktablari, kasb-hunar va oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitiladigan fanlar kesimida turli sohalarning yetuk mutaxassislarini jalb qilgan holda bugungi kun talablariga javob beradigan tele-o‘quv ko‘rsatuvlar majmuini yaratish, xorijiy tillarni o‘rgatishga oid audioyozuvlar turkumlarini tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Media rivojlangan jamiyatda mediata’limning taraqqiy etishi – bu qonuniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Д.И. Нравственное воспитание трудных подростков средствами массовой информации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.–Т.,1986.

2. Аконян А.Г. Влияние телевизионных передач на учебно-воспитательный процесс школ. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Т., 1974.

3. Артыкова М. Исследование эффективности применения экранных средств обучения на уроках ботаники и зоологии. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Т., 1974.

4. Дратва Е.Л. Сочетание эксперимента и экранных средств наглядности на уроках природоведения и химии в школе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Фергана –1969.

5. Научно-популярное телевидение. Функции учебного телевидения // https://studbooks.net/730727/журналистика/функции_учебного_телевидения.

6. Осипова Э.Г. Наглядность как ведущий дидактический принцип в телевизионном курсе иностранного языка для студентов-заочников. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.–Т., 1983.

7. Равич Б.Л.Некоторые педагогические аспекты учебного телевизионного курса немецкого языка для студентов заочников. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Т., 1973.

8. Свичинская Н.Н. Формирование художественных интересов старш еклассников средствами телевизионных передач по искусству. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Т.,1973.

Hamid SODIQOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi dotsenti

“TA’LIM TO‘G‘RISIDA”GI QONUNDA QO‘YILGAN TALABLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik faoliyatni tashkil etishda ta’lim to‘g‘risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo‘yilgan talablar yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Pedagog, faoliyat, qonun, huquq, burch, ma’suliyat, malaka, yuksak ma’naviyat, ijodkorlik, ta’lim, ma’lumot.

В данной статье дается отзыв о требованиях Закона об образовании и Национальной программы повышения квалификации в организации педагогической деятельности.

Ключевые слова. Воспитатель, деятельност, закон, право, обязанность, ответственность, квалификация, высокая нравственность, творчество, воспитание, информация.

This article provides feedback on the requirements of the Law on Education and the National Program for Advanced Studies in the organization of pedagogical activity.

Key words. Educator, activity, law, right, duty, responsibility, qualification, high, morality, creativity, education, information.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda o‘qituvchilik kasbini tanlagan va faoliyat olib boradigan shaxslar uchun burch va huquqlari tushunarli tarzda belgilab qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Pedagog xodimlar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish jarayonida qonunda ko‘rsatib o‘tilgan huquq va burchlaridan foydalanishi orqali o‘z oldilariga qo‘yilgan majburiyatlarini bajarishlari shart hisoblanadi.

2020-yildagi Qonunning yangi tahrirdagi 5-bobi “Ta’lim tashkilotlari xodimlari” deb nomlanib, unda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxslarning amal qilishlari lozim bo‘lgan huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari va javobgarligi qonuniy tomondan asoslab berilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu moddalarda aynan yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlar keltirib o‘tilgan.

Jumladan, 38-moddasiga e’tibor qaratib o‘tadigan bo‘lsak, albatta, tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan kishilargina o‘qituvchilik kasbi bilan shug‘ullanishlari mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Haqiqatdan ham o‘qituvchilik kasbi bilan shug‘ullanadigan kishilar yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha jihatlarga javob berishlari shart. Agarda talablarga javob bermasa ta’lim tizimida yaxshigina sustkashliklar yuzaga kelishi alohida ta’kidlab o‘tilganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Qonunning 39-moddasida esa o‘qituvchilarning huquqlari, erkinliklari va ularni amalga oshirishdagi kafolatlar haqida gap borayotganligini ta’kidlash joiz.

Jumladan, o‘qituvchilarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatlari ham shu qonun bilan himoyalanishi keltirib o‘tilgan.

O‘qituvchilar quyidagi huquqlarga ega: o‘zining kasbi sharafi va qadr-qimmatini himoya qilish, faoliyati davomida amalga oshirilayotgan o‘quv dasturi doirasida mualliflik dasturlarini yaratish va qo‘llashda, o‘qitish usullarini ishlab chiqishda, shuningdek, alohida o‘quv fani, kurs va moduldan foydalanishda, ijodiy tashabbus ko‘rsatishda, innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda tatbiq etish va shu kabi bir qancha huquqlarga ega ekanligini ta’kidlash lozim.

O‘qituvchilarni lavozim vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday ishlarga jalb etish ham taqiqlanishi keltirib o‘tilgan.

Ushbu Qonunning 40-moddasiga to‘xtaladigan bo‘lsak bu yerda 38-39 moddalarda keltirib o‘tilgan jihatlarga amal qilgan holda o‘z majburiyatlari va javobgarligini yanada his qilishga chorlaydi va shunga yarasha ma’suliyat talab etishini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu moddada o‘qituvchilarning majburiyatlari va javobgarligi haqida gap borar ekan o‘qituvchilar quyidagilarga majburdir deyilgan:

O‘qituvchi o‘z faoliyatini yuqori kasbiy darajada tashkil etishi, o‘quv-pedagogik faoliyatni halol va vijdonan olib borishi, o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishni ta’minlashi, ta’lim va tarbiya berishning ilg‘or pedagogik, shu jumladan, innovatsion shakllari va usullarini qo‘llash, kasb, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, ta’lim tashkilotining ustaviga va uning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishi kabilar belgilab berilgan.

O‘qituvchilarga qonun hujjatlariga asosan boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkinligi ham belgilab qo‘yilgan.

O‘qituvchilar o‘quvchilarga nisbatan axloqqa zid bo‘lgan, kuch ishlatish harakatlarini amalga oshirish, davlat siyosatiga zid bo‘lgan tashviqotlar yuritish, o‘quvchilarni biron-bir siyosiy partiya yoki harakat a’zoligiga kirishga undash, diniy va boshqa e’tiqodlarni qabul qilish yoki rad etishga chorlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo‘lgan qarashlarni uyg‘otish maqsadida foydalanish mutlaqo taqiqlanishi aniq qilib ko‘rsatib o‘tilgan.

Agarda o‘qituvchilar o‘z lavozim majburiyatlarini bajarmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi ham ta’kidlab o‘tilgan.

Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab pedagog va psixolog olimlar o‘z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an’ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo‘llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo‘yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

O‘qituvchilar unutmasliklari kerakki, o‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo‘nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o‘quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e’tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O‘qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

O‘quv faoliyati mavjud kattalarning ijtimoiy foydali faoliyatining alohida turi; yosh avlodni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, estetik maqsadlarga muvofiq hayotga tayyorlashga

ongli ravishda qaratilgan.

Pedagogik faoliyat mustaqil ijtimoiy hodisa bo‘lib, ta’limga ega, ammo undan farq qiladi. Sovet o‘qituvchisining ta’rifiga ko‘ra I.F. Kozlov, pedagogik faoliyat ‘‘... kattalar, keksa avlodlar (bolalar emas) – ota-onalar, o‘qituvchilar, maktablar va boshqa ta’lim muassasalarining bolalarni tarbiyalash jarayonini amalga oshirish va boshqarishga qaratilgan ongli maqsadli faoliyati’’. Pedagogik faoliyat – bu jamiyatning yetuk a’zosini tayyorlash maqsadida kattalarning obyektiv tabiiy ijtimoiy-tarixiy tarbiya jarayoniga ongli ravishda aralashuvi, bolalarning kattalar bo‘lib rivojlanishi.

Pedagogik faoliyat ongli tarbiyaviy tajriba, pedagogik nazariya va maxsus muassasalar tizimi bilan qurollangan holda, ta’limning obyektiv jarayoniga ongli ravishda aralashadi, uni tashkil qiladi, bolalarni hayotga tayyorlashni tezlashtiradi va takomillashtiradi. Inson tarbiyasi doimo, ijtimoiy taraqqiyotning istalgan bosqichida butun jamiyat, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi va ijtimoiy ong shakllari tomonidan amalga oshiriladi. U ijtimoiy qarama-qarshiliklar yig‘indisini o‘ziga singdiradi va aks ettiradi. Pedagogik faoliyat ijtimoiy funksiya sifatida ta’limning obyektiv jarayonining chuqurligida yuzaga keladi va o‘qituvchilar, maxsus tayyorlangan va o‘qitilgan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Aksincha, ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi ko‘plab kattalar bolalar bilan munosabatlarining ulkan tarbiyaviy ahamiyatini anglamaydilar, pedagogik maqsadlarga zid harakat qiladilar.

Pedagogik faoliyat doimo o‘ziga xos tarixiy xarakter. Ta’lim va pedagogik faoliyat bir va qarama-qarshidir. Ta’lim obyektiv tabiiy tarixiy jarayondir. Pedagogik faoliyat bu jarayonning subyektiv in’ikosi sifatida ta’lim-tarbiya chuqurlarida vujudga keladi va ta’lim amaliyoti asosida rivojlanadi. Pedagogik faoliyat hayot talablaridan, obyektiv ta’lim jarayonidan orqada qolishi, ilg‘or ijtimoiy tendensiyalarga zid kelishi mumkin. Ilmiy pedagogik nazariya ta’lim qonuniyatlarini, turmush sharoitining tarbiyaviy ta’sirini va ularning talablarini o‘rganadi. Shunday qilib, u pedagogik faoliyatni ishonchli bilimlar bilan qurollantiradi, chuqur ongli, samarali, yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qodir bo'lishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat ‘‘ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy hayotning boshqa hodisalari bilan murakkab bog‘liqlik va munosabatlar tizimida mavjud. U iqtisodiy asos bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik faoliyat mohiyatan ishlab chiqarish munosabatlarining uzviy qismi bo‘lib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilgan. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni tayyorlash, ijtimoiy davlat ehtiyojlari. U jamiyat hisobidan ta’minlanadi, uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, uning mulkini muhofaza qilish va ko‘paytirishni, yosh avlodning mehnat va umumiy madaniy tayyorgarligini ta’minlashga qaratilgan. Pedagogik faoliyat, shuningdek, bolada inson shaxsini rivojlantirish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida kam uchraydi. Mafkuraviy ustqurma bilan uzviy bog‘langan. Uning vazifasi bolalarning individual ongini insonparvar, demokratik ijtimoiy ong talablari ruhida shakllantirish, bolalarni ijtimoiy hayot madaniyatiga jalb qilishdir.

Pedagogik faoliyat til bilan uzviy bog‘liqdir. Til pedagogik faoliyatning asosiy vositasi bo‘lib, uning yordami bilan pedagogik o‘zaro ta’sir, ta’sir va bolalarning butun hayotini tashkil etish amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyat jamoat-davlat funksiyasi sifatida butun jamiyatning pedagogik sa’y-harakatlari: jamoatchilik, mehnat jamoalari, oilalar, barcha pedagogik muassasalarning pedagogik faoliyatining tashkilotchisi sifatida ishlaydi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi

zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo‘ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xapakterga ega. O‘qituvchi o‘quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o‘quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma’lum maqsadga erishmoq uchun o‘qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiq:

– hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan faoliyat o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to‘g‘ri kelishi lozim;

– o‘quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o‘qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri vazifa qo‘yishi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi shart;

– o‘quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur. Hozirgi zamon o‘qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishi, o‘z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo‘llay olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

2. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat) Darslik. –T., 2019-y.

3. Sodiqov H.M., Sodiqova D.R. Pedagogik mahoratni egallash yo‘llari. // Международная научная конференция “Актуалные вызови современной науки”. –Ukraina, 2017.

4. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.F. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: Fan, 2009-y.

5. Sodiqov H.M. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati pedagoglarning kommunikativ nutq madaniyatiga bog‘liqligidadir.. // Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Jizzax, 2019-y.

Kunduz KARIMOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti
Ma’muraxon MAMADJANOVA,
Andijon davlat universiteti, “Matematika” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASALALARNI YECHISHDA YO‘L QO‘YILADIGAN KAMCHILIKLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada masala yechishning mulohaza yuritish usuli, jadval usuli, teskarisidan hal qilish usuli, diagramma usuli, Eyler doiralari usuli haqida so‘z yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida masala yechish jarayonida bu usullarni qo‘llashning afzalliklari va o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Topshiriq, bilim, masala, usul, afzallik, kamchilik, o‘quvchi, diagramma, tafakkur.

В данной статье рассматривается метод рассуждения решения задачи, табличный метод, метод обратного решения, метод диаграммы и метод кругов Эйлера. Приведены достоинства и недостатки допускаемые учениками начальных классов в процессе решения задач с помощью применения этих методов.

Ключевые слова. Задание, знание, задача, метод, достоинсто, недостаток, ученик, диаграмма, созерцание.

This article discusses the method of problem solving, the table method, the inverse solution method, the diagram method, the Euler circle method. The advantages and disadvantages of using these methods in the problem-solving process in primary school students are presented.

Key words. Assignment, knowledge, issue, method, advantage, disadvantage, student, diagram, contemplation.

Matematika faniga bo‘lgan e’tibor juda kuchli bo‘lgan hozirgi davrda, o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish va yetuk shaxs sifatida komil inson qilib tarbiyalash zamon talabidir. Matematika boshqa fanlarga nisbatan ancha murakkab fan bo‘lishi bilan birga u aniq va shu bilan birga juda qiziqarli fandir. O‘quvchilarga aynan matematikaning ajoyibotlarini va qiziqarli jihatlarini ochib ko‘rsatish esa muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari murakkab masalalarni, mantiqiy masalalarni turli usullarda yechish orqali matematik tafakkurni shakllantiradilar va rivojlantiradilar. Boshlang‘ich sinf darsliklarida o‘quvchining matematik tafakkurini rivojlantirish uchun masalalarni turlicha yechish usullariga e’tibor qaratilmaydi. Ayrim masala yechish usullar haqida ma’lumot berilgan, lekin uni mustahkamlash uchun topshiriqlar yetarlicha emas yoki umuman yo‘q. Masalalarni yechish usullarining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish masalani qisqa va tushunarli qilib yechishga imkon beradi.

Mantiqiy masalalarni yechishning turli xil usullari mavjud. Bu usullar turlicha bo‘lishi bilan birga ularning har biri o‘ziga xos masalalarni yechishda foydalaniladi. Boshlang‘ich sinflarning fikrlashlari, dunyoqarashi va olgan bilimlaridan kelib chiqib quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

– mulohaza yuritish usuli;
– jadval usuli;
– teskarisidan hal qilish usuli;
– diagramma usuli;
– eyler doiralari usuli.

Mulohaza yuritish usuli yuqoridagi usullarning eng soddasi bo‘lib hisoblanadi va juda ko‘p masalalarni yechishda qo‘llaniladi. Eng asosiysi mulohaza yuritish usuli boshqa usullar bilan birgalikda ham qo‘llaniladi. Mulohaza yuritish usulini o‘rganishning o‘quvchilar uchun afzalligi:

– barcha masalalarda qo‘llash mumkin;
– maxsus bilim va ko‘nikma talab qilmaydi;
– murakkab bo‘lgan matematik amallar bajarilmaydi.

1-masala. Anvar, Sobir va Muxtor matematika, rassomchilik va mehnat to‘garaklariga qatnashishadi. Ulardan har biri qaysi to‘garakka qatnashayotganligini so‘rashganda, bittasi javob berdi: ‘‘Sobir matematika to‘garagiga boradi, Anvar matematika to‘garagiga bormaydi, Muxtor esa rassomchilik to‘garagiga bormaydi’’. Berilgan javobda faqat bitta gap to‘g‘ri. Qolgan ikkitasi yolg‘on ekanligi ma’lum bo‘lsa, bolalarning har biri qaysi to‘garakka qatnashadi?

1-masala hech qanday matematik amallar talab qilmasdan faqat mulohaza yuritish orqali hal qilinadi. Bunday masalalarni yechishda o‘quvchilar asosan quyidagicha kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar:

– masala matnini yetarlicha tushunmasdan o‘qish;
– berilgan ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishni anglamaslik;
– berilgan ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslay olmaslik;
– qanday ketma-ketlikda fikr yuritishni bilmaslik;
– nimani topishni bilmaslik.

Jadval usuli mulohaza yuritish usuliga nisbatan ancha murakkab. Ammo bu usul ham o‘quvchidan murakkab bilimlarni talab qilmaydi. Jadval usulda jadval tuziladi va barcha ma’lumotlar jadvalga kiritiladi. Bu usulning afzalliklari:

– berilgan ma’lumotlarning hammasini jadvalda joylashtirish mumkin;
– berilgan ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishni aniqlash oson;
– noma’lumlar jadvalda yaqqol ko‘rinadi;
– jadval yordamida masalani yechish ketma-ketligi rejalashtirish oson bo‘ladi;
– olingan ma’lumotlarni tahlil qilish mumkin;
– jadvalda masala shartiga mos rasm va belgilar kiritish mumkin.

Jadval usulidan foydalanish uchun avvalo o‘quvchi jadvalni o‘qiy olishi kerak. Jadval bilan ishlash 2-sinf matematika darslarida o‘rgatiladi. Darslikda jadvalda berilganlarni o‘qish va jadvalni to‘ldirish haqida ko‘pgina misollar berilgan. Lekin o‘quvchilar uchun bu usulda masala yechish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Chunki, boshlang‘ich sinflarda masala yechish deyarli masaladagi berilganlarni qisqa yozuv orqali yozish bilan amalga oshiriladi. O‘quvchilarda jadval usulida masala yechishda kuzatiladigan kamchiliklar quyidagicha:

– masala shartiga ko‘ra jadvalda nechta satr yoki nechta ustun tanlashni bilishmaydi;
– jadvalga berilganlarni qanday tartibda joylashtirishni anglashmaydi;
– masalada berilgan ma’lumotlarning ma’nosini tushunishmaydi;
– berilgan ma’lumotlarni bir-biridan ajrata olishmaydi;

– jadvalga hamma ma’lumotlarni joylashtira olishmaydi.

Teskarisidan hal qilish usulida masala yechish ham boshlang‘ich sinflar uchun juda qulaydir. Bu usulda yechiladigan masalalarni tenglama yordamida ham yechish mumkin. Lekin masala murakkab bo‘lsa boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun tenglama yechish qiyinchilik tug‘diradi.

Teskarisidan hal qilish usulida masala yechishning afzalliklari:

– maxsus bilim va ko‘nikma talab qilmaydi;
– murakkab bo‘lgan matematik amallar bajarilmaydi;
– masaladagi amallar oxiridan ketma-ket amalga oshiriladi;
– masala shartidagi amallarga teskari amalni qo‘llay olish yetarli.

Boshlang‘ich sinflarda masalani teskarisidan hal qilish usulida oddiy masalalar yechiladi. Lekin aynan bu usul ekanligini o‘quvchilar, xattoki ayrim o‘qituvchilar ham anglashmaydi. Masalan:

2-masala. Magazinga bir nechta tarvuz keltirildi. Ertalab 24 ta tarvuz sotilgandan keyin 32 ta tarvuz qoldi. Magazinga qancha tarvuz keltirilgan?

Teskarisidan hal qilinadigan bir amal bilan bajariladigan eng oddiy masaladir. Bunday masalalar boshlang‘ich sinflarda ko‘p ishlatiladi. Agar o‘quvchilarga bir necha amallar bilan yechiladigan bunday masalalar muntazam, sodda masalalardan asta-sekin murakkablariga o‘tish bilan yechishga o‘rgatib borilsa juda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalalarni teskarisidan hal qilishda o‘quvchilarda quyidagicha kamchiliklar kuzatiladi:

– masala shartidagi amallarga teskari amalni xato qo‘llash;
– masaladagi shartlarni bajarishda ketma-ketlikni noto‘g‘ri amalga oshirish;
– to‘g‘ri mulohaza yurita olmaslik.

3-sinf matematika darsligida doiraviy diagrammalar orqali kasrlar tushuntirilgan va 3 ta masala, 4-sinfda ham “Ma’lumotlarni tasvirlash usullari” mavzusida 6 ta masalada ma’lumotlarni topish uchun ustunli diagramma bilan tanishtirilgan. Lekin diagramma orqali yechish va uni mustahkamlash uchun masalalar berilmagan. Shuning uchun bu usulda masala yechishni o‘quvchilar deyarli bilishmaydi. Diagramma usulida masala yechishning afzalliklari:

– maxsus bilim va ko‘nikma talab qilmaydi;
– masala shartiga mos rasm va belgilar kiritish mumkin;
– murakkab bo‘lgan matematik amallar bajarilmaydi;
– berilganlarni va olingan ma’lumotlar taqqoslash mumkin;
– diagramma orqali xulosalar chiqarish mumkin.

Ustunli diagrammalar, asosan, olingan statistik ma’lumotlarni tahlil qilish yoki ularning berilgan vaqt oralig‘idagi o‘zgarishlarini o‘zaro taqqoslash maqsadida ishlatiladi. Yuqori sinflarda diagrammalar bilan ishlashda muammolar kelib chiqmasligi uchun boshlang‘ich sirflarga mos masalalar yordamida o‘quvchilarni diagrammalar bilan ishlashga o‘rgatish maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilar turli xil taqdim etilgan ma’lumotlarni tushunishni o‘rganadilar va buning natijasida ularda ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Diagrammalar bilan ishlashda o‘quvchilarda quyidagicha kamchiliklar kuzatiladi:

– diagrammadagi ma’lumotlarni o‘qiy olishmaydi;
– to‘g‘ri mulohaza yurita olmaslik;
– masala shartiga ko‘ra, diagrammada ustunlarni yoki qismlarni qanday tanlashni bilishmaydi;

– berilgan ma’lumotlarni taqqoslay olishmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan to‘plamlar, ularga tegishli va tegishli bo‘lmagan elementlar, ikkita(uchta) to‘plamning umumiy elementi haqidagi masalalar bilan ishlash juda qiziqarlidir. To‘plamni yaxshiroq tasavvur qilish uchun Eyler-Venn diagrammasidan foydalanib tushuntirish orqali yaxshi natijalar olish mumkin. To‘plamlar haqidagi masalalarni Eyler doiralari yordamida hal qilish o‘quvchining o‘zlashtirishida va yangi bilimlarni mustahkamlashida juda yaxshi samara beradi. Boshlang‘ich sinflarda Eyler doiralari yordamida masala yechishning afzalliklari:

– masala shartida berilganlarni elementlar deb olib, biror qonuniyat(belgi)ga moslarini doiralar orqali chegaralash mumkin;

– biror to‘plamga mos bo‘lmagan elementlarni boshqa to‘plamga yoki to‘plamdan tashqarida belgilash mumkin;

– masaladagi hamma berilgan elementlarni tasvirlash mumkin;

– eyler usulida fikrlashlar soddalashadi;

– to‘plamlar elementlarini tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish mumkin.

To‘plamlar, to‘plamlar orasidagi oddiy amallarni boshlang‘ich sinflarga mos masalalar orqali rasmlar yordamida o‘rgatish, asta-sekin hisoblashlarga oid masalalar taklif qilish o‘quvchilar yangi bilimni o‘zlashtirishida juda samarali natija beradi. Eyler doiralari usuli nafaqat qiziqarli usul, balki masalalarni yechimini topish uchun juda foydali usuldir. Bu usuldan foydalanishda o‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan kamchiliklar quyidagilardan iborat:

– to‘plamlar sonini aniqlay olmaganliklari uchun masalaga mos doira chiza olishmaydi;

– biror to‘plamga mos elementlarni ajrata olmaslik;

– berilgan to‘plamlarga mos umumiy elementlarni ajrata olmaslik;

– chizmada berilganlarga nisbatan fikr yurita olishmaydi;

– chizmadan xulosa chiqarib, natijalarni umumlashtira olishmaydi.

4-sinf “Matematika” darsligida “To‘plamlar. Eyler-Venn diagrammasi” mavzusida to‘plamga tegishli bo‘lgan va tegishli bo‘lmagan elementlar haqida masalalar va rasmlar keltirilgan. Lekin keyingi mavzularda to‘plamlar haqidagi bilimlarni takrorlash uchun umuman misol yoki masala berilmagan.

Masalalar turlicha bo‘lgani kabi ularni yechish usullari ham turlichadir. Masalaga mos to‘g‘ri tanlangan usul o‘quvchining masala yechimini topishida eng oson va aniq yo‘l uchun tanlovidir. Agar usul noto‘g‘ri tanlansa masala yechimini topish uchun ko‘proq vaqt talab qiladi yoki umuman yechim topishning iloji bo‘lmaydi. O‘quvchilarga turlicha usullarning o‘rgatilishi orqali ularda tanlash imkoniyatidan foydalana olishga, shaxsiy fikriga ega bo‘lishiga va o‘ziga ishonch hissini shakllantirishga ham erishiladi.

O‘qitish va bilish – bu murakkab jarayon bo‘lib, ular birinchi navbatda o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun o‘qituvchi nafaqat o‘z mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’lumot beradi, balki o‘quvchining o‘quv faoliyatini rejalashtiradi, tashkillashtiradi, nazorat qiladi, fikrlash qobiliyatlarini va bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M.. Matematika // 1-sinf uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2017.

2. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q., Ruziqulova N., Goibova L.. Matematika // 3-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2019.

Shavkat ISMAILOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali dotsenti
Roza KARIMOVA,
Urganch davlat universiteti, ‘‘Fizika’’ kafedrasi magistranti

MATERIALLARNI NAZARIY O‘RGANISHDA “AB INITIO” USULLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada materiallarni nazariy o‘rganish usullari va ularning ba’zi yaqinlashishlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif qattiq jismlar fizikasida keng qo‘llaniladigan LDA yaqinlashuvi bugungi kunda lokal bo‘lmagan elektron zichlikdan foydalangan holda ko‘plab zamonaviy shakllarga egaligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Qattiq jismlar, tenglamalar sistemasi, fizik-kimyoviy xossalar, Variatsion prinsip, Kristallarning bir zarrachali tenglamasi, teorima.

В статье рассматриваются методы теоретического исследования материалов и некоторые их приближения. Автор также отметил, что LDA-приближение, широко используемое в физике твердого тела, сегодня имеет множество современных форм, использующих нелокальные плотности электронов.

Ключевые слова. Твердые тела, система уравнений, физико-химические свойства, вариационный принцип, одночастичное уравнение кристаллов, теорема.

The article discusses the methods of theoretical study of materials and some of their approximations. The author also noted that the LDA approximation, which is widely used in solid state physics, today has many modern forms using non-local electron densities.

Key words. Solids, systems of equations, physicochemical properties, Variation principle, One-particle equations of crystals, theorem.

Qattiq jismlarning fizik-kimyoviy xossalari ularning yadrolari va boshqa elektronlar bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi elektronlarining harakati bilan belgilanadi. Ushbu elektronlarning qattiq jismlardagi mikroskopik harakati elektron zonalari tuzilishi nuqtayi nazaridan eng qulay tarzda tavsiflanadi.

Qattiq jismning xossalarini nazariy tavsiflash uchun taxminan 10^{23} ta tenglamaga ega tenglamalar sistemasini yechish kerak. Bunday sonli tenglamalar sistemasini yechishning iloji bo‘lmagani uchun ular ba’zi bir yaqinlashtirish va soddalashtirishga murojaat qilinadi.

Moddaning xususiyatlarni nazariy o‘rganish vaqtga bog‘liq bo‘lmagan ushbu Shredinger tenglamasini yechishdan boshlanadi:

$$\mathrm{H}\psi = \mathrm{E}\psi \qquad (1)$$

bunda H – Gamilton operatori, E – energiya va ψ – tizimning to‘lqin funksiyasi. Ideal kristall H – operatori quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\mathrm{H} = -\frac{\hbar}{2}\sum\frac{\Delta}{M_k{}^2} + \frac{1}{2}\sum_{i\neq l}\frac{Z_k Z_l}{|R_k - R_l|} - \frac{1}{2m_i}\sum\Delta_i + \frac{1}{2}\sum_{i\neq j}\frac{e^2}{|r_i - r_j|} - \sum_{i,k}\frac{Z_k}{|r_i - R_k|}$$

bu yerda m_i, r_i – elektronning massalari va koordinatalari, M_k va R_k, Z_k – yadrolarning massasi, koordinatasi va zaryadi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday Gamiltonianga ega bo‘lgan (1) tenglamani juda ko‘p soddalashtirishlarsiz yechish mumkin emas. Birinchi yaqinlashish sifatida elektronlar valentlik va atom yadrosining elektronlariga ajratiladi. Qattiq jismlarning xossalari valentlik elektronlari bilan aniqlanadi.

Xartri-Fokning yaqinlashuvi. Ushbu yaqinlashishda $H\psi = E\psi$ tenglamaning yechimi shunday tanlanadiki, ushbu

$$E = \frac{(\psi, H\psi)}{\psi, \psi}$$

kattalik statsionar bo‘lsin.

Variatsion prinsipga ko‘ra, normallashtirilgan, kutilgan energiya qiymati to‘lqin funksiyasi bilan asosiy holatda minimal qiymatga ega.

Minimal energiya shartlaridan olinadigan Xartri-Fok tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$\left[-\frac{\hbar^2}{2m}\nabla^2 + V_{ext} + V_d(\vec{r}_i)\right]\psi_i(\vec{r}_i) -$$

$$\sum_j \int d' \frac{e^2}{\left|\overline{r} - \overline{r}'\right|}\psi_j^*(\overline{r}')\psi_i(\overline{r}')\psi_j(\overline{r})\delta_{S_i S_j} = \varepsilon_i \psi_i(r_i) \qquad (3)$$

(3) formula bo‘yicha elektron energiyasini hisoblash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchidan, bir elektronli potentsial $V_d(r)$ - topiladi. $V_d(r)$ ni aniqlash yoki hisoblashning turli usullari mavjud.

Yuqori tezlikda ishlaydigan kompyuter yordamida hech qanday eksperimental ma’lumotlardan foydalanmasdan psevdopotentsiallarni “birinchi tamoyillardan” aniqlash mumkin. Ushbu usullar o‘z-o‘ziga moslangan psevdopotentsial metodlari yoki “ab-initio” psevdopotentsial usullar deb ataladi. Bu usullar faqat atomlarning tarkibi va geometrik joylashuvi haqida ma’lumot talab qiladi.

Zichlik funksionali nazariyasi (DFT). Qattiq jismlar fizikasidagi ko‘p jismli muammoni chetlab o‘tishning yana bir samarali usuli bu zichlik funksionali nazariyasidir (DFT). Ushbu nazariyada asosiy hisoblangan kattalik elektronlar zaryadining zichligi – $n(r)$ hisoblanadi. Dastlab Gohenberg va Kohn teoremasi sifatida shakllantirilgan bu nazariya hozirda moddlar xususiyatlarni tushunish asosiy vositalaridan biriga aylandi.

Zamonaviy DFT yaqinlashuvlarida umumiy nolokal zichlik lokal elektron zichliklari bilan almashtiriladi, shuning uchun u lokal zichlik yaqinlashuvi (LDA) deb ataladi. Qattiq jismlar fizikasida keng qo‘llaniladigan LDA yaqinlashuvi bugungi kunda lokal bo‘lmagan elektron zichlikdan foydalangan holda ko‘plab zamonaviy shakllarga ega.

LDA yaqinlashuvi Hohenberg va Kohnning ushbu ikkita teoremasi shaklida beriladi.

Teorema 1. Ixtiyoriy elektronlar sistemasining har qanday kattalikning, shu jumladan umumiy energiyaning kutilayotgan qiymati elektron holatlarning zichligining universal funksionali hisoblanadi.

Teorema 2. n(r) zichliknining aniq aniqlashda E [n (r)] sistemaning umumiy energiyasi minimal qiymatga ega bo‘ladi.

Asosiy holatda minimal qiymatga ega bo‘lgan umumiy energiya zichlik bo‘yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$E(n) = T_0[n] + \int d^3 n(r)[V_{ext} + \phi(r) + E_{xc}(n(r)] \tag{4}$$

bu yerda $T_0[n]$ – zichligi n (r) bo‘lgan o‘zaro ta’sir qilmaydigan elektronlar tizimining kinetik energiyasi; V ext – yadroning potensiali, $\phi(r)$ – elektronlarning kulon potensiali, E xc – almashinuv korrelyatsiya energiyasi.

Hisoblash usullari. DFT nazariyasida to‘lqin tenglamalari bilvosita yechiladi. Bunda turli xil yaqinlashish darajalari va turli xil texnik elementlar mavjud. Boshqa hisoblash usullari singari, bu usullar ham yuqori tezlikdagi kompyuter yordamida tenglamalarni yechadi va katta hisoblash ishlarini talab qiladi.

Kristallarning bir zarrachali tenglamasini yechish texnikasini qisqacha ko‘rib chiqamiz. Yechilishi kerak bo‘lgan bir zarrali tenglamalar quyidagi ko‘rinishga ega:

$$[\nabla^2 + V_{eft}(r)]\ \varphi_i(r) = E_i \varphi_i(\vec{r}) \tag{5}$$

Keyinchalik, elektron zichligi n ni quyidagicha topishimiz mumkin:

$$n(\vec{r}) = \sum_{j=1}^{N} |\varphi_i|^2$$

ϕ va V xc - ham n ga bog‘liq bo‘lganligi sababli, biz yangi potentsial V eff (r) ni LDA va almashinuv korrelyatsiyasining boshqa yaqinlashuvlari va elektrostatik o‘zaro ta’sir uchun Puasson tenglamasidan foydalangan holda hisoblashimiz mumkin.

Biz bu jarayonni ketma-ketlik qandaydir qiymatga yaqinlashguncha davom ettiramiz. Keyin, elektronlar va yadrolar tizimining energiyasi funksionaldan umumiy energiyani aniqlash (4) formulasidan hisoblanadi.

Agar hisobni o‘rganilayotgan qattiq jismning barcha elektronlari uchun bajarilsa, yuqorida olingan tenglamalarni yechish amalda mumkin emas. Lekin bilamizki kristal potentsiali davriylikka ega, ya’ni,

$$V(\vec{r} + \vec{T}) = V(\vec{r})$$

bu yerda $T = m_1\vec{a}_1 + \vec{m}_2 + \vec{m}_3 a_3$ translyatsiya vektori va $\{\vec{a}_i\}$ – Bravais panjara vektorlari.

Blox teoremasiga [4] ko‘ra, to‘lqin funksiyalarini Bravay panjara davriga ega yassi to‘lqinlar ko‘rinishida tanlash mumkin:

$$\varphi_k(\vec{r}+\vec{T}) = e^{i\vec{k}\vec{T}}\varphi_k(\vec{r})$$

bu yerda $\vec{k}$ – Blox to‘lqin vektori.

Endi bir elektronli to‘lqin funktsiyasi Blox to‘lqin vektori bilan tavsiflanadi. Shuning uchun (1.20) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$H_{eff}(\vec{r})\psi_n(\vec{k},\vec{r}) = \varepsilon_n(\vec{k})\psi_n(\vec{k},\vec{r}) \quad (6)$$

bu yerda indeks kvant soni bilan almashtiriladi.

Blox to‘lqin vektori bilan bitta elektronli to‘lqin funksiyasi ψ_n va tegishli energiyaning E_n – xususiy qiymatlari aniqlash mumkin.

Haqiqiy fazodagi yechimlarning davriyligi ularning teskari fazoda to‘lqin vektori davriyligiga olib keladi, ya’ni $\vec{k}' = \vec{k} + \vec{g}$.

Keyingi tamoyillar energiya prinsipi (umumiy energiyaning minimalligi) va Pauli tamoyili bo‘lib, u $E_i(k)$ qiymatga ega bo‘lgan energiya holatlari eng past holatdan boshlab to‘ldiriladi. Eng yuqori to‘ldirilgan holatning energiyasi Fermi energiyasi deb ataladi.

Fermi energiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$N = \int_{-\infty}^{E_R} D(E)dE \quad (1.29)$$

bu N valentlik elektronlar soni va $D(E)$ – elektron holatlarning zichligi (DOS) bo‘lib u quyidagicha aniqlanadi:

$$D(E) = \int_{S(E)} \frac{dS}{|\nabla E(k)|} \quad (1.30)$$

bunda integral birinchi Briluen zonasidagi doimiy energiya S (E) ning butun fazosi bo‘yicha olinadi. Bir zarrachali elektron holatlari va Fermi energiya sathlari materialning fizik xususiyatlari uchun eng muhim hisoblanadi.

Elektron tuzilmalarni hisoblash usullari. (6) tenglamani yechish uchun biz ma’lum funksiyalarning bazisidan foydalanishimiz va elektron tuzilmalarni hisoblash usullaridan biriga murojaat qilishimiz kerak. Asosiy funksiyalarni tanlash hisoblash usullarining samaradorligi uchun juda muhim va DFT nazariyasidagi birinchi qadamdir. Har xil turdagi bazis funksiyalari uchun turli usullar qo‘llaniladi, ammo asosiy bazis funksiyalarini ikki guruhga bo‘lish mumkin (1-jadval):

Blox shartini qanoatlantiradigan bazis funksiyalari bir elektronli holatlarning to‘lqin funksiyalarining yig‘indisi sifatida qidiriladi:

$$\varphi(\vec{r}) = \sum_n C_n\varphi_n(\vec{r}) \quad (1.31)$$

bu yerda C_n – koeffitsientlar tizimning energiyasi minimal qiladigan etib tanlanadi.

Ushbu yaqinlashishlarning kamchiligi shundaki, bu tarzda hosil bo‘lgan to‘lqin funksiyasi ko‘pincha bazis tizimlarining yetarli darajada yaqinlashuvini olishda

qiyinchiliklarga olib keladi.

Boshqa usullar guruhida to‘lqin funksiyalari o‘zgarishi mumkin va bu o‘zgarishlar energiyaga qarab to‘lqin funksiyasini quyidagi shaklda kiritilishiga olib keladi:

$$\psi\left(E,\vec{r}\right)=\sum_{n} c\hat{O}_n\left(E,\vec{r}\right) \qquad (1.32)$$

Biroq, bu holda, Blox shartlari avtomatik ravishda bajarilmaydi. Har bir elementar yacheykadagi tenglamaning yechimi shunday tanlanadiki, u boshqa elementar yacheykaga silliq o‘tadi va shu bilan bilvosita Blox shartini qanoatlantiradi. To‘lqin funksiyalari o‘zgarishi mumkinligi sababli, muammolar paydo bo‘lishi mumkin.

APW va KKR yaqinlashuvlarida E to‘la energiya bu jihatdan yaxshi parametridir. Har bir k nuqtada zonalari tuzilishini ko‘p sonli E lar uchun topish mumkin. Yechim E haqiqiy son bo‘lgandagina mavjud bo‘ladi.

Jadval 1. Bazis tizimlar va hisoblash usullarining tasnifi.

Muayyan bazis funktsiyalaridan foydalanadigan usullar	Turli bazis tizimlaridan foydalanadigan usullar
Yassi to‘lqin Kuchli aloqa Psevdopotensiallar Ortogonallashtirilgan yassi to‘lqinlar (OPW) Atom orbitallarining chiziqli kombinatsiyasi (LCAO)	Umumlashgan yassi to‘lqinlari (AWP) Korringa-Kohn-Rostoker (KKR) usuli Chiziqli umumlashgan yassi to‘lqinlar (LAWP) Chiziqli muffin-tin orbitallari (LMTO) Umumlashgan sferik to‘lqinlar (ASW)

Ushbu usulga asoslangan hisoblashlar juda aniq bo‘lib, ammo ular mos ravishda ko‘p hisoblash vaqtini talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish LAPW, LMTO va ASW usullarida bajarilganidek, orbital bazislarni chiziqli qilishdir.

Bu yerda bazislar E ga Teylor qatori shaklida kiritiladi, ammo ular energiyaga oshkor bog‘liq bo‘lmaydilar. Shunday qilib, (5) variatsion tenglama faqat har bir nuqta uchun yechiladi. Bunday usullar boshqa usullarga qaraganda tezroq va aniqroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Питер Ю., Кардона М. Основы физики полупроводников. –М.: Наука. 2003 г. С.71.
2. Hohenberg P. and Kohn W. // Inhomogeneous Electron Gas. Phys. Rev. B 136, 864 (1964).
3. Kohn W. and Sham L. J. // Self-Consistent Equations Including Exchange and Correlation Effects Phys. Rev. 140, A1133 (1965).
4. Kittel G. // Introduction of solid state Physics, 7th edn. –N.Y. Wiley, 1995.
5. Jones H.M. // The theory of Brillouin Zones and electron States in crystals. Amsterdam, North-Holland, 1962.

Axmadjon AXLIMIRZAYEV,
Andijon davlat universiteti, ‘‘Matematika’’ kafedrasi professori
Ziyodaxon RUSTAMOVA,
Andijon davlat universiteti, ‘‘Matematika’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MASALALARNI TURLI USULLAR BILAN YECHISHGA O‘RGATISH – O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarga masalalarni turli usullar bilan yechishni o‘rgatish o‘quvchilarni qobiliyatini shakllantirish to‘g‘risida bayon etilgan. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda bolalarni mantiqan fikrlashga o‘rgatish haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Masala, uchburchak, uchburchakning yuzi, tashqi chizilgan aylana radiusi, ichki chizilgan aylana radiusi, burchak, kvadrat tenglama, irratsional tenglama, chet ildiz, irratsional tengsizlik.

В статье рассказывается о формировании у учащихся способности учить решать задачи различными способами. В современном быстро меняющемся мире существует множество способов научить детей логически мыслить.

Ключевые слова. Задача, треугольник, площадь треугольника, радиус окружности описанной около треугольника, радиус окружности вписанной около треугольника, угол, квадратные уравнения, иррациональные уравнения, посторонный корень, иррациональные неравенства.

The article explains about the formation of students’ abilities to teach students how to solve issues in different ways. In today's fast-paced world, there are many ways to teach children to think logically.

Key words. Problem, triangle, area of a triangle, radius of a circle described near a triangle, radius of a circle inscribed near a triangle, angle, quadratic equations, irrational equations, square root, irrational inequalities.

Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida, jumladan, umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishni zamon talablariga mos holda takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu vazifaning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-4387 sonli qarorida ham o‘z aksini topgan[1].

Ma’lumki, matematikani o‘qitish jarayonida masalalardan foydalanish o‘z tarixiga ega. Matematik ta’limni amalga oshirish jarayonida masalalardan foydalanish haqida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 9-iyuldagi PQ-4387-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil, 07/19/4387/3397.

gap borganda quyidagilarni nazarda tutish kerak:


1. Matematika fanining nazariy qismlarini o‘rganish matematik masalalarni yechish orqali amalga oshiriladi.

2. Matematika fanini o‘rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani o‘rganish masalalar yechish orqali amalga oshiriladi[2].

Matematik masalalarni yechish o‘quvchilarning matematik faoliyatlarini shakllantirish bilan birga ularni ana shu fanga doir bilimlarni o‘zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq qila olish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Hozirgi zamon didaktikasida Semushin A.D., Neshkov K.I., Kolyagin Y.M., Ikromov J.I., Tolaganov T., Gaybullayev N., Nguen Van Chang, Vardanyan S.S., Guseev V.A., Barakayev M., Tereshin N.A. kabi uslubchi matematiklar matematika kursidagi masalalarning bajaradigan funksiyalarini quyidagi turlarga bo‘lishadi:




1-chizma


1. Masalaning ta’limiy funksiyasi.
2. Masalaning tarbiyaviy funksiyasi.
3. Masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi.
4. Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi.

Demak, matematik ta’limni amalga oshirishda masalalar muhim ahamiyatga ega ekan. Shuning uchun ham o‘qituvchi matematikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni masalalar yechishga o‘rgatishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari matematika kursida shunday masalalar uchraydiki, ularni bir emas, bir necha usullar bilan yechish mumkin bo‘ladi. Masalalarni turli usullar bilan yechish matematik ta’limni takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi[3].

Berilgan masalani bitta usul bilan yechishning maqsadi – to‘g‘ri javobni topishdan iborat. Agar biz o‘quvchiga berilgan masalani bir nechta usul bilan yechishni topshirsak, u holda o‘quvchi yechimni topishning sodda, qulay, qisqa va aniq usulini topishga harakat qiladi. Bunda ular bir qancha nazariy ma’lumotlardan foydalanadilar. Bular esa o‘quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va o‘quv faoliyatini



2-chizma



3-chizma

samarali bo‘lishini ta’minlagan holda ularni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

[2] Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. –T.: Tafakkur bo‘stoni. 2011. –385-b.

[3] Клейман Я.М.. Решение задач различными способами. Математика в школе. М. 1987 г. №1. –С.23-28.

Masalalarni bir necha usullar bilan yechishga asosan VI sinfdan boshlab tizimli kirishish mumkin. Bunda biz o‘quvchilarni berilgan masalani tahlil qilishga va uni qanday usullar bilan yechish mumkinligini aniqlashga o‘rgatishimiz kerak.

Odatda, sinfda dars jarayonida vaqtning chegaralanganligi bois masalani bir yoki ikki usul bilan yechish mumkin. Qolgan usullarni aniqlash va ular yordamida masalani yechishni o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida berish yoki to‘garak mashg‘ulotlariga qoldirish mumkin. O‘quvchilar tomonidan topilgan ba’zi usullar ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Lekin o‘qituvchi ularni qo‘llab quvvatlashi va ularni yana boshqa usullarni izlashga o‘rgatishi kerak. Masalani bir necha usullar bilan yechganda foydalanilgan usullardan eng soddasi, qulayi, ixchami va eng kam vaqt oladiganini o‘quvchilar o‘zlari ajratishlari va xulosa qilishlari kerak.

Masalalarni bir necha usullar bilan yechishga asosan matematikaning biron bo‘limini yakunlashda yoki yakuniy takrorlash darslarida to‘xtalish mumkin. Bunda berilgan masalani yechishda foydalaniladigan nazariy ma’lumotlar hajmi ancha katta bo‘ladi.

O‘quvchilarni masalani bir necha usullar bilan yechishga o‘rgatishni reja asosida va tizimli bo‘lishini tashkil qilish o‘quvchilarni mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Quyida biz bir necha usullar bilan yechish mumkin bo‘lgan masalalardan namunalar keltiramiz:

1-masala. ABC uchburchakning A va C uchlaridan tushirilgan balandliklari N nuqtada kesishadi. Agar $\angle A=70^0$, $\angle C=80^0$ bo‘lsa, ANC burchak topilsin (1-chizma).

Yechish: 1-usul. AKC va APN uchburchaklar to‘g‘ri burchaklidir. Ulardan $\angle KCA=90^0-\angle A=90^0-70^0=20^0$, $\angle NAC=90^0-80^0=10^0$. Bu holda $\angle ANC=180^0-(20^0+10^0)=150^0$.

2-usul. $\angle ABC=180^0-(80^0+70^0)=180^0-150^0=30^0$. $\angle KCB=90^0-30^0=60^0$, $PNC=90^0-60^0=30^0$. Bu burchak $\angle ANC$ ga qo‘shni burchak bo‘lgani uchun $\angle ANC=180^0-\angle PNC=180^0-30^0=150^0$.

3-usul. $\angle A=70^0$ va $\angle C=80^0$ bo‘lgani uchun $\angle C=180^0-(\angle A+\angle C)=180^0-(70^0+80^0)=30^0$. Endi BKNP qavariq to‘rtburchakni qaraymiz. $\angle KNP$ va $\angle ANC$ lar vertikal burchaklar bo‘lgani uchun ular teng, ya’ni $\angle KNP=\angle ANC$. Demak, masala BKNP qavariq to‘rtburchakning KNP burchagini topishdan iborat bo‘ldi. Qavariq to‘rtburchak ichki burchaklari yig‘indisi 360^0 ga tengligi ma’lum. KBPN qavariq to‘rtburchak 2 ta KNP va KBP uchburchaklar yig‘indisidan iborat. Unga asosan, $\angle BKP+\angle KBP+KPB=\angle NKP+\angle NPK+\angle KNP=180^0$ bo‘lgani uchun $\angle KBP+\angle BKN+\angle BPN+\angle KNP=360^0$. Masalaning shartiga ko‘ra, $\angle BKN=\angle BPN=90^0$. Demak, $300+900+ 900 + \angle KNP=360^0$. Bundan $\angle KNP=360^0-210^0=150^0$.

Uchinchi usul bilan yechishda qo‘shimcha sifatida qavariq to‘rtburchak ichki burchaklar yig‘indisi haqidagi teoremadan ham foydalanildi. Bu masalani yechish jarayonida o‘quvchilarning bilim doiralari yanada kengayadi.

2-masala. Asosi 10 va yon tomonlari 13 ga teng bo‘lgan teng yonli uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylanalar radiuslari topilsin.

Yechish: 1-usul. Bu masalani yechishga kirishishdan avval o‘quvchilar bilan uchburchakka tashqi chizilgan va ichki chizilgan aylanalar markazlari haqidagi teoremalar va uchburchakka tashqi va ichki aylanalar chizish usullari takrorlanishi kerak.

R va r larni topish uchun quyidagi chizmalardan foydalanamiz:

Masalaning shartiga ko‘ra, AB=BC=13, AC=10. BDC uchburchak to‘g‘ri burchakli. Pifagor teoremasiga asosan $BD=\sqrt{BC^2-DC^2}=\sqrt{13^2-5^2})=12$. Bu yerda $DC=AC/2=10/2=5$. O nuqta uchburchakka tashqi chizilgan aylananing markazi, OK□BC va BK=KC. ODC

uchburchakdan Pifagor teoremasiga asosan =$\sqrt{OC^2-DC^2}$)=$\sqrt{R^2-5^2}$, ammo OD+OB=BD. Demak, $\sqrt{R^2-5^2}$+R=12. Bundan R=169/24.

O_1 uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi $O_1D=O_1N=r$. ΔDO_1 C=ΔNO_1 C bo‘lgani uchun DC=CN va BN=13-5=8. Ammo BO_1=12-r. BO_1N uchburchakdan Pifagor teoremasiga asosan, O_1 $N^2=BO_1{}^2-BN^2$, ya’ni $r^2=(12-r)^2-8^2$ bo‘lib, bundan r=10/3.

2-usul. ∠DBC=α deylik. ΔBDC dan BD=$\sqrt{BC^2-DC^2}$=$\sqrt{13^2-5^2}$=12 ni topamiz. ΔBDC dan cosα=BD/BC=12/13. ΔBOC da OC=OB=R, BK=13/2 va BK/R=cosα,13/2R=cosα. Bundan, R=13/2cosα=13/(2·12/13)=169/24.

ΔDBC dan =DC/BC=5/13. ΔBO_1 N dan O_1 N=BO_1 sinα kelib chiqadi. $O_1N=r$ bo‘lgani uchun r=(12-r)·5/13 bo‘lib, bundan =10/3.

3-usul. BD ni aylana bilan kesishguncha davom ettiramiz va uning aylana bilan kesishish nuqtasini E bilan belgilaymiz. Natijada BCE to‘g‘ri burchakli uchburchak hosil bo‘ladi. Bunda BE gipotenuza va ∠BCE=900. CD esa BE gipotenuzaga tushirilgan perpendikulyar. Shuning uchun $BC^2=BD\cdot BE$ bo‘ladi. Demak, 169=12·2R,R=169/24.

r n topish uchun aylanaga o‘tkazilgan urinma va kesuvchi haqidagi teoremadan foydalanamiz. Unga asosan $BN^2=BM\cdot BD$, ya’ni

$8^2=(12-2r)\cdot 12$. Bundan esa =10/3.

4-usul. ΔABC teng yonli bo‘lgani uchun DC=AC/2=10/2=5.

BD=$\sqrt{BC^2-DC^2}$=$\sqrt{13^2-5^2}$=12. $S_{\Delta ABC}$=(10·12)/2=60. Endi R va r larni R=abc/4S va r=2S/(a+b+c) formulalardan topamiz. Demak, =(13·13·10)/(4·60)=169/24.

r=(2·60)/(13+13+10)=120/36=10/3.

3-masala. $\sqrt{7x^2-x-3}+\sqrt{7x^2-x+10}=7$ tenglama yechilsin.

Yechish: 1-usul. Tenglamaning aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to‘plamidan iborat (buni ko‘rsatish qiyin emas). Tenglamani yechish uchun chap tomondagi 2-qo‘shiluvchini o‘ng tomonga o‘tkazamiz va har ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz (an’anaviy usul):

$\sqrt{7x^2-x+3}+\sqrt{7x^2-x+10}=7$, $\sqrt{7x^2-x+3}=7-\sqrt{7x^2-x+10}$, $(\sqrt{7x^2-x+3})^2=(7-\sqrt{7x^2-x+10})^2$,

$7x^2-x+3=49-14\sqrt{7x^2-x+10}+7x^2-x+10$,

$14\sqrt{7x^2-x+10}=56$, $\sqrt{7x^2-x+10}=4$.

Hosil bo‘lgan tenglama eng sodda irratsional tenglamadir. Uni har ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz.

$7x^2-x+10=16$, $7x^2-x-6=0$, $x_{1,2}=(1\pm\sqrt{(1+168)})/14=(1\pm13)/14$;

$x_1=1$, $x_2=-6/7$.

x ning har ikkala qiymati berilgan tenglamani qanoatlantiradi.

2-usul. $\sqrt{7x^2-x+3}=u$, $\sqrt{7x^2-x+10}=v$ belgilash kiritamiz.

U holda $7x^2-x+3=u^2$ va $7x^2-x+10=v^2$ bo‘ladi. Bu yerda

$7x^2-x+3>0$ va $7x^2-x+10>0$ bo‘lganligi uchun u>0 va v>0. Yuqoridagi belgilashlarni e’tiborga olsak,

$$\begin{cases} u+v=7, & (1)\\ u^2=7x^2-x+3, & (2)\\ v^2=7x^2-x+10, & (3)\end{cases}$$

sistemaga ega bo‘lamiz.

(2) va (3) lardan $u^2-v^2=-7$ ni hosil qilamiz. Buni e’tiborga olsak, oxirgi sistemadan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{cases} u+v=7 \\ u^2-v^2=-7 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} u+v=7 \\ (u-v)(u+v)=-7, \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} u+v=7 \\ u-v=-1. \end{cases}$$

Oxirgi sistemaning tenglamalarini hadma-had qo‘shib, u=3 ni topamiz. u ning topilgan bu qiymatini $u^2=7x^2-x+3$ ga qo‘yib, $7x^2-x+3=9$ ni, undan esa $7x^2-x-6=0$ ni

topamiz. Hosil bo‘lgan tenglama kvadrat tenglama bo‘lib, uning ildizlari $x_1=1$, $x^2=-6/7$ lardan iborat. Bularning har ikkalasi berilgan tenglamani qanoatlantiradi.

3-usul. $\sqrt{(7x^2-x+10)}=y$ $(y>0)$ deylik, u holda $7x^2-x+10=y^2$ va $7x^2-x+3=y^2-7$ bo‘lib, berilgan tenglama $\sqrt{(y^2-7)}+y=7$ yoki $\sqrt{(y^2-7)}=7-y$ ko‘rinishga keladi. Bu eng sodda irratsional tenglamadir. Uni an’anaviy usul bilan yechamiz: $\sqrt{(y^2-7)}=7-y$,$(\sqrt{(y^2-7)})^2=$
$=(7-y)^2$, $y^2-7=49-14y+y^2$, $14y=56$, $y=4$

Demak, $\sqrt{(7x^2-x+10)}=4$, $7x^2-x+10=16$, $7x^2-x-6=0$;

$x_1=1$, $x_2=-6/7$.

4-usul. Berilgan tenglamani har ikkala tomonini uning chap tomonidagi ifodani qo‘shmasiga ko‘paytiramiz.

$(\sqrt{(7x^2-x+3)}+\sqrt{(7x^2-x+10)})(\sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)})==7(\sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)})$,

$7x^2-x+3-7x^2+x-10=7(\sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)})$,

$-7=7(\sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)})$,

$\sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)}=-1$.

Bu tenglamani berilgan tenglama bilan sistema qilib yechamiz.

$$\begin{cases}\sqrt{(7x^2-x+3)}+\sqrt{(7x^2-x+10)}=7,\\ \sqrt{(7x^2-x+3)}-\sqrt{(7x^2-x+10)}=-1\end{cases}$$

Buni yechish uchun uning har ikkala tomonini hadma-had qo‘shamiz.

$2\sqrt{(7x^2-x+3)}=6$,$\sqrt{(7x^2-x+3)}=3$,$7x^2-x+3=9$,$7x^2-x-6=0$;

$x_1=1$, $x_2=-6/7$.

4-masala. $\sqrt{(x^2-x-1)}+\sqrt{(1-x-x^2)}=x^2+x+2$ tenglama yechilsin.

Yechish: 1-usul. O‘rta arifmetik va o‘rta geometrik haqidagi teoremadan foydalanamiz.


$\sqrt{((x^2-x-1)\cdot 1)}\le((x^2-x-1)+1)/2=(x^2-x)/2$;

$\sqrt{((1-x-x^2)\cdot 1)}\le((1-x-x^2)+1)/2=(1-x-x^2+1)/2=(2-x-x^2)/2$.

$(x^2-x)/2+(2-x-x^2)/2=(x^2-x+2-x-x^2)/2=(2-2x)/2=1-x$

bo‘lgani uchun tenglamaning chap tomoni 1-x dan katta emas. Shuning uchun

$x^2+x+2\le 1-x$ yoki $x^2+2x+1\le 0$, $(x+1)^2\le 0$. Bu esa faqat $x=-1$ dagina o‘rinlidir. Demak, berilgan tenglamaning ildizi $x=-1$ dan iborat.



4-chizma

Tekshirish: $\sqrt{(x^2-x-1)}+\sqrt{(1-x-x^2)}=\sqrt{((-1)^2-(-1)-1)}+\sqrt{(1-(-1)-(-1)^2)}=\sqrt{1}+\sqrt{1}=2$; $x^2+x+2=(-1)^2-(-1)+2=1-1+2=2$. Demak, $2=2$.

2-usul. Tenglamani yechish uchun $a_1\ a_2+b_1\ b_2\le\sqrt{(a_1^2+b_1^2)}\cdot\sqrt{(a_2^2+b_2^2)}$ Koshi-Bunyakovskiy tengsizligidan foydalanamiz. Bu yerda $a_1=1$, $a_2=\sqrt{(x^2-x-1)}$, $b_1=1$, $b_2=\sqrt{(1-x-x^2)}$ deb olamiz. U holda yuqoridagi tengsizlikka asosan,

$1\cdot\sqrt{(x^2-x-1)}+1\cdot\sqrt{(1-x-x^2)}\le\sqrt{(1+1)}\cdot\sqrt{(x^2-x-1+1-x-x^2)}$,

$\sqrt{(x^2-x-1)}+\sqrt{(1-x-x^2)}\le\sqrt{2}\cdot\sqrt{(-2x)}=2\sqrt{(-x)}$.

$\bar{a}(1;1)$ va $\bar{b}(\sqrt{(x^2-x-1)};\ \sqrt{(1-x-x^2)})$ vektorlarning kolleniarligidan

$1/\sqrt{(x^2-x-1)}=1/\sqrt{(1-x-x^2)}$ yoki $\sqrt{(x^2-x-1)}=\sqrt{(1-x-x^2)}$

Hosil bo‘lgan tenglama eng sodda irratsional tenglamadir. Uni yechish uchun har ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz:

$$\begin{cases}(\sqrt{(x^2-x-1)})^2=(\sqrt{(1-x-x^2)})^2,\\ x^2-x-1=1-x-x^2,\\ 2x^2=2,\\ x^2=1,\\ x=-1\ (x<0).\end{cases}$$

3-usul. x ning har qanday haqiqiy qiymatlarida $x^2+x+2>0$ bo‘lishi ravshan, chunki $a=1>0$ va $D<0$.

Shuning uchun tenglamaning aniqlanish sohasi quyidagi sistemaga teng kuchli:

$(x^2-x-1\geq 0,\quad ((x-1/2)^2\geq 5/4,\quad (|x-1/2|\geq\sqrt{5}/2,$
$1-x-x^2\geq 0);\quad (x+1/2)^2\leq 5/4);\quad |x+1/2|\leq\sqrt{5}/2.)\quad x\in[-(1+\sqrt{5})/2;\ (1-\sqrt{5})/2].$

$[-(1+\sqrt{5})/2;\ (1-\sqrt{5})/2]$ kesmada tenglamaning chap tomoni o‘suvchi, o‘ng tomoni esa kamayuvchi. Bundan esa tenglamaning bittadan ortiq ildizga ega emasligi kelib chiqadi. Tanlash yo‘li bilan bu ildiz x=-1 ekanligini aniqlaymiz.

4-usul. $u=x^2-x-1$, $v=1-x-x^2$, $t=x^2+x+2$ belgilashlar qilamiz va tenglamani $\sqrt{u}-\sqrt{v}=\sqrt{t}$ ko‘rinishida yozamiz. Bundan

$u+v-2\sqrt{uv}=t$ yoki $(x^2-x-1)+(1-x-x^2)-2\sqrt{uv}=x^2+x+2$ yoki $x^2+3x+2=-2\sqrt{uv}$, $-2\sqrt{uv}=(x+1)(x+2)$. $uv\geq 0$ bo‘lishi kerakligidan oxirgi tenglik $(x+1)(x+2)=0$ bo‘lgandagina o‘rinli. Bundan x=-1 va x=-2 lar kelib chiqadi. Ammo x=-2 tenglamaning aniqlanish sohasiga kirmaydi. Demak, x=-1 berilgan tenglamaning ildizi ekan.

5-masala. $16x^2+9x+117=24x\sqrt{(x+3)}$ tenglama yechilsin.

Yechish: Berilgan tenglamani $16x^2-24x\sqrt{(x+13)}+9(x+13)=0$ ko‘rinishida yozamiz. Bu tenglamani bir necha usullar bilan yechish mumkin.

1-usul. Chap tomonidan to‘la kvadrat ajratamiz.

$(4x)^2-2\cdot 4x\cdot 3\sqrt{(x+13)}+3^2\cdot(x+13)=0,(4x-3\sqrt{(x+13)})^2=0,4x=3\sqrt{(x+13)}$ $(x>0)$

Hosil bo‘lgan tenglamani har ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz.

$(4x)^2=(3\sqrt{(x+13)})^2,16x^2=9(x+13),16x^2-9x-117=0$. Bu kvadrat tenglamadir. Uni yechamiz. $x_1,2=(9\pm\sqrt{(81+7488)})/32=(9\pm\sqrt{7569})/32=(9\pm 87)/32$; $x_1=3$, $x_2=-39/16$. Ikkinchi ildiz qanoatlantirmaydi. Javob: 3.

2-usul. $16x^2-24x\sqrt{(x+13)}+9(x+13)=0$ tenglamani har ikkala tomonini $x\sqrt{(x+13)}\neq 0$ ga bo‘lamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz:

$16\cdot x/\sqrt{(x+13)}+9\cdot\sqrt{(x+13)}/x-24=0$

$x/\sqrt{(x+13)}=y$ ($x>0$ da $y>0$ bo‘ladi) deb olamiz. U holda $16y+9/y-24=0$,

$16y^2-24y+9=0$, $(4y-3)^2=0$, $4y-3=0$, $y=3/4$.

Demak, $x/\sqrt{(x+13)}=3/4$, $4x=3\sqrt{(x+13)},16x^2-9x-117=0$. Bu tenglamani yuqorida yechganmiz.

3-usul. $\sqrt{(x+13)}=y$ deylik. U holda $9x+117=9(x+13)=9y^2$ bo‘lib, berilgan tenglama $16x^2-24xy+9y^2=0$ ko‘rinishiga keladi. Bu tenglama bir jinsli tenglamadir. Oxirgi tenglamani $(4x-3y)^2=0$ ko‘rinishda yozish mumkin. Bundan $4x=3y$ yoki $4x=3\sqrt{(x+13)}$. Bu tenglamani biz yuqorida yechdik.

6-masala. $\sqrt{(4x-1)}<x+5$ tengsizlik yechilsin.

Yechish. 1-usul. Berilgan tengsizlik quyidagi sistemaga teng kuchli:

$(4x-1\geq 0,\quad x\geq 1/4,$
$x+5>0,\quad x>-5,$
$4x-1<(x+5)^2\quad 4x-1<x^2+10x+25.;$

$x\geq 1/4\quad x\geq 1/4,$
$x^2+6x+26>0\ ;\quad x\in R.\quad ;\ x\geq 1/4.$

Javob: $[1/4;\ +\infty)$.

2-usul. $\sqrt{(4x-1)}=y$ $(y>0)$ deylik. U holda $y^2=4x-1$, $x=(y^2+1)/4$ va $x+5=(y^2+1)/4+5=(y^2+1+20)/4=(y^2+21)/4$. Endi biz quyidagi sistemaga ega bo‘lamiz:

$y<(y^2+21)/4,\quad 4y<y^2+21,\quad y^2-4y+21>0,\quad y\in R,$
$y\geq 0\ .\quad y\geq 0.\ ;\quad y\geq 0\quad y\geq 0)\ ;\ y\geq 0.$

Demak, √(4x-1)≥0, 4x-1≥0, x≥1/4 .

Javob: [1/4; +∞).

3-usul. y=√(4x-1) va y=x+5 funksiyalarning grafiklarini yasaymiz (4-chizma). y=x+5 funksiyaning grafigi (-5; 0) va (0; 5) nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat. y=√(4x-1) funksiyaning grafigini chizish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz (bunda x≥1/4).

x	¼	1	2	3	4
y=√(4x-1)	0	√3≈1,73	√7≈2,6	√11≈3,3	√15≈3,9

Javob: [1/4; +∞).

Shunday qilib, biz ushbu maqolada bir necha usullar bilan yechish mumkin bo‘lgan masalalardan namunalar keltirdik. Maktab matematika kursining deyarli barcha mavzularini o‘rganishda bunday masalalardan foydalanish mumkin. Albatta, dars jarayonida bunday masalalarni yetarlicha o‘rganish imkoniyati chegaralangan. Shuning uchun ham o‘qituvchi bunday masalalarni yechishning boshqa usullarini o‘quvchilarga mustaqil ish sifatida topshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil, 07/19/4387/3397.

2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. –T.: Tafakkur bo‘stoni. 2011. –385-b.

3. Клейман Я.М.. Решение задач различными способами. Математика в школе. –М., 1987 г. №1. –С.23-28.

Zebuniso BOBAYEVA,
Toshkent shahridagi YEOJU texnika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA MA’NAVIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Yosh avlodni ongli, tarbiyali, bilimli va ilmli qilib voyaga yetkazishda esa biz ko‘plab bilimlarga tayanamiz, ular bilan birgalikda izlanamiz. Hozirda juda ko‘plab fanlar mavjud va ularning orasida tabiiy fanlar muhim ahamiyatga ega. Tabiiy fanlar barcha fanlar bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ham ajralib turadi, hamda bolaning ilmiy dunyoqarashi, mustaqil fikrlashiga yordam beradi. O‘quvchilarni tabiatga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash milliy tarbiyamiz, qadriyatlarimiz, tariximiz, tarixiy manbalarimiz, ajdodlarimizdan qolgan asarlarimiz, diniy qarashlarimiz va allomalarimizning qarashlariga tayanamiz. Ushbu tahliliy maqolada shunday fikrlar haqidagi ayrim mulahozalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiiy fanlar, tabiatshunoslik, sharq mutafakkirlari, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, pedagoglar, Milliy o‘quv dasturi, STEAM.

Воспитывая подрастающее поколение сознательным, образованным, знающим и знающим, мы опираемся на много знаний и вместе ищем их. Наук сегодня много, и естествознание среди них. Естественные науки тесно переплетаются со всеми другими науками и помогают ребенку развивать научное мировоззрение и самостоятельное мышление. Воспитание у школьников любви к природе основывается на нашем национальном воспитании, на наших ценностях, на нашей истории, на наших исторических источниках, на трудах наших предков, на наших религиозных воззрениях и взглядах наших ученых. В данной аналитической статье представлены некоторые соображения по поводу таких взглядов.

Ключевые слова. Естествознание, естествознание, восточные мыслители, начальное образование, ученики, учителя, национальная учебная программа, STEAM.

In bringing up the younger generation to be conscious, educated, knowledgeable and knowledgeable, we rely on a lot of knowledge and seek it together. There are many sciences today, and the natural sciences are among them. The natural sciences are closely intertwined with all other sciences, and help the child to develop a scientific outlook and independent thinking. Educating students to love nature is based on our national upbringing, our values, our history, our historical sources, the works of our ancestors, our religious views and the views of our scholars. This analytical article presents some considerations for such views.

Key words. Natural sciences, natural sciences, oriental thinkers, primary education, students, teachers, National Curriculum, STEAM.

Hammamizga ma’lum qadim allomalarimizdan qolgan “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” degan naql bor. Bilim inson hayotining ziynati desak adashmagan bo‘lamiz. Zero, bizning dunyoviy bilimlarga bo‘lgan qiziqishlarimiz yanada ko‘proq narsani bilishga undaydi, yanada izlanishga undaydi. Ushbu fanlar ichida esa tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishimiz katta. Chunki hayotimizda atrofimizda bo‘layotgan har bir voqea hodisalar biz uchun muhim va qiziqdir. Mana shunday qiziqishlar o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongi rivojlanishiga, ilmiy dunyoqarashlari kengayishiga turtki

bo‘ladi. Bunday bilimlarni o‘quvchi ongiga bexato va tushunarli qilib yetkazib berish o‘qituvchi pedagoglarning burchi sanaladi. Tabiiy fanlar juda qiziqarli va rang barangdir. Biz turli tabiatshunoslikka oid manbalardan tashqari tariximiz, kelib chiqishimiz, yerning paydo bo‘lishi, inson va turli jonzotlarning vujudga kelishi, samoviy jismlar, dengiz va okeanlardagi hayot tarzi, qolaversa, dinimiz, e’tiqodimiz haqida o‘quvchilarga to‘g‘ri va to‘liq bilim berib borishimiz lozim. Ularning ongida bo‘shliq qoldirishimiz mumkin emas. Chunonchi, bu borada joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturida ham o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish hamda, barcha fanlarni bir-biri bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish nazarda tutilgan, ya’ni bundan maqsad bo‘lajak kadr o‘rganganini amaliyotda mustaqil qo‘llay olishi maqsad qilib qo‘yilgan.Yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun STEAM fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodi bilan ta’minlandi. Albatta, har bir fan, ayniqsa, tabiiy fanlarni amaliyotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari tabiiy fanlarni yosh avlodga o‘qitishda biz sharq mutafakkirlarining bizga qoldirgan manbalariga tayanamiz. Demak, ko‘rinib turibdiki, qadim zamonlardan boshlab tabiatni, dunyo ilmlari, sir-sinoatlarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq paydo bo‘lgan. Bu esa inson aqliy faoliyatining rivojlanib, yuksalib kelayotganidan dalolat beradi. Hozir biz rivojlangan axborotlashgan davrda yashayotgan bo‘lsak, kelgusi avlodlarimiz bundan-da yuqori saviyali davrni ko‘rishlari ehtimoldan holi emas, chunki inson aqli har qanday texnik qurilmadan kuchliroq qudratga ega. Endi esa tarixiy asarlar yosh avlodning tabiiy dunyoqarashi kengayishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin degan savolga javob topishga urinamiz. Misol tariqasida, “Avesto” qadimiy yodgorligiga nazar solaylik.

9-10 asrlarda tabiatshunoslik fanlarning rivojlanishida aniq va fundamental fanlar sohasida ijod etgan musulmon olami vakillarining alohida hissalari bor. Misol tariqasida, Abu nasr Farobiy izlanishlarini olishimiz mumkin. Farobiyning tabiatshunoslikka oid “Hajm va miqdor haqida so‘z”, “Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob”, “Astronomiya qoidalari haqida mulohazalarni to‘g‘irlash usuli haqida maqola”, “Fizika asoslari haqida kitob”, “Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola”, “Inson a’zolari haqida risola”, “Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z” va boshqalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Abu Ali ibn Sino Farobiy sharhlarini o‘qib, Aristotel asarlarini tushunganligini shunday ta’kidlaydi: “Farobiy falsafaning umumiy masalalariga, insonning bilish tomonlarining falsafiy bilish tomonlariga, materiyaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o‘rganishga, materiya xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlari, tilshunoslik, she’riyat, ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish va boshqa masalalarga oid asarlar yozdi”.

O‘rta asr Sharqining buyuk olimlaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy metallar va boshqa moddalarning solishtirma og‘irliklarini tajribada katta aniqlik bilan o‘lchagan. Hozirgi zamonaviy usullarda aniqlangan metallarning solishtirma og‘irliklarni taqqoslaganda Beruniy tomonidan aniqlangan qiymatlarining aniqlik darajasiga ancha yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Beruniy Yer radiusini o‘lchashning usulini ishlab chiqdi. Uning o‘lchashlari bo‘yicha Yerning radiusi 1081,66 farsaxga, ya’ni 6490 km ga teng. Beruniy Quyosh tutilishi vaqtida Quyosh tojini kuzatdi va uni tushuntirib berdi. U Yerning Quyosh atrofida aylanish to‘g‘risida fikrni aytgan va geliotsentrik nazariyasini olg‘a surdi. Globusni ixtiro qildi.

Sharqning buyuk allomasi – astronom olim, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek buyuk Amir Temurning nevarasi bo‘lgan. U Samarqandda o‘z davrida jahonda yagona hisoblangan

observatoriyani qurgan. Mirzo Ulug‘bekning butun jahonda unga shuhrat keltirgan asosiy asari “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji Ko‘ragoniy” va “Ziji jadida Ko‘ragoniy” nomlari bilan ma’lum. Samarqand ilmiy maktabining shoh asari bo‘lgan “Zij” o‘rta asr astronomiyasi va matematikasini o‘z ichiga olgan. 16-asrdan boshlab hozirgacha, Yevropada lotin va boshqa tillarga tarjima qilingan. “Ziji”da keltirilgan jadvallarning aniqligi va qo‘llanilgan matematik usullariga ko‘ra, u o‘rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammali bo‘lgan.

16-17 asrlarga kelib, Yevropada ilmiy inqilob davri boshlandi desak adashmagan bo‘lamiz. Bu davrda N.Kopernik, G.Galiley, I.Nyuton kabi buyuk allomalarning kashfiyotlari vujudga keldi. G.Galiley o‘zi yasagan ko‘rish trubasi orqali astronomik kuzatishlar olib bordi va ixtirolar qildi. Uning kuzatishi bo‘yicha Quyosh ham o‘z o‘qi atrofida aylanadi va uning yuzasida qora dog‘lar mavjud. U Quyosh sistemasidagi eng katta Yupiter sayyorasining 4 ta yo‘ldoshini aniqladi, hozirgi kunda 12 ta yo‘ldosh aniqlangan. U Oydagi krater va tog‘ tizmalarini, Somon Yo‘lini tashkil qiluvchi ko‘pgina yulduzlar to‘plamini ko‘ra bildi. N.Kopernik nazariyasini va J.Bruno g‘oyalarini G.Galiley o‘zini kuzatishlari orqali tasdiqladi.I.Keplerning ilm-fan olamida eng asosiy yutug‘i, uning tomonidan sayyoralar harakatiga oid qonunlarning kashf etilishi bo‘ldi. Nyuton esa birinchi bo‘lib yorug‘lik tezligini to‘liq o‘lchadi, shishali teleskop yaratdi va hokazolar.

Yuqoridagilarga o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda quyidagi ayrim xulosa va mulohozlarni tavsiya etamiz.

Birinchidan, ham yosh avlodga tabiiy fanlarni o‘rgatish ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishiga, qiziqqan sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishiga, dunyoviy bilimlarni egallashga, tillarga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga, millatimizning tarixi va kelajagi bilan qiziqishga va shu kabi ko‘plab tushunchalarni egallashga ko‘maklashuvchi fanlar sirasidandir.

Ikkinchidan, tabiiy va aniq fanlar doimo bir-biri bilan bilvosita bog‘liq bo‘lganligi uchun ham ushbu fan matematika, fizika, kimyo, tarix va boshqa fanlar yordamida kengroq o‘rganiladi.

Uchinchidan, tabiiy fanlar jarayonida ko‘plab ekskursiyalar, amaliy darslar, laboratoriyalar, sinfdan tashqari darslar yordamida o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashga moslashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. –T., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. Xoshimov K., Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi Oliy o‘quv yurtlari boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi mutaxassisligi uchun darslik G‘ofur G‘ulom nomidagi НМИУ – T., 2004.

3. Sharipova D., Xodiyeva D., Shirinov M. “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” Darslik. Shafoat Nur Fayz nashriyoti, 2020.

Munisa ADILOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosining dolzarbligi jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqqan holda asoslanadi, bu o‘qituvchi va ta’lim munosabatlarining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqaning yuqori professional darajasini talab qiladi. Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi tushunchasi va malaka oshirish tizimi orqali rivojlanish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, ortiqcha kasbiy kompetensiyalar, boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisi, malaka oshirish tizimi.

Обоснована актуальность проблемы развития коммуникативной компетенции педагога начального общего образования, исходя из социального заказа общества, который требует высокопрофессионального уровня общения педагога со всеми участниками образовательных отношений. Раскрывается понятие коммуникативной компетенции педагога начального общего образования и пути развития через систему повышения квалификации.

Ключевые слова. Коммуникативная компетенция, надпрофессиональные компетенции, педагог начального общего образования, система повышения квалификации.

The urgency of the problem of development of the communicative competence of the teacher primary education, on the basis of the social order of society, which requires a highly professional level of communication with all members of the teacher education relations. The notion of communicative competence of the teacher and primary education through the development of a system of training.

Key words. Above-professional competence, communicative competence, teacher primary education, training system.

Zamonaviy ta’lim makonida mehnatning eng yaxshi natijalariga erishish, ta’lim sifatini oshirish, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun o‘qituvchi o‘zining kompetensiyalarini rivojlantirish darajasiga e’tibor berishi kerak. Ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv natijaga yo‘naltirilgan yangi ta’lim paradigmasining asosiy tarkibiy qismidir.

Tadqiqotchilarning fikricha (B. Oskarsson, A.V. Xutorskoy), kommunikativ kompetensiyani asosiy ko‘nikmalarga kiritish mumkin – “bular shaxsiy va shaxslararo fazilatlar, qobiliyatlar, ko‘nikma va bilimlar bo‘lib, ular mehnat va ijtimoiy hayotning turli shakllari va turli vaziyatlarida namoyon bo‘ladi”.

Supraprofessional ko‘nikmalar (professional qobiliyatlar) – bu kasbiy faoliyat samaradorligini oshiradigan ko‘nikmalar. Supraprofessional malakalarga quyidagilar kiradi: maqsadlilik va maqsadga muvofiqlik; ona tilida adabiy va ishbilarmonlik va yozma

nutqqa ega bo‘lish; chet tilini bilish; kompyuterdan foydalanish qobiliyati; psixologiya va muloqot etikasi bo‘yicha bilim; vaqtni boshqarish qobiliyati; jamoada ishlash qobiliyati (yetakchilik qobiliyati); aks ettirish qobiliyati; ijodiy fikrlash; o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati; o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati.

Kommunikativ kompetensiya – bu o‘qituvchining ma’lum bir qator vazifalarni hal qilish qobiliyatini belgilaydigan kasbiy qobiliyatdir. Haddan tashqari, predmetli kompetensiyalar – bu haddan tashqari, professional qobiliyatlar, shaxsga muvaffaqiyatli o‘zaro munosabatda bo‘lishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlar. Ular faoliyatning turli sohalarida talabga ega bo‘lib, ular integratsiya (bir xil ko‘nikma va bilimlar soni), ko‘p funksiyalilik (tegishli muammolarni hal qilish qobiliyati), fanlararo (bilimlarni bir fan sohasidan boshqasiga o‘tkazish qobiliyati va qobiliyatlari) bilan ajralib turadi.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi – bu o‘qituvchining muloqot jarayoniga qadrli munosabatini, ongli samarali ijtimoiy o‘zaro ta’sir uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni (har birining o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda) ta’minlaydigan shaxsning integral sifati, jamiyatning elementi) axborotni uzatish, almashish, aloqalarni o‘rnatish, vaziyatni og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalar orqali boshqarish uchun. Shaxsning integrativ sifati (falsafa nuqtai nazaridan) o‘z-o‘zini rivojlantirish va faoliyat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsning pastki tuzilishining elementi sifatida tushuniladi. Integrativ sifatlar tizimida asosiy sifatlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Integrativ fazilatlar shaxsiy fazilatlarni shaxsning yo‘nalishi atrofida bog‘laydi. O‘qituvchining muloqot jarayoniga qadrli munosabati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchining o‘quv faoliyati subyekti sifatidagi rolini tushunish, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar va ularning ota-onalari bilan hamkorlik munosabatlarini yaratish, o‘quv materialini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quv materialining imkoniyatlaridan foydalanish, talaba shaxsini rivojlantirish.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasining mohiyati o‘qituvchining hayotiy vaziyatlarni hal qilishning eng samarali usullarini topishga, o‘qituvchi o‘rtasidagi buzilmaydigan o‘zaro ta’sirni amalga oshirishga qaratilgan texnikani amalga oshirishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalardagi tizimli o‘zgarishlardan iborat.

Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich umumta’lim o‘qituvchisining muloqot jarayoni muloqot uchun emas, balki o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan, sinergik boshlang‘ichga ega bo‘lgan maqsadli muloqotdir. Kompetensiya va kompetensiya tushunchalarini aniqlashdagi nazariy tadqiqotlarga asoslanib, biz boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi mazmuniga quyidagilar kiradi degan xulosaga keldik:

– amaliy tajribani hisobga olgan holda o‘qituvchi faoliyatini algoritmlashning kombinatsiyasi;

– nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarni mujassamlashtirish asosida o‘qituvchining faoliyatga psixologik va shaxsiy tayyorgarligi;

– o‘qitish usullarini bilish va ularni faoliyatga tatbiq etish.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasining tuzilishini batafsil ko‘rib chiqish mumkin.

Gnoseologik komponent – hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarning mazmunini bilish, ma’lumotlarni qidirish va almashish, qaror qabul qilish.

Epistemologik komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– pedagogik muloqot ko‘nikmalarini oshirishning usullarini bilish;

– psixologik-pedagogik ta’sir usullarini bilish;

– bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, shu jumladan, psixologik xususi-

yatlarini bilish;

– zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalarini bilish.

Aksiologik komponent – bu qadriyatlar va qiymat yo‘nalishlari, kasbiy faoliyat motivlari, harakatga tayyorlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati.

Aksiologik komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonidagi har bir ishtirokchining axloqiy, axloqiy, pozitsiyalarini tushunishi va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi;

– ijobiy tajribani tarqatish, o‘qituvchining o‘z amaliyotiga yangiliklarni joriy etishi;

– o‘qituvchining motivatsiyasi.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining o‘ziga xosligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ularning yoshini, shu jumladan, psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida munosabatda bo‘ladi. O‘qituvchi boshlang‘ich maktabdagi muloqot jarayonini ikki tomonlama deb hisoblashi muhim, bunda uning barcha ishtirokchilari to‘liq sherik bo‘ladi. Rivojlangan muloqot qobiliyatiga ega o‘qituvchi bunday ta’lim muhitini tashkil qila oladi, buning natijasida bolada qiziqish, birgalikda o‘ylash, turli nuqtayi nazarlarni ifodalash, g‘oyalarni shakllantirish va maqsad qo‘yish istagi paydo bo‘ladi. O‘qituvchi uchun o‘quvchilarni keyingi yutuqlarga va intellektual rivojlanishga undaydigan muhitni yaratish juda muhim.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasining rivojlanish darajasi nafaqat har bir darsda ko‘rinadi. O‘qituvchi sinfga kirishi bilanoq, og‘zaki belgilar bilan, hali juda yosh o‘quvchilar o‘qituvchining munosabatini intuitiv ravishda ko‘rishadi. Demak, o‘quvchilarda o‘zlarining javoblarida, harakatlarida qo‘rquv yoki ishonch paydo bo‘ladi, keyingi o‘rganish istagi paydo bo‘ladi. Munosabatlar har xil bo‘lishi mumkin: samarali (faoliyatdagi muvaffaqiyat, o‘zini namoyon qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, bolalarga muhabbat izhor qilish, jamiyatga xizmat qilish uchun) va samarasiz (moddiy farovonlik, qiyinchiliklardan qochish, o‘z-o‘zini yuksaltirish uchun boshqalar, tasodifiy munosabat, kuchga bo‘lgan ehtiyoj). O‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyati bilan shug‘ullanar ekan, har bir dars, muloqotning har bir lahzasida o‘z munosabatini doimo taqdim etishi kerak. Har qanday o‘qituvchi sinfda samarali muloqot qilishning o‘ziga xos usullariga ega: “Syurpriz” – darsning qiziqarli boshlanishi, “Tinchlanish” – intellektual dam olish uchun oldindan o‘ylangan imkoniyatlar, boshqa faoliyat turiga o‘tish, “Eslab qoling” – bu o‘quv materialini xotirada mustahkamlash uchun uni takrorlashning turli usullarini o‘ylash kerak. Har bir narsada mutanosiblik tamoyiliga rioya qilish muhimdir.

O‘quvchilarning o‘qituvchiga munosabati nafaqat muloqot natijalari, balki umumiy vizual idrok (tashqi ko‘rinish, imo-ishoralar, xulq-atvor, qarash, tabassum) ham shakllanadi, bu orqali o‘qituvchining o‘zaro ta’sirga tayyorlik darajasi “ko‘zdan kechiriladi”., ham muhim. Bu og‘zaki bo‘lmagan komponentlarning barchasi yomon tushuniladi va o‘qituvchining o‘zi tomonidan nazorat qilinishi qiyin, ammo ular bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar. Kuzatishlar natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik yoshdagi o‘quvchilar ba’zan o‘qituvchining tashqi ko‘rinishini, uning imo-ishoralarini, xulq-atvorini va hokazolarni ko‘chirib olishlarini bilishadi. Barkamol o‘qituvchi o‘qituvchi obrazining barcha tarkibiy qismlariga e’tibor berishi kerak. Qoida tariqasida, og‘zaki bo‘lmagan belgilar pedagogik muloqotning og‘zaki komponentlari bilan tasdiqlanadi. O‘qituvchining muloqot uslubi ko‘p jihatdan nutqning hissiyligi, ovozi, badiiy ekspressivligiga ta’sir qiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan og‘zaki komponentlar, bilim komponentlari darsning hissiy boyligini, o‘quv materialining tajribasini va talabalar tomonidan o‘zlashtirilishini belgilaydi. Tajriba talaba tomonidan

shaxsan boshdan kechirilganda o‘rganilgan hisoblanadi.

Barkamol o‘qituvchi bilim komponentini yaxshiroq o‘zlashtirish vositasi sifatida samarali muloqotdan foydalanish, sinfda xayrixoh hissiy muhitni shakllantirish va o‘quvchilarning o‘qishga ijobiy motivatsiyasini zarur deb biladi. Muloqot jarayonining samaradorligi, birinchi navbatda, o‘qituvchining qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchining o‘quv faoliyati subyekti sifatidagi rolini tushunish, bolalar bilan hamkorlik munosabatlarini yaratish, o‘quv materialining imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun foydalanish.

Prakseologik komponent – bu ko‘nikmalar, odatlar, harakatlar, tajriba. Prakseologik komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘qituvchining voqealarni rivojlantirish rejasini ko‘rish qobiliyati, aloqa ishtirokchilariga bashorat qilish va ularga ta’sir qilish, maqsadga erishish, muqobil takliflarning mavjudligi;

– o‘qituvchining tinglash qobiliyati, buzilmaydigan o‘zaro ta’sirga qaratilgan texnikani bilish va muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Shunday qilib, biz aniqlagan boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasining mohiyati va tuzilishi, shuningdek, o‘qituvchining kommunikativ kompetensiya tushunchasini oydinlashtirish bizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zimnyaya I. A. Asosiy kompetensiyalar – ta’lim natijasining yangi paradigmasi / I. A. Zimnyaya // Bugungi kunda oliy ta’lim. 2003. № 5.34-42-b.

2. Oskarsson B. Asosiy ko‘nikmalar yuqori sifatli kasbiy ta’limning majburiy komponenti sifatida / B. Oskarsson // Kasbiy ta’lim sifatini baholash. hisobot; jami ostida ed. V. I. Baydenko, J. V. Zantvort. Yevropa ta’lim jamg‘armasi; DELPHI loyihasi. –M., 2001. 52-b.

3. Xutorskoy A. V. Zamonaviy didaktika: darslik. nafaqa. 2-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan. –M.: Vyssh.shk., 2007. 639-b.

4. Boyatsis R. Vakolatli menejer. Samarali ish modeli: per. ingliz tilidan. –M.: HIPPO, 2008. 252-b.

5. Kan-Kalik V. A. Pedagogik muloqot haqida o‘qituvchi. – M., Ta’lim, 1987. 190-b.

6. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. –Piter, 2007. 720-b.

7. Kuzmina N. V. O‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustasining shaxsiyatining kasbiyligi. –M.: Vyssh. maktab, 1990. 190-b.

8. Slastenin V. A., Mishchenko A. I. Yaxlit pedagogik jarayon o‘qituvchining kasbiy faoliyati obyekti sifatida. –M.: Pedagogika, 1997. 345-b.

9. Trofimova G.S. Pedagogik kommunikativ kompetensiya: nazariy va amaliy jihatlar: monografiya. Izhevsk: UdGU, p.116.

Matluba ARIPOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

IQTIDORLI TALABALARNI XORIJIY TILLARGA O'QITISHDA XALQARO ILMIY MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o'qitishda googlescholar, elibrary, sciencedirect, scopus xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanishni o'rgatish imkoniyatlari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Talaba, iqtidor, xorijiy til, ta'lim dasturlari, xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi, tadqiqot ishi, iqtibos, imkoniyat.

В данной статье рассматриваются возможности использования международной научной базы данных googlescholar, elibrary, sciencedirect, scopus в обучении одаренных студентов иностранным языкам.

Ключевые слова. Студент, талант, иностранный язык, образовательные программы, международная научная база данных, научно-исследовательская работа, цитата, возможность.

This article discusses the possibilities of using the international scientific database googlescholar, elibrary, sciencedirect, scopus in teaching gifted students in foreign languages.

Key words. Student, talent, foreign language, educational programs, international scientific database, research work, quote, opportunity.

Jahonda madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi, dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari hamda axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishga bo'lgan talab xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish darajalarini aniqlashning xalqaro standartlarini (IELTS, TOEFL, DSD, DELF kabi) joriy etilishi, ochiq ta'lim tizimlari imkoniyatlarining ortib borishi, turli davlatlar o'rtasida ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zaro hamkorlik boshqa xalqlar tillarini o'rganishning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiyalash, uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar xorijiy tillarni birinchi sinfdan boshlab o'qitishni yo'lga qo'yish, mazkur tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga ingliz tilining dunyoda muloqot va axborot sohasidagi yetakchiligidan kelib chiqib, talabalarning tilga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda intensiv til metodlaridan keng foydalanish zarurati mavjud.

OTMda iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o'qitish noan'anaviy yondashuvni talab

qiladi. Chunki iqtidorli talaba ba'zi bir sifatlari bilan boshqa talabalardan ajralib turadi. Bular:

– kuchli darajadagi ijodkorlik va fantaziya;

– mustaqillik – shaxsiy baho va mulohazalar hosil qilishda atrof-muhit ta'sirlariga beriluvchanlikning sustligi;

– yangi va noodatiy narsalarga nisbatan yuqori qiziquvchanlik;

– noaniq hamda yechimsiz vaziyatlarga yuqori tolerantlik, bunday hollarda yuqori estetik his-tuyg'uning rivojlanganligi va go'zallikka intiluvchanlik;

– aqlning egiluvchanligi va moslashuvchanligi;

– oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib o'ta olish qobiliyati.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'qitishning bir qator metodlari mavjud bo'lib, ular hozirgi kunda o'qituvchilar tomonidan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Shunday metodlardan ayrimlari quyidagilar:

- tarjima metodi (asosan o'lik tillarni o'qitishda qo'llaniladi, bunda so'zlar va grammatik qoidalar yod olinadi);
- og'zaki metod (o'qituvchi monologini qayta so'zlash va matn bo'yicha savollarga javob berish tizimiga asoslanadi);
- psixologik metod (so'z va so'z bildirgan tushuncha o'rtasida assotsiatsiyalarni topishga asoslanadi);
- to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish metodi (chet tili, ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilinmasdan, umuman tarjimadan foydalanmagan holda o'qitish);
- o'qish metodi (talaba o'rganilayotgan tilda qancha ko'p matn o'qisa, u mazkur tilning xususiyatlari, grammatik qoidalari, gap qoliplarini shunchalik ko'p o'zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalari ham rivojlanadi).

Yuqoridagi metodlar, yakka holda qo'llanilganda hech biri yuqori samarani kafolatlamaydi, biroq kombinatsiya shaklida qo'llanilganda talabalarda xorijiy tillarni o'qitishda yuqori natijalarni kafolatlashi mumkin.

Iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o'qitishning yana bir o'ziga xosligi shundaki, xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish jarayonida talabalarda xorijiy tilni tushunish bilan bog'liq muammo bo'lmaydi. Chunki xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida aksariyat ma'lumotlar ingliz tilida beriladi. Shuning uchun ham iqtidorli talabalar uchun googlescholar, elibrary, sciencedirect, scopus xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va shu orqali googlescholar, РИНЦ (elibrary), sciencedirect, scopus xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan maksimal darajada to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushby vazifalarni hal etish maqsadida 2019-yil 8-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi imzolandi. Konsepsiyada:

1. Oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, Sciencedirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash.

2. Talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish bo'yicha tegishli tashkilotlarga topshiriqlar berildi.

Bizning fikrimizcha, ilmiy tadqiqot ishlariga talabalarni erta jalb etish, bo'lajak mutaxassislarda xalqaro ma'lumotlar bazasidan foydalanish ko'nikmalarini talabalik davridan shakllantirish, sifatli ma'lumotlar bilan ishlash, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish

jarayonida plagiatga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmasini shakllantirish, mualliflik huquqini hurmat qilish va iqtiboslarni to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish iqtidorli talabalarni professional faoliyatga tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-martdagi “Xalqaro Rivojlantirish Assosiatsiyasi ishtirokidagi oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2848-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Niderlandiyaning “Elsevier” kompaniyasi bilan hamkorlikda “Ilm-fan – 2020” milliy rivojlanish Dasturini ishlab chiqdi. “Ilm-fan – 2020” milliy rivojlanish Dasturidan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda ilmiy salohiyatni, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, iqtidorli o‘quvchi, talaba va magistrlarning ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. “Elsevier” kompaniyasi “Ilm-fan – 2020” milliy rivojlanish Dasturida mamlakatimiz ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, olimlarning dunyo ilmiy reytingidagi o‘rnini ko‘tarish, respublika ilmiy jurnallarini “Scopus” va “ScienceDirect” xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi tizimiga kiritish, yosh olim va doktorantlarga ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan ilmiy nashrlarda chop etishlariga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

1. Googlescholar ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari. Google-scholar – ilmiy adabiyotlar: kitoblar, maqolalar, jurnallar va boshqa manbalardan qidirish platformasi bo‘lib, ilmiy iqtiboslar olish uchun juda qulay. Web of science, European Reference Index for the Humanities, Scopus tizimlaridan farqli ravishda bu tizimda, asosan, rus tilidagi ma’lumotlar o‘rin olgan va foydalanishga qulay. Bu platformadan ro‘yxatdan o‘tish mutlaqo bepul. Iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o‘qitishda Google-scholar xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish talabalarga filologiya, pedagogika va psixologiya sohalaridagi eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish, dunyo olimlari va tadqiqotchilari bilan hamkorlikda ishlash, zamonaviy fan asoslarini o‘rganish imkoniyatlarini paydo qiladi. Bundan tashqari, googlescholar xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida talabalar o‘z shaxsiy profillarini yaratishlari va boshqa tadqiqotchilar profillari bilan tanishishlari mumkin.

2. РИНЦ (elibrary) xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari. Российский индекс научного цитирования (elibrary) – Rossiyaning informatsion-analitik tizimi bo‘lib, 5 milliondan ortiq mualliflarning 4000 dan ortiq jurnallardagi iqtiboslari va ular haqidagi axborotni olish manbasi hisoblanadi. Iqtidorli talabalar mazkur platformada qidiruvni istasalar mualliflar bo‘yicha, mavzu bo‘yicha, sohalar bo‘yicha, kalit so‘zlar bo‘yicha berishlari mumkin.

3. Iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o‘qitishda sciencedirect, scopus xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari. “Elzevir” (Elsevier) – fan, ta’lim va tibbiyot sohasida innovatsion yechimlarni va mahsulotlarni taklif etadigan jahondagi eng yirik nashriyotlardan biri hisoblanadi. Kompaniyaning vakolatxonalari Amsterdam, London, Nyu-York shaharlarida joylashgan bo‘lib, dunyo bo‘ylab 70 ga yaqin ofislari bor. Nashriyot Reed Elsevier media-xoldingning bir qismi bo‘lib, jahonning eng yirik 500 kompaniyalari ro‘yxatiga kiradi. 2500 dan ortiq jurnallar, 20000 ga yaqin kitob va ma’lumotnomalarni chop etadi. Nashriyotning “Scopus” ilmiy ma’lumotlar bazasi ilmiy nashrlar va iqtiboslar keltirish, “Sciencedirect” ma’lumotlar bazasi esa ilmiy nashrlarni tarqatish tizimini rivojlantiradi.

Sciencedirect to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi Elsevierning yetakchi ma’lumotlar platformasi hisoblanib, olimlar, o‘qituvchilar, talabalar va izlanuvchilar uchun tibbiyot va sanoat sohasidagi jamiki ma’lumotlarning 25 foizini o‘zida jamlagan. Sciencedirect multidisiplinar platformasi bizga ilm-fanning barcha sohalari bo‘yicha adabiyotlarni qamrab olish imkonini beradi va Elsevierning 25000 dan ortiq jurnallaridagi 14 millionga yaqin nashrlar, 37000 ga yaqin kitob va qo‘llanmalari, shuningdek, boshqa nufuzli nashriyotlarning nashrlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Sciencedirectda qidiruv (POISK) ning zamonaviy usullari joriy qilingan va bu platformadan foydalanish juda qulay. “Scopus” dunyodagi eng katta referatlar va iqtiboslardan iborat ma’lumotlar bazasi hisoblanadi. 5 mingga yaqin nashriyotlarning 24000 dan ortiq ilmiy jurnallarini indekslaydi. Scopusni egasi va ta’sis etuvchisi Elsevier nashriyot korporatsiyasi hisoblanadi. 70 millionga yaqin maqola, kitob, doklad, konferensiya to‘plamlari, 12 milliondan ortiq mualliflarning profillari mavjud. Xorijiy tillarni o‘qitishda “Scopus” ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish iqtidorli talabalarga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o‘qitishda nafaqat milliy tajribamizdan, balki jahon tajribasi namunalaridan foydalanish (rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarni qo‘llash), iqtidorli talabalarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonida bakalavr davridan boshlab, googlescholar, elibrary, sciencedirect, scopus xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda nafaqat til ko‘nikmalarini, balki talabalardagi motivatsion sifatlarni mustahkamlash, irodasini chiniqtirish, yashirin (rezerv) imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ahamiyat qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori.

2. Наумович Л.А.. Мышление и творчество. – М.: Издательство политической литературы, 1976г. – С.142.

3. Богоявленская Д.Б., Богоявленская М.Е.. Одаренность и проблемы ее идентификации //Психологическая наука и образование. – 2000. – Т.5. – №. 4.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni https://lex.uz/docs/4545884.

5. Арипова М.Л.. Концепция обучения одарённых студентов в высших учебных заведениях //Academy. – 2018. – №. 4 (31). – С.75-77.

Farrux HUSANOV,
O‘zPFITI tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PROFESSIONAL TAYYORGARLIGINI PEDAGOGIK TASHXISLASH VA MONITORING QILISH JARAYONINING MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish jarayonining mazmuni va mezonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik tashxislash, bo‘lajak o‘qituvchilar, boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash, tashkiliy-metodik tashxislash, pedagogik amaliyot.

В данной статье рассматриваются содержание и критерии процесса педагогической диагностики и контроля профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова. Педагогическая диагностика, будущие учителя, управленческая педагогическая диагностика, организационно-методическая диагностика, педагогическая практика.

This article discusses the content and criteria of the process of pedagogical diagnosis and monitoring of professional training of future teachers.

Key words. Pedagogical diagnostics, prospective teachers, management pedagogical diagnostics, organizational-methodical diagnostics, pedagogical practice.

Pedagogik tashxislash va monitoringda eng muhim omil muddatning belgilanishidir. Ya’ni obyekt yoki jarayon, har qanday holat ma’lum vaqt oralig‘idagina o‘rganiladi. Zero, ana shu vaqt oralig‘i o‘rganilayotgan holat to‘g‘risida real, obyektiv ma’lumotlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Pedagogik tashxislash va monitoringda kuzatuv muddatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, 2 soat, 1 hafta, ikki hafta, 1 oy, 6 oy, 1 yil, 3 yil yoki 4 yil. Har qanday soha, xususan, tibbiyot va psixologiyada bo‘lgani kabi pedagogikada ham pedagogik tashxis aniq holatlar, ularning darajasini belgilovchi mezon hamda ko‘rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi. Rus pedagog olimi L.S.Vigotskiy[1] shaxsning rivojlanishini tashxislashni quyidagi holatlar bo‘yicha amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topadi: empirik, etimologik va topologik jihatdan, tashxis, bashorat hamda korreksiyalash (to‘g‘rilash) nuqtayi nazaridan.

N.V.Kuzmina talabalik davri nuqtai nazaridan pedagogik tashxisni quyidagi izchillikka mos ravishda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topadi:

1) tashxislash maqsadini aniqlash;
2) vaziyatli modelning tahlili;
3) tashxislashning shakl, metod va vositalarini tanlash;
4) o‘qituvchi va talabaning tashxislash jarayonidagi o‘zaro aloqasini aniqlash;
5) talabalar faoliyatini nazorat va baholash;
6) o‘qituvchi pedagogik faoliyatining tashxisli tadqiqot natijalar bo‘yicha tahlil qilish;

[1] Выготский Л.С. Диагностика развития и педологическая клиника трудного детства // Собрание сочинений: в 6 т. –Т. 5. –М.: Наука, 1983. – С. 257.

7) talabalar bilish faoliyatini izlanish natijalari bo‘yicha tahlil qilish;

8) etalon (me’yoriy ko‘rsatkichlar) dan og‘ish sabablari va darajasini aniqlash;

9) korreksiyalovchi faoliyatni belgilash.

Qaysi soha bo‘lishidan qat’i nazar tashxislash murakkab jarayon sanaladi. Binobarin, bu jarayonda barcha omillarni inobatga olish, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, natijalarni xolis baholash talab etiladi. Bordi-yu, tashxis jarayonida bu talablardan biri inobatga olinmasa, u holda pedagogning faoliyati, qolaversa, unga bog‘liq ravishda o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligi ham real baholanmaydi.

M.Y.Inkov[2] kasbiy tayyorgarlikni tashxislashda quyidagi tayanch tushunchalar orqali ifodalashga uringan: boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash; tashkiliy-metodik tashxislash, tezkor tashxislash. M.Y.Inkovning ishida mazmunan mazkur tushunchalar quyidagicha yoritilgan:

Boshqaruv xarakteridagi pedagogik tashxislash – o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik va metodik imkoniyatini, pedagoglar va o‘quv muassasalari rahbarlarining kasbiy malakasini pedagogik tashxislashning funksional hamda tuzilmaviy jihatdan o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlarining mazmuni.

Tashkiliy-metodik tashxislash – pedagoglarning metodik kompetentligi va kasbiy tayyorgarligini, pedagogik jarayonni tashkil etishning o‘ziga xosligini pedagogik tashxislashning funksional hamda tuzilmaviy jihatdan o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlarining mazmuni.

Attestatsion tashxislash – ta’lim sifatini boshqarishga qaratilgan umumiy tizimda pedagoglar faoliyatini kompleks ekspert baholovchi xususiy hodisa bo‘lib, o‘qitishning tegishli sohasida pedagog faoliyatini tegishli muassasa ustavi, davlat ta’lim standartlari, mahalliy va xalqaro tajribalarga muvofiq kelishini anglatuvchi qobiliyati sifatida e’tirof etilishini ta’minlaydi.

Tezkor tashxislash – pedagog faoliyatini mezonlarning eng quyi darajasini ifodalovchi tizimda pedagogik tizimni boshqarishni takomillashtirish uchun qarama-qarshiliklar, muammoli muhit va tayanch, dastlabki muammolarni aniqlovchi tezkor tashxisli tahlil[3].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishning tizimli modeli quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

a) tegishli fan sohasi bo‘yicha akademik, maxsus va professional kompetentlik;

b) ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish usullarini o‘zlashtirishga oid metodik kompetentlik;

v) o‘zaro muloqot jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik kompetentlik;

g) ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish motivlari, qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan tabaqalashtirilgan-psixologik kompetentlik;

d) shaxsning individual faoliyatidagi yutuqlar va kamchiliklarni baholashga doir autopsixologik kompetentlik.

Mazkur tarkibiy tuzilmalar professional pedagogik faoliyatning quyidagi jihatlarini tizimlashtirishga imkon beradi: axborotli-nazariy; tezkor-amaliy; tashxisli-vaziyatli; tahliliy-yakuniy.

Pedagogik tashxislash va monitoring muayyan bosqichlarda kechadi. Har bir

[2] Иньков М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации / М.Е. Иньков. Автореферат дис. …канд. пед. н. – Ростов н/Д. – 2009. – С.24.

[3] Иньков М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации / М.Е. Иньков. Автореферат дис. …канд. пед. н. – Ростов н/Д. – 2009. – С.24. С.10-11.

bosqichda aniq vazifalar bajarilishi, ularning bajarilish holati yuzasidan hisobot tayyorlanadi. Tashxislash vositasi xarita, sxema, shkala va h.k. bo‘lishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va baholash mezonlari sifatida quyidagilar e’tirof etilgan:

– tegishli sohasi bo‘yicha chuqur bilimga egalik;
– pedagogika, psixologiya, bolalar va yosh fiziologiyasi asoslarini bilish;
– o‘qitish metodikasini o‘zlashtirganlik darajasi;
– kasbiy va ilg‘or tajribalar, metodik novatorlik;
– shaxsiy innovatsion ishlanmalarni tuzish va undan foydalanish malakasiga egalik;
– shaxsiy kasbiy sifatlar;
– ta’limning natijasi uchun mas’ullik;
– hamkasblarga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilishda quyidagi metod, vosita va jihozlaridan foydalanilmoqda: pedagogik amaliyot davrida darsni kuzatish; portfolio; ta’lim oluvchilarning yutuqlari; testlar; anketalar.

Samarali professional tayyorgarlikning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarning istiqboldagi pedagogik faoliyatlarini mustaqil amalga oshirishlari uchun rag‘bat hosil qilishdan iborat. Ushbu faoliyatning asosiy vazifalari esa:

a) ular qo‘lga kiritadigan kasbiy yutuqlarining rivojlanish darajasini muntazam nazorat qilish;

b) ular qo‘lga kiritgan natijalarni mahoratli va uzoq yil faoliyat ko‘rsatgan o‘qituvchilar tajribasi bilan qiyoslash;

c) bo‘lajak o‘qituvchilarning har biri egallagan pedagogik bilimlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish ularning mustaqil tahlil va baholash ko‘nikmalariga egallashlari, o‘z ustida ishlashlari, kamchiliklarni izchil bartaraf etish, yutuqlarni muntazam ravishda boyitib borishga odatlanishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳусанов Ф.О. Designing a model for organizing the management and monitoring of the process of professional training of future teachers // JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. –Maharashtra India, 2021. –ISSN №: 2581 -4230VOLUME 7, ISSUE 11– P. 72-74.

2. Husanov F.O. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi monitoringini tizimli tashkil etishni takomillashtirish // Samarqand Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. –Samarqand, 2021.–№4. 163-166-betlar.

3. Husanov F.O. Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik monitoring va undan foydalanish// Uzluksiz ta’lim. –T., 2021. Maxsus son –78-82-betlar.

4. Кузьмина Н.В. Акмеологические основы развития коммуникативной культуры и творческой готовности бакалавра, магистра, специалиста: монография. –СПб.: Изд-во НУ ‘‘Центр стратегических исследований’’, 2015. – С.316.

Maloxat MAXMUDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, "Informatika" kafedrasi katta o'qituvchisi

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida shakllantirish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining shaxsiy erkinligini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan dasturiy va pedagogik vositalar tizimini ishlab chiqish hamda ushbu tizimni kompyuterda o'rganish sharoiti samarali ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, o'quvchi, refleksiv, ko'nikma, dastur, vosita, erkinlik, tizim, kompyuter, axborot, innovatsiya, texnologiya.

Электронное обучение предоставляет информацию о том, как развивать рефлексивные навыки учащихся с помощью педагогического программного обеспечения. Установлено, что разработка системы программно-педагогических средств, обеспечивающих эффективное развитие свободы личности учащихся средних школ, а также эффективность компьютерного обучения данной системы.

Ключевые слова. Образование, учащийся, рефлексивное, умение, программа, инструмент, свобода, система, компьютер, информация, инновация, технология.

E-learning provides information on how to develop students' reflexive skills using pedagogical software. It was found that the development of a system of software and pedagogical tools that ensure the effective development of personal freedom of secondary school students, as well as the effectiveness of computer-based learning of this system.

Key words. Education, learner, reflexive, skill, program, tool, freedom, system, computer, information, innovation, technology.

Jahon miqyosida jamiyat rivojining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar shaxsiy tajribasini boyitishiga erishish muhim o'rin egallamoqda.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborotlashtirish darajasini oshirishda axborot texnologiyalari, apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlari asosida elektron axborot resurslarining bilimlar bazasini shakllantirishda milliy kontentni yaratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, darslarda ijodkorligini, ilmiy yechimlarni izlashga qodir, mustaqil fikrlay

oladigan o‘z nuqtayi nazarini bayon qiladigan, individual yondashuv orqali didaktik ta’minot vositasida muhim xulosalar chiqara oladigan o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Dunyoning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalarida elektron ta’lim muhiti asosida o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishga oid zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Kompyuter texnologiyalarning muntazam rivojlanib borishi jarayonida, ayniqsa, dasturiy ta’minot vositalari sohasida, o‘quvchilarning texnologik dunyoqarashni, mediasavodxonligini rivojlantirish, texnologik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga samarali tadbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.


Ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasini oshirishda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq yechilmagan muammo ko‘plab uchraydi. Jumladan, tezkor yechimini talab qiluvchi yangi masalalar belgilanmoqda: ta’limni modernizatsiyalash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mazmuni va o‘qitish metodlarini aniqlash; axborot ta’lim maxsuloti va texnologiyalari sifatini nazoratini ta’minlash yuzasidan multimedia va web-texnologiyalarni foydalangan holda yangi raqamli tarqatuvchilarda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratish; ta’limni axborotlashtirishda kadrlar bilan ta’minlash muhim o‘rin egallaydi.


O‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini modellashtirishda ta’lim-tarbiya jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihatlarini hamda o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini takomillashuvini ta’minlash uchun imkoniyat yaratuvchi vaziyatlarni vujudga keltirish zaruratlarini ham inobatga olish zarur.


Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli ta’lim konsepsiyasiga tayangan holda “Informatika” fanidan amaliy ishlarni bajarish uchun” va “Python dasturlash tilida masalalar yechish” nomli uslubiy qo‘llanmalar yaratildi.

Tadqiqotlar davomida “O‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi elektron uslubiy dastur” ishlab chiqildi. Bu dastur maktab o‘quvchilarini shaxsiy erkinlik xususiyatlari, mezonlari va rivojlanish darajasini aniqlashga ko‘mak berdi. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining elektron ta’lim muhitida refleksiv ko‘nikmalari shakllantirildi.









Elektron ta’lim muhitida yuqori sinf o‘quvchilarining refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik dasturiy nazariy modelini ishlab chiqildi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining shaxsiy erkinligini samarali rivojlanishini ta’minlaydigan dasturiy va pedagogik vositalar tizimi yaratildi va ushbu tizimni kompyuterda o‘rganish sharoitida eksperimental ravishda sinab ko‘rildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta’lim muassasalarida elektron ta’lim muhitida o‘quvchilarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish, o‘quvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo‘lib, ularda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining didaktik ta’minotini ishlab chiqish va joriy etishga kam e’tibor qaratilgan. Bu esa, xalq ta’lim muassasalari o‘quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish masalasini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar asosida vujudga kelgan o‘quvchilarga bog‘liq holda maktab, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari va pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish asosida vazifalar belgilash nazarda tutilgan.

Kompyuterlashgan ta’lim jarayoni axborot-kommunikatsiya muhitining mazmuni, o‘qish jarayoniga o‘quv materiallarini taqdim etish yangi metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va o‘quv jarayoni ishtirokchilari uchun bilish faoliyatini erkinligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N. Kompyuter dasturlari vositasida o‘quvchilarning bilim egallashga qiziqishlarini rivojlantirish “Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў” Илмий-методикал журнал №5 2019 жыл. Nukus – 2019, –25-27-betlar.

2. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training december 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, № 5, 2019. –C.1-8.

3. Maxmudova M.A. Nasirova Sh.N., Xolmurodova Z.N., Karimova N.A. Specific features of using the multimedia system in the educational process Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10.5958/2278-4853.2020. 00201.3, Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882, P. 40-46

Gulnozaxon MUMINOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyati, innovatsiya, innovatsion texnologiya va ularning turlari, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodik kompetentlik, evristika, muammoli ta’lim, innovatsiya, innovatsion texnologiya.

В данной статье описаны творческие способности будущих учителей, инновации, инновационные технологии и их виды, преимущества и условия использования инновационных технологий в развитии творческих способностей будущих учителей.

Ключевые слова. Креативность, творческая активность, творческая компетентность, эвристика, проблемное обучение, инновации, инновационные технологии.

This article describes the creative abilities of future teachers, innovations, innovative technologies and their types, advantages and conditions for using innovative technologies in the development of creative abilities of future teachers.

Key words. Creativity, creative activity, creative competence, heuristics, problem-based learning, innovations, innovative technologies.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir necha vazifalar belgilab berildi.

“Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalar, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, avvalo, o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilib, so‘ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o‘quvchilar ongi va tafakkuriga yetkaziladi”. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatish, ularda ijodiy kompetentlikni shakllantirish hamda ularning bu boradagi tushuncha va tasavvurini yanada o‘stirish, takomillashtirish imkoniyatlari bugungi kunda mavjud.

Ta’lim sohasidagi bu islohotlar o‘z-o‘zidan “ijodkorlik” tushunchasini olib kirdi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiy etgan mamlakatning-muvafaqqiyatini belgilab beruvchi omil kadrlarning ijodkorlik kompetensiyalarning rivojlanganligi bilan uzviy bog‘liq.

“Ijodkorlik” terminining o‘zi ilk bor XVII asrda san’at sohasida inson faoliyatini belgilash maqsadida qo‘llanilgan. So‘nggi paytlarda “ijodkorlik” tushunchasi bilan birgalikda

“ijodkorlik” atamasi ham keng qo‘llanilmoqda. Uzoq vaqtlar davomida ijod – insonga tabiat in’om etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb hisoblab kelingan. Aslida ijod insonning moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish faoliyati bo‘lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda unda butun bilimi, tajribasi va iste’dodi namoyon bo‘ladi”. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma’nolarini anglatib, badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi ekanligi qayd etib o‘tilgan.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi
- o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy kompetentliginini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushuniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari;
- ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi;
- ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg‘ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish;
- talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy kompetentligini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

– dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi;
– mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
– tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
– o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
– topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;
– o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi;
– mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi;
– mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;
– o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy kompetentligini rivojlantirishda bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘sish samaradorligini ta’minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalaridan biri – bo‘lajak o‘qituvchi: u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqishi, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozim. Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologiklik va refleksiyalik

qismlardan tashkil topadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni bu faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o‘rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda bolalarning bilish faoliyati va uni boshqarishga erishish. Innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion texnologiyalarning turlaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanishi o‘quvchi shaxsini shakllantirish omili bo‘ladi.

Innovatsion texnologiya turlari:

– bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim;
– rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi;
– o‘yin ta’lim texnologiyasi;
– loyihaviy ta’lim texnologiyasi;
– muammoli ta’lim texnologiyasi;
– axborot va aloqa vositalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda biror-bir haqiqatni mustaqil izlash va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan evristik va muammoli ta’lim o‘quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

Evristika (yun. peshtzko – izlayman, topaman) degan ma’noni anglatadi. Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish talabalarning ijodiy kompetensiyasi qanday bo‘lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir. Yagona o‘quv mashg‘uloti, o‘quv kursi bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar, evristik yo‘naltirilgan faoliyat asosida sodir bo‘ladi.

Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo‘yicha texnologik harakat ijodkorligi natijalarini ta’minlash yo‘lidir. Quyida evristik vaziyatlar tayyorlash va o‘tkazish, ijodiy kompetentlikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish yuzasidan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun texnologik yo‘l-yo‘riqlar haqida fikr yuritamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy obyektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va boshqalar). Bunda obyekt va talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash; talabalarga ularning o‘rganilayotgan obyekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o‘quvchilarning qo‘yiladigan ta’limiy natijalari taxminlanadi.

2. Talabalarga yechimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish xonada ta’limiy ko‘tarinkilik hamda talabalar topshiriqni bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi. Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. Talabalar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

3. Talabalarning o‘zida paydo bo‘lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta’lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. Talabalarning ta’limiy ijod namunalarining namoyish etish: topshiriqlar, ta’riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar, maketlar va shu kabilarni jamoada muhokama etib, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma’ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta’limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta’riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma’lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Talabalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish. Talabalar tomonidan o‘z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o‘z nuqtayi nazarlarining o‘zgarish sababalarini tushunishlarida ko‘maklashiladi. Ta’limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta’minlanadi.

7. Talabalarning bilishga oid qo‘llanilgan usullarni, paydo bo‘lgan muammo va uni yechish yo‘llarini tushunishi bo‘yicha fikr yuritish, tahlil etish. Talabalarning individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko‘maklashishi. Jamoa bo‘lib yaratilgan ta’limiy natijalarini aniqlash.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo‘lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g‘oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo‘yicha tug‘ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo‘llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur talablar bo‘lajak o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Izlanishli ta’limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo‘yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammoni yechish, ta’limiy natijalarni namoyon etish, ularni bir-birlari bilan qiyoslashdan va bu asosida ijodiy kompetentlikni rivojlantirishdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion texnologiyalarning turlaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanishi nafaqat ularning ijodiy kompetentligini rivojlantirishga balki ular ta’lim-tarbiya beradigan o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllanishiga va shaxs sifatida kamol topishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi:http https://lex.uz/docs/-5841063

2. Xoliqov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. – T., 2015-y. 9-b.

3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2001-2006-y. 176-b.

4. Левитов Н.Д. Субъект. Объект. Познание. –М.: Знание, 1999. –С.23.

Abror ASKAROV,
Termiz davlat universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

OLIY TA’LIM MAZMUNIGA OID O‘QUV TARKIBINING VARIATIVLIGIGA ASOSLANGAN TA’LIM EHTIYOJLARINI BOSHQARISH MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish, kredit-modul tizimi va salohiyatli kadrlar tayyorlash to‘g‘risida yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Oliy ta’lim, kredit-modul tizimi, kadr, professor-o‘qituvchilar, variativlash, xalqaro ta’lim standartlari, ilg‘or tajriba.

В данной статье обозначены направления внедрения современных образовательных технологий в высших учебных заведениях, кредитно-модульной системы и подготовки потенсиальных кадров.

Ключевые слова. Высшее образование, кредитно-модульная система, кадры, профессора и учителя, вариация, международные образовательные, стандарты, передовой опыт.

The article provides directions on the introduction of modern educational technologies in higher education institutions, the credit-module system and thetraining of potential personnel.

Key words. Higher education, credit-module system, cadre, professors and teachers, variation, international educational standarts, advanced experience.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi uchun oliy ta’lim muassasalari (OTMlar)ni kompleks rivojlantirish, talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu yo‘nalishlar qatorida hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari, ilm-fan va ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olish, xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini rejalashtirish, chuqurlashtirish va sifatini yaxshilashni tashkil etish vazifalari mavjud.

Dunyodagi ilg‘or oliy ta’lim muassasalarida o‘quv, o‘quv-uslubiy bazasi va moddiy-texnik infratuzilmasini mustahkamlash, axborot texnologiyalarini jadal rivojlantirish, ilmiy va texnologik parklar barpo etish, ishlab chiqarish korxonalari bilan faol hamkorlik o‘rnatish, o‘quv jarayonini tashkil etish va olib borishning kredit-modul tizimini keng joriy etishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Ta’limning kredit-modul tizimiga o‘quv jarayonidagi asosiy funksionallikni, jumladan, mustaqil ta’lim olish va individuallik orqali bilimni oshirishga bo‘lgan ijodiy harakat, o‘quv jarayonida ta’lim yo‘lini tanlash, bilimlar hajmini optimal belgilashni amalga oshiruvchi model sifatida qarash mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim o‘quv mazmunini shakllantirishning mahalliy va xorijiy tajribasini, yagona ta’lim maydoniga integratsiyalash, kredit-modul tizimiga o‘tgan universitetlar faoliyatidagi ustuvor omillarni har tomonlama o‘rganishni nazarda tutadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi joriy etilmoqda.

Ta’limning kredit tizimi talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish, ta’lim berish va baholashning oshkoraligi tamoyiliga asoslangan, sinov birliklarini yig‘ish va ko‘chirib o‘tkazishdan iborat, sinov birliklarining jamg‘arib boriladigan o‘sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi. Ushbu tizimni joriy etishning asosiy vazifalari:

– rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari va tavsiyanomalardan foydalangan holda, xalqaro ta’lim standartlarini joriy qilish, malakali professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlash, sifatli o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini ishlab chiqish orqali ta’lim sifatini oshirish;


– xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan talabalar, professor-o‘qituvchilar, izlanuvchilarning almashinuv dasturlarini kengaytirish;

– zamonaviy ta’lim texnologiyalari va o‘quv jarayonlarini tashkil etishning samarali shakllarini o‘zlashtirish orqali pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga ko‘maklashuvchi raqobat muhitini yaratish;

– talabaga ta’lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish va bilimini baholashning oshkoraligini ta’minlashdan iborat.

Kredit-modul tizimini joriy etishda ta’lim dasturi tuzilmasi ishlab chiqish, unda kreditlarning miqdori o‘quv yuklamasi asosida ko‘rsatish, talabalarning ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo‘lishi uchun talablar aniq belgilanadi.

Ilmiy-amaliy tajribalarga asoslanib, OTM o‘quv mazmunini shakllantirish va joriy



etish jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab olishi zarur degan xulosaga kelindi:

1-rasm. OTM o‘quv mazmunini shakllantirish va joriy etish bosqichlari.

Umumiy holda ta’limning kreditlashtirilgan texnologiyasi xalqaro umumta’lim standartlariga mos, ta’lim to‘g‘risidagi jahon an’analarini hisobga olgan universallikni amalga oshiruvchi, ta’lim dasturlari variativligiga qurilgan mexanizm hisoblanadi.

O‘quv dasturlari variativligi o‘quv jarayonini tashkil qilish va rejalashtirishning

ilg‘or yondashuv hisoblangan kredit-modul tizimini joriy etish natijadorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quv dasturlarida variativ yondashuvni joriy etish muammolari ta’lim sohasining doimiy muhokama etiluvchi mavzusi hisoblanadi.

Olimlar variativlik nazariyasi va amaliyotidagi muammolari, variativlikni shakllantirish tamoyillari keng yoritilib, variativ yondashuvni shaxsining motivatsiya, funksiya va harakat sohalardagi sifat o‘zgarishi, kasbiy tajribaning o‘sishi, rivojlanishi ekanligini, variativlik ta’lim ehtiyojlari va shaxsning kasbiy qiziqishlarini ko‘proq qanoatlantirish, individuallashtirish asosida ta’lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi imkoniyatlarni kengaytirishdan iboratligi, variativ mazmun ko‘zda tutilgan ta’limda o‘ziga xos samarali shakl va metodlaridan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi.

R.Ahlidinov variantlikni ta’minlash uchun o‘quv rejasi egiluvchan bo‘lishi, asosiy komponentlarni to‘ldirish, bu komponentlarning birikuvi, predmet yoki ta’lim sohalari nomenklaturalari, aniq predmetlar yuklamasi va doiralar, umumiy yuklama malasalariga e’tibor qaratadi.

Variativlik – bu ta’lim tizimi sifati bo‘lib, bu tizimning o‘quvchilardagi ta’limga bo‘lgan ehtiyoj va imkoniyatlari o‘zgarishiga muvofiq tanlash maqsadida ta’lim dasturlari variantlarini yaratishga va taqdim etishga qodirligini xarakterlaydi.

Oliy ta’lim tizimida biror o‘quv fani yoki moduli bo‘yicha Ishchi o‘quv dasturi tarkibini variativlash murakkab jarayon hisoblanadi, ya’ni ta’lim buyurtmachilari va jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida biror predmet yoki o‘quv moduli bo‘yicha shakllantirilgan o‘quv tarkibi o‘zida maksimal ta’lim ehtiyojlarini mujassamlashtirgan bo‘lib, ular ichidan o‘quv rejaga mos variativ Ishchi o‘quv tarkiblarini ajratishning o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud.

Shunday bo‘lsada, ta’lim natijadorligida o‘quv fani yoki moduliga ajratilgan o‘quv soatlaridan kelib chiqib, aynan o‘qitiladigan qismini ajratib olinishi alohida ahamiyatga ega. Ko‘p hollarda umumiy mavzular to‘plamidan Ishchi o‘quv tarkibini ajratib olish jarayonida o‘quv mavzularni yaxlitlash usulidan foydalaniladi, ya’ni o‘quv fani yoki moduliga tegishli yangilangan mavzular tarkibidan iborat katta hajmdagi to‘plamdan eng asosiy va dolzarb hisoblanganlarini ajratib olinadi hamda ajratilgan ushbu to‘plam o‘quv jarayoniga joriy etiladi.

Umumiy to‘plamdagi ayrim qismlarni xususiy to‘plamga kiritilmasligi yoki yaxlitlash orqali qisqartirilishi natijasida ta’lim ehtiyojlarini to‘liq qondirilmasligi yuzaga kelib, quyidagi holatlar kuzatiladi:

► tanlangan xususiy to‘plamga oid bilimlar talabalarda avvaldan shakllangan bo‘lishi;

► xususiy to‘plamdagi ayrim mavzular talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyat kasb etmasligi;

► tanlangan to‘plamga kiritilmay qolgan yoki qisqartirilgan mavzular buyurtmachilarni ko‘proq qiziqtirishi va zarur deb hisoblanishi kabi.

Bunday holatda ta’lim maqsadini ro‘yobga chiqarishga salbiy ta’siri quyidagilarda ko‘rinadi:

► talabaning o‘quv faoliyatida o‘quv mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan motivning pasayishi;

► o‘quv jarayoni mantiqining buzilishi, ya’ni samarasiz kuch, vaqt, mablag‘ sarflanishi;

► oliy ta’lim tizimi rivojlanishida retardatsiya holatining yuzaga kelishi.

Bundan ko‘rinadiki, amaldagi Oliy ta’lim o‘quv fani yoki moduli uchun bunday yondashuv asosida tanlab olingan o‘quv mavzu tarkibi ijobiy natija, jumladan, sifat

o‘zgarishlariga erishishda qulay hisoblanmaydi.

Demak, talaba uchun taqdim etilayotgan o‘quv tarkibining variativligiga e’tiborni qaratish, ta’lim dasturlarini tanlashga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishga sharoit yaratish ahamiyatlidir.

Tadqiqotlarimizda o‘quv tarkibini variativlashning amalga oshirish jihatidan murakkab hisoblanishi, ushbu murakkablik variativlash jarayonida hosil bo‘lgan fikrlar xilma-xilligi ichidan aniq parametrlar asosida tegishli variantlarni ajratib olishda ko‘rinishi, bu borada samarali texnologiyalar ishlab chiqilmaganligi aniqlangan. Bu boradagi ilmiy izlanishlarimizni oliy ta’lim tizimi menejmenti uchun davom ettirib, talaba va buyurtmachilar talablaridan kelib chiquvchi, natijani mavjud bilim va malakalar hamda qiziqishlar ‘‘ustiga qurish’’ni ta’minlashga qaratilgan Ishchi o‘quv dasturlarini variativlash, ya’ni murakkablikni hal etish va o‘quv modullari uchun eng optimal variantlar ko‘rinishidagi o‘quv tarkibini ajratish, mavjud xulosalarni oliy ta’lim tizimi uchun yanada takomillashtirib, ehtiyojga asoslangan Ishchi o‘quv dasturlarini shakllantirish nazariyasi va amaliyotini joriy etish taklifi ishlab chiqildi.


Ishchi o‘quv mazmunining eng optimal variantlar ko‘rinishidagi o‘quv tarkibini ajratishda umumiy o‘quv tarkibni o‘qituvchilar, buyurtmachilar, taklif bergan tashkilotlar va jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish, ularning munosabatlarini o‘rganishga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

Umumiy xarakterdagi o‘quv mavzulari tarkibidagi har bir mavzuga munosabat bildiruvchilar “zarur”-Z, “qisman zarur”-QZ, “ahamiyatsiz”-A tanlovlardan birini belgilab, o‘zining individual munosabatini bildiradi. Shu tariqa har bir mavzuga bildirilgan munosabatlar to‘plami hosil bo‘ladi.

Variativlash o‘quv rejadagi soatlar doirasida ajratilishi kerak bo‘lgan mavzular soniga ko‘ra:

1) munosabatlar asosida berilgan mavzular soniga teng bo‘lgan birlamchi variantlarni ajratish (ishchi o‘quv dasturi variantlari bevosita munosabat bildiruvchilarning Z (“zarur”) munosabatiga bog‘liq bo‘lib, bu ularning ehtiyojlari hisoblanadi va optimal variantlarni belgilashda asosiy o‘rin tutadi.),

2) birlamchi variantlarni o‘zaro yaxlitlash orqali ular sonini maksimal kamaytirishdan iborat algoritmik modellashtirish asosida amalga oshiriladi.



2-rasm. Variativlashtirishni amalga oshirish bosqichlari.

Optimal variantlarni aniqlash bo‘yicha keltirilgan konseptual modelning samaradorligi quyidagi tashkiliy masalalarning to‘g‘ri amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lib, ular tinglovchilar munosabatlarini o‘zaro yaqinlashuviga olib keladi:

► munosabat uchun qo‘yiladigan mavzularning ishonchliligi;

► mavzularning vazni va variant elementlari sonining to‘g‘ri belgilanishi;

► so‘rovnomaning to‘g‘ri va xolis o‘tkazilishi;

► aniqlangan optimal variantlarning tahlil qilinishi hamda muhokamadan o‘tkazib, joriy etilishi.

Kredit-modul tizimida ehtiyojga asoslangan variativ o‘quv mavzularini joriy etish imkoniyatlari yuqori hisoblanib, bunda ehtiyojlar (va munosabatlar) asosida turlicha variantdagi o‘quv mavzulari jamlanmasini talabalarga taqdim etish amalga oshirilishi mumkin. Bu esa:

► talabaning o‘quv modullarini tanlash imkoniyatlarini va sifatini oshirish;

► yangilangan va chuqurlashtirilgan kasbiy bilimlar, hosil bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni amaliyot birligini ta’minlash;

► talabalar kontingentini darajalash;

► tanlov ko‘rsatkichlari asosida o‘quv mavzulari (dasturi)ni o‘z vaqtida yangilab, takomillashtirib borish imkonini beradi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimida o‘quv tarkibining variativligi bu – ta’lim ehtiyojlariga ko‘ra shakllangan umumiy o‘quv mazmunini buyurtmachilar va ta’lim subyektlarining munosabatlaridan kelib chiqib, o‘quv me’yorlariga muvofiq muqobillashtirish, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O‘quv mazmuni tuzilmasini buyurtmachilar munosabatlaridan kelib chiqib belgilanishi sifat menejmenti samaradorligining oshishiga, ta’lim ehtiyojlarini boshqarish funksiyasini amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ‘‘O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son ’’2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qarori, 07/19/4358/3308.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. QMMB. 9.10.2019. 06/19/5847/3887.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi 569-son “Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 09/18/569/1565.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 09/20/824/1689.

5. Малышева М. А.. Вариативный подход к организации постдипломного педагогического образования. Образование и наука. 2007. № 1 (43). С.63-70.

6. Богданова С.В. Вариативность повышения квалификации учителей в области новых информационный технологий.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.,1997. – С.19.

Shaxzoda ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

TALABALARNING O‘QISHGA BO‘LGAN MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA TA’LIMIY GEYMLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarining pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda ta’limiy geymlardan foydalanish yo‘llari xususida fikr bayon etilgan. Muallif maqolada geymlar, ularning turlari va ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan geymlar haqida ma’lumot keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Geym, ta’limiy geymlar, ta’lim jarayoni, motivatsiya, mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada qilish.

В статье рассматриваются способы использования обучающих игр в педагогических вузах для повышения мотивации бакалавров, обучающихся по направлению-Педагогика и психология. В статье автором даётся информация об учебных геймах, её видах, используемых в образовательном процессе.

Ключевые слова. Гейм, развивающие игры, процесс обучения, мотивация, самостоятельное мышление, логическое наблюдение.

The article discusses ways to use educational games in pedagogical universities to increase the motivation of bachelors studying in the direction of Pedagogy and Psychology. In the article, the author provides information about educational games, their types used in the educational process.

Key words. Game, educational games, learning process, motivation, independent thinking, logical observation.

Ta’lim jarayonida geymifikatsiyadan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirib, ta’lim subyektlarida o‘qish va o‘qitishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi, ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri, muloqot madaniyati va undan bahramand bo‘lishga zamin hozirlaydi. Geymifikatsiya psixologik nuqtayi nazardan, g‘alaba, maqtov va mukofotlardan bahramand bo‘lish orqali relaksatsiya gormonini ishlab chiqaradi. OTM talabalariga bilimlarni o‘zlashtirishda katta samara beradi, chunki geymlar majmuasidan iborat texnologiyalar odatiy texnologiyalarga qaraganda ancha qulaylik tug‘diradi. Mavjud adabiyotlar, o‘rganilgan ilmiy va internet manbalaridan olingan ma’lumotlarga tayanib, “geymifikatsiya” tushunchasiga quyidagi tavsifni keltiramiz:

Geymifikatsiya – bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarini jarayonga ko‘proq jalb qilish uchun o‘yin usullarini o‘yindan tashqari jarayonlarga va hodisalarga moslashtirish texnologiyasi. Hozirgi kunda geymifikatsiya ko‘proq biznes va ishlab chiqarish sohalarida qo‘llanilib kelinmoqda. Fikrimizcha, geymifikatsiya ta’lim jarayoniga tatbiq qilinganida eski rag‘batlantirish usullarining o‘rniga yangi motivatsiya berish usullariga ehtiyoj paydo bo‘lganligi bois, maqtovlar, mukofotlar, jazodan qo‘rqitish (semestr, yakuniy bahoni qo‘ymaslik kabi)usullari deyarli samarali zarur bo‘lmaydi.

Oliy ta’lim didaktikasida o‘qitish sifati hammadan avval o‘qituvchining ilmiy metodologik tayyorgarligiga bog‘liqdir. Bunda didaktikadagi onglilik tamoyili katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mashg‘ulotlarni tashkil etishda uni algoritmik jihatdan loyihalash, har bir bandini qisqacha xulosalash; mashg‘ulotning bir qismidan ikkinchisiga o‘tishda mantiqiy aloqadorlikni ta’minlash; mashg‘ulotda matnni muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunda nutqi mkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; talabalarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Geym (ingl.: “game” – o‘yin) – IT sohasida bir necha darajali o‘yinni bildirib, har bir bosqichda o‘yin foydalanuvchiga navbatdagi bosqichga o‘tish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonida geymlar didaktik tavsifga ega bo‘lib, tahsil oluvchini o‘quv predmetiga qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga mo‘ljallanadi.

Geymifikatsiya – ta’lim jarayoni subyektlarining o‘quv topshiriqlarini kompyuter o‘yinlariga o‘xshash vaziyatda qo‘llash. Garchi, hozirgi kunda geymifikatsiya ko‘proq biznes va ishlab chiqarish sohalarida qo‘llanilib kelinsada, ta’lim jarayoniga geymlarning tobora kirib kelishi, uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘qitishning tabaqalashtirilgan metod va shakllari uchun zaruriy shart-sharoit yaratish, o‘qitish texnologiyasiga yangicha yondashuvlar ularni professional faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirish va refleksiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. “Faqatgina refleksiv ta’lim jarayonidagina shaxsiy tushunchalarni rivojlantirish, boshqaruv va o‘quv faoliyatining ahamiyatini yetarli darajada yoritish mumkin”.

Pedagogika va psixologiya turkum fanlarini o‘qitishda ta’limiy geymlar talabalarga o‘rganilayotgan mavzudagi kontentni mukammal o‘zlashtirishga zamin hozirlaydi, bunda talabalar harakat dinamikasida to‘laqonli ma’lumot olishga erishadilar. Shu bois, pedagogika va psixologiya turkum fanlarini o‘qitish daturli virtual laboratoriyalarni tashkil qilish, geymifikatsiyaning turlaridan foydalanish zarur bo‘ladi.

Geym yordamida o‘qituvchi talabalarni faol bilish jarayoniga yo‘naltirishi lozim. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga bilim berish, ularning kompetentligini rivojlantirish kompyuterli o‘yin shaklidagi o‘quv faoliyatiga qaratiladi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga geymifikatsiya bilim berish imkoniyatlarini yaratib beruvchi metodlardan foydalanish orqali amalga oshadi. Taqdim qilinayotgan o‘quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan savollar talabalarga tushunarli bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, an’anaviy ta’limda talabalar o‘qituvchi tomonidan taqdim qilinayotgan tartibli ma’lumotini tinglab, tayyor ko‘rsatmalar asosida bilim oladilar. Bunday reproduktiv ta’lim jarayonida talabalar o‘qituvchi yozdirgan axborotni yodlash, o‘xshatib misol keltirish, o‘qituvchidan eshitganlarini takrorlash kabi faoliyat bilan shug‘ullanib, ta’lim jarayonining oddiy kuzatuvchisi, tinglovchisi bo‘lib qoladilar.

Noan’anaviy tarzda tashkil qilingan mashg‘ulotlarda ta’limiy geymlardan foydalanish esa, talabalarda motivatsiya hosil qilib, harakatlar, reaksiyalar uchun rag‘batlantirishni yaratadi.

Geymifikatsiyada ishlatiladigan o‘yin komponentlari orasida: skorlama, qiyinchilik va mahorat darajasi, yutuqlar, yetakchilar jadvallari, yutuqlar paneli, virtual valyutalar, ishtirokchilar o‘rtasidagi musobaqalar, mukofotlar bo‘lishi kuzatiladi. Bunda motivatsion kontent: raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga geymifikatsiya yordamida ingliz tilini o‘rgatishning pedagogik va psixologik aspektlari; metodikasining to‘rt tamoyili asosida

ta’lim jarayonini tashkil qilish; geymifikatsiyaga oid misollar; geym-o‘yinlar amaliyoti; geymifikatsiyadan foydalanish maqsadlari; geymifikatsiyani qayerdan boshlash kerak? kabi umumiy xulosa o‘rniga misollardan iborat mazmunga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Fikrimizcha, geymifikatsiya – bu didaktik jarayon ishtirokchilarini ta’lim jarayonidagi qiziqishlari, motivatsiyasini oshirishga mo‘ljallangan, o‘quv predmetini mukammal o‘rganishga asos bo‘ladigan geym (kompyuter o‘yin)lar yordamida tashkil qilinadigan jarayon.

Talabalarga pedagogika va psixologiyaga oid turkum fanlarni o‘qitishda didaktik geymlardan foydalanish ularda ijodkorlikni rivojlantiradi, bilimlari sistemasini takomillashtirishni ta’minlay olishi barobarida qaraladi. Shu o‘rinda, talabalarning pedagogik kategoriyalarni mukammal o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlanishida muhim omillardan biri talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish hisoblanadi.

Talabalarga “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi”, “Pedagogik texnologiyalar”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Umumiy psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya” kabi pedagogika va psixologiyaga oid turkum fanlarni o‘qitishda o‘quv moduli bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish, tanlash va ularni qayta ishlashda geymlar bilan ishlash, ularda o‘quv modullarini o‘zlashtirishga motivatsiya hosil qiladi. Ayniqsa, talabalarda turli geymli veb-kvestlar bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi didaktik maqsadlarga erishishda qo‘l keladi. Masalan, Ijtimoiy pedagogikadan o‘tkazilgan tajribaviy mashg‘ulotlarda talabalarga veb-kvest orqali ijodiy topshiriq berildi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar dizayn loyihalariga o‘xshash loyihalarni taqdim etishdi. Talabalarning ijodiy parvozining cheki yo‘q edi. Ular bu loyihani rasm, o‘yin, plakat, qo‘shiq, veb-sayt, multimedia taqdimoti va boshqa natijalar ko‘rinishida taqdim etishdi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirishda geymifikatsiyadan foydalanish samarali natija berishi tadqiqotlar mobaynida aniqlandi. Xususan, tajriba maydonchalariga jalb qilingan talabalarning bilim o‘zlashtirish holatini o‘rganish uchun o‘tkazilgan anketa savollari, topshiriqlar majmui, maxsus shakllantirilgan tajribaviy dastur, muallif tomonidan yaratilgan metodik qo‘llanmalar talabalar o‘rtasida o‘qitilayotgan o‘quv kursiga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishi, bilim va kompetensiyalarni o‘zlashtirish darajasini oshirganligi aniqlandi. Shuningdek, talabalarda motivatsiya (94 foiz), o‘quv materialini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish (92 foiz), geymlar asosida pedagogik kategoriyalar va tushunchalarni anglash (97 foiz) ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш. А. (2019). Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. In Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития (pp. 4-10).

2. Абдуллаева Ш. А., Зайнитдинова М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования, 4(3).

3. Абдуллаева Ш. А., Хужаназарова С. Ф. (2017). Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах. Современное образование (Узбекистан), (7).

Sayyoraxon RUZMETOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining tayanch doktoranti

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

Annotatsiya

Maqolada texnika yo‘nalishi talabalarida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv-biluv faoliyatni tashkil qilish xususida fikr bayon etilgan. Shuningdek, muallif o‘tkazilgan tajriba mashg‘ulotlarining samarali ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiya, o‘quv-biluv faoliyati, talaba, rivojlanish, mantiqiy fikrlash, IT sohasi, dunyoqarashning shakllanishi.

В статье освещены проблемы организации учебной деятельности студентов на основе цифровых технологий в технических вузах. Автор акцентирует внимание на эффективностивнедрения цифровых технологий на экспериментальных занятиях.

Ключевые слова. Цифровые технологии, учебная деятельность, студент, развитие, логическое мышление, сфера ИТ, формирование мировоззрения.

The article highlights the problems of organizing students’ educational activities based on digital technologies in technical universities. The author focuses on the effectiveness of the introduction of digital technologies in experimental classes.

Key words. Digital technologies, educational activities, student, development, logical thinking, IT sphere, worldview formation.

Jahon ta’lim tizimida IT ta’lim texnologiyalari asosida ta’limni tashkil qilish masalalarini o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi zamirida turli axborot-kommunikatsion ta’lim texnologiyalari vositasida ta’limni samarali tashkil qilish masalalarini tadqiq etish muhim bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda masofaviy ta’lim shakllarining ilg‘or ko‘rinishi sifatida tan olinayotgan bir paytda AKT texnologiyalaridan foydalanish va shu asosda yoshlarni kelgusida egallanadigan kasbini chuqur bilish, mantiqiy va izchillikda mushohada yuritish, ijodiy va divvergent tafakkurini o‘stirishni jadallashtirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik masalalar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida talabalar jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlariga zamin yaratilib, ularning xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar kengaymoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qator hukumatimiz tomonidan me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bularning barchasi yoshlarga bo‘lajak mutaxassislari bo‘yicha chuqur bilimga eag bo‘lishlari, o‘zlarining iqtidorini yanada yorqinroq namoyish qilishga qaratildi, chunki ta’lim-tarbiya ta’sirchanligi taraqqiyotning talabigina bo‘lib qolmay, balki tahsil oluvchilarning bo‘lajak kasbini mukammal o‘rganish, bilim olish, intellektual salohiyatni oshirish, o‘zlashtirish darajasining yuksalishi bilan ham belgilanadi. Demak, oliy ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar tatbiq qilinayotgan bir paytda talabalar bilimi transformatsiyasini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit

va imkoniyatlar mavjud bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda texnika oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda, o‘quv dasturlari, rejalari zamon tabalari asosida shakllantirilmoqda. Biroq, hanuzgacha texnika oliy ta’lim muassasalari talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishda ayrim ziddiyatli jihatlar mavjudligicha qolmoqda:

– birinchidan, hozirgi faoliyat yuritayotgan texnika OTMlarida talabalar bilimi transformatsiyasida o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlarni yangilashga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi;

– ikkinchidan, tahsil oluvchining bilish darajasini oshirishga bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuvlarga ehtiyojining ortishi;

– uchinchidan, o‘zini oqlamagan pedagogik sharoitlarda moddiy-texnika bazaning eskirgani, kompetentli mutaxassislarning yetishmayotganligi;

– to‘rtinchidan, o‘qitish amaliyotini takomillashtirish zarurati, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida amaliy foydalanish holati uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga bo‘lgan talabning oshishi va boshqalar.

Mamlakatimizda to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan bog‘liq bo‘lgan uchinchi Renessansning shakllanishi jamiyatimizda texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli SMART (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. Bu esa, raqamli, smart iqtisodiyotiga o‘tish pallasida ta’lim jarayoniga turli AKT texnologiyalarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, inson faoliyatini avtomatlashtirishni talab etadi.

Ilmiy manbalar, tadqiqotlar va ishlanmalar tahlili yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasiga katta e’tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Bu masalaning davlat ahamiyatiga molik vazifalar sirasiga kiritilishi har jihatdan ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar qatoridan o‘rin olgan raqamli texnologiyalari yuzasidan jahon tajribasini o‘rganish, uni tanqidiy asosda amaliyotga tatbiq qilish muhimligini ko‘rsatdi.

Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o‘quv-biluv faoliyati ularning texnika yo‘nalishida bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalarni egallash jarayoni bo‘lib, yangi kadrlarni yetishtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy tadbirlar yig‘indisi ekanligi aniqlandi.

Oliy ta’limda texnika yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Elektron axborot ta’limi muhitini yaratish, masofaviy o‘qitish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun texnologik baza sifatida quyidagi bulutli Google xizmatlaridan foydalanishni taklif etish mumkin:

Classroom ushbu xizmatdan foydalangan holda o‘qituvchilar o‘quv onlayn kurslarini yaratish va ulardan foydalanish, mavzular, topshiriqlar, munozaralar yaratish, yangiliklar lentasini kiritish, istalgan formatdagi fayllarni yuklash, havolalarni qo‘shish, boshqa o‘qituvchilar va talabalarni bog‘lash, avtomatik ravishda sinflar kitobini yaratish kabi imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, ushbu xizmat faqat ixtisoslashgan Google Education muhiti doirasida taqdim etiladi.

Disk, ushbu xizmat yordamida o‘qituvchilar va talabalar istalgan formatdagi fayllarni shaxsiy virtual makoniga yuklash va saqlash imkoniyatiga ega.

O‘qituvchilar “Classroom” xizmatidan foydalangan holda onlayn kurslarni yaratishda, to‘ldirishda, o‘zgartirganda, barcha fayllar avtomatik ravishda tegishli nomdagi papkalarda diskka ko‘paytiriladi, ularni tahrirlash va ko‘rish uchun imkoniyat yaratiladi hamda individual tarzda grafik va jadvalli hujjatlar, so‘rovnomalar va testlar, veb-saytlar, bloglar va boshqalarni yaratishlari mumkin. Yaratilgan fayllar shaxsiy diskda saqlanadi.

Hangouts xizmatidan foydalangan holda, o‘qituvchilar va talabalar qisqa vaqt ichida bir-birlari bilan xabar almashishlari, guruh suhbatlari tashkil qilishlari, bir-birlariga qo‘ng‘iroq qilishlari va real vaqtda video uchrashuvlar o‘tkazishlari mumkin.

YouTube xizmati yordamida o‘qituvchilar va talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishadi:

1) o‘z video kanallarini yaratish, videolarni yuklash, tahrirlash va nashr etish;

2) natijada olingan videoni kanalda va shaxsiy kompyuterda saqlash va tahrirlash bilan jonli efirlarni olib borish (birinchi usul Hangouts orqali, bu holda faqat veb-kameradan olingan tasvir va ovoz translyatsiya qilinadi, ikkinchi usul maxsus videokoder yordamida, masalan, Open Broadcaster Software (OBS)video yozish oqim uchun bepul va ochiq kodli dasturiy ta’minotdir.

Yuqorida raqamli texnologiyalar tarkibiga kiruvchi ushbu barcha xizmatlar o‘zaro faoliyat platformalardir, ya’ni ular mobil qurilmalarda va shaxsiy kompyuterlarda (Windows, Linux, Mac operatsion tizimlarida) ishlatilishi mumkin.

Bulutli xizmatlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish to‘g‘risida S.S.Arbuzov ishlarida ma’lumot topish mumkin. Tadqiqotchilar o‘z ishlarida onlayn translyatsiyalar, veb-konferensiyalar, veb-seminarlar va turli videokonferensiyalar o‘tkazishni, namoyish qilishni tahlil qilishgan.

Texnika yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarda talabalar bilan internetda eksperimental tarzda to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiyalarni tashkil etish va o‘tkazishni tahlil qilish, AKTdan foydalanish usullarini – masofaviy o‘qitish IT vositalaridan foydalanib, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv mavzularining namoyishini (translyatsiyasini) tayyorlash, efirga uzatish va saqlashni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

– sinxron onlayn rejimdagi konsultatsiyalar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi eshittirishlar tayyorlash;

– asinxron mashg‘ulotlar (oflayn rejim)ni tashkil qilish. Bu bosqichda o‘qituvchi va talabalar oldingi translyasiyalardan olingan skrininglarni ko‘rib chiqdilar.

Bu alfozda tashkil qilingan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi. Tajribaviy mashg‘ulotlarda texnika yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish uchun quyidagilar bo‘lishi ta’minlandi:

– yuqori ishlash xususiyatli shaxsiy raqamli qurilma(kompyuter, noutbuk, planshet);

– yuqori tezlikdagi internetga ulanish;

– mikrofon va veb-kamera.

Professional jihozlardan foydalanish: ovozli va videokartalar, mikrofonlar, kameralar, audio va video almashtirgichlar.

Tajribaviy mashg‘ulotlarda quyidagi platformalar xizmatidan foydalanish tavsiya etildi: YouTube va bepul dasturiy ta’minot OVS. Kompleksda foydalanish uchun ushbu mahsulotlarning bir qator afzalliklari borligi ayon bo‘ldi:

– birinchidan, shunga o‘xshash veb-xizmatlar va dasturlarga nisbatan 8-10 barobar yuqori sifatli translyatsiyaga ega bo‘lish (1920x1080, 60 fps qadar);

– ikkinchidan, namoyish etishni orqaga qaytarish;

– uchinchidan, real vaqtda har qanday mashg‘ulot daqiqasini qaytarib ko‘rish va boshlashga imkoniyat mavjudigi;

– to‘rtinchidan, translyasiyani yozib olish tugagandan so‘ng darhol topshiriqlarni bajarishga imkoniyatning mavjudligi;

– beshinchidan, o‘qituvchi yoki auditoriyadagi talabalar uchun, yoxud, ta’lim

ishtirokchisiga individual sharhlar qoldirish uchun yana ro‘yxatdan o‘tish shart emasligi va boshqalar.

Texnika yo‘nalishidagi mashg‘ulotlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilishda eng qulay, vaqtdan tejamli foydalanish uchun mo‘ljallangan raqamli texnologiya ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Eng asosiysi, tinglashga va ko‘rishga katta imkoniyat yaratishi ma’lum bo‘ldi. Tajribaviy mashg‘ulotlarda dunyodagi eng yirik videoxosting saytlaridan biri youtubedan foydalanish (nafaqat turli yangiliklarni o‘qish, balki ta’limiy maqsadlarda foydalanish) imkoniyati o‘rganildi. Shuningdek, eksperimental tarzda olib borilgan mashg‘ulotlarda ish stoli ekranidan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, slaydlar bilan ishlash layoqatini oshirish, animatsiyalarni yarata olish malakalarini rivojlantirishi bir nechta sahnalardan foydalanish, ularning joylashuvi va ular orasidagi o‘tishlarni belgilashga imkoniyat mavjudligi o‘z tasdig‘ini topdi. 168 nafar talabalar onlayn kurslari, raqamli texnologiyalar haqidagi tushunchalarga ega bo‘ldilar. Ulardan 86 foiz raqamli texnologiyalar asosida voqealar, hisobot berish usullari va sanalari, bajarilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida namoyish etish ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar.

Talabalar tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga 99 foiz bakalavrlar muyassar bo‘ldilar. 89,9 foiz talabalar sinxron onlayn rejimdagi konsultatsiyalar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi eshittirishlarni tinglash ko‘nikmalarini egalladilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi tomonidan taqdim qilingan topshiriqni mashg‘ulot davrining o‘zidayoq talaba yozib olishi, uni bajarib bo‘lgach, masofaviy ta’limda yana qayta namoyish etishga imkoniyati mavjud. Bu birinchidan, vaqt tejalishiga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interfaollikni kuchaytirishga, ikkinchidan o‘rganilayotgan o‘quv moduliga qiziqishni orttirishga, uchinchidan, didaktikadagi muhim tamoyillar: ko‘rgazmalilik, tushunarlilik, nazariya va amaliyotning birligi tamoyillarining ta’minlanishini vujudga keltirishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш. А. (2019). Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. In Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития (pp. 4-10).

2. Абдуллаева Ш. А., Зайнитдинова М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования, 4(3).

3. Лутфиллаев М. Х., & Абдуллаева Ш. А. (2019). Вопросы разработки и внедрения программного обеспечения педагогической диагностики (на примере высших учебных заведений республики Узбекистан). Образовательные ресурсы и технологии, (3 (28)).

4. Абдуллаева Ш. А., & Хужаназарова С. Ф. (2017). Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах. Современное образование (Узбекистан), (7).

5. Рузметова С. Т., & Абдуллаева Ш. А. (2021). Использование цифровых технологий в образовании. Проблемы современной науки и образования, (3 (160)), –С.33-35.

Muqaddas SOIBNAZAROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

YOSH AVLODNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA MUTAFAKKIRLARNING FIKRLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Ulug' mutaffakirlarning asarlari yoshlarni yuksak darajadagi axloqiy sifatlarga ega bo'lishida, milliy qadryatlarni chuqur o'rganish esa shaxs kamolotida muhim o'rin egallashi xususida ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, inson, ma'naviyat, tarbiya, axloq, umuminsoniy qadriyat, e'tiqod, komil inson tarbiyasi, ma'naviy meros, ma'naviy omillar.

В данной статье научно освещен вопрос духовно-нравственного воспитания гармонично развитого поколения. В произведениях великих мыслителей выражены научные взгляды на то, что молодежь отличается высоким уровнем нравственных качеств, а глубокое изучение национальных ценностей играет важную роль в развитии личности.

Ключевые слова. Личность, человек, духовность, воспитание, нравственность, общечеловеческие ценности, вера, совершенное человеческое воспитание, духовное наследие, духовные факторы.

This article scientifically highlights the issue of spiritual and moral education of a harmoniously developed generation. The works of great thinkers express scientific views that young people have a high level of moral qualities, and a deep study of national values plays an important role in the development of personality.

Key words. Personality, man, spirituality, education, morality, universal values, faith, perfect human education, spiritual heritage, spiritual factors.

Yosh avlodni axloqiy, aqliy jismoniy jihatdan barkamol shaxs etib tarbiyalab voyaga yetkazish asrlar davomida insoniyatning ilg'or namoyondalari o'rtasida jiddiy munozaralarni keltirib chiqargan hamda muhim masalalardan biri bo'lgan. Bu haqida ko'plab g'oyalar yaratilib, ilgari surildi. Oliyjanob fazilatli yetuk shaxsni goho oy, goho quyoshga o'xshatiladi. Barkamol insonni tarbiyalash hozirgi zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Barkamol avlodni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustuvor jihatlarini ular ongiga singdirish, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z vataniga fidoyi shaxs etib tarbiyalashga e'tibor berish zarur. Kundan-kun odimlab borayotgan vatanimizda yoshlar sidqidildan bilimli, salohiyatli bo'lib taraqqiyotning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. Shaxsni barkamolikka yetaklovchi kuch bu–ma'rifatdir. Inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar saxiylik, sabrlilik, kamtarlik, hamjihatlik insonning oliy ko'rki hamda ruhiy tayanchidir.

Ajdodlarimiz tamaltoshni qo'ygan pillapoyalardan yoshlar yuqori cho'qqilarga ko'tarilmoqda. Ularga asosan ajdodlarimizning ya'ni, ulug' mutafakkirlarimizning

ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining yoshlar ongiga ta’siri muhim bo‘lmoqda. Ulug‘ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta’riflaganidek, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim maqsadlari: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya hamda sog‘lomlashtirish tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, baynalminal tarbiyasi, vatanparvarlik tarbiyasi va oila tarbiyasi turlariga amal qilmoqdalar. Ayni damda yosh avlodning oldida turgan asosiy dolzarb masalalardir. Yurtsevar, oliyjanob, do‘stona, adolatlilik, halol bo‘lishdek fazilatlarga ega bo‘lish kelajak avlodning maqsadidir. Har tomonlama rivojlangan yetuk shaxsni jamiyatdagi o‘rni va faoliyati muhim. Allomalar e’tirof etgan jismoniy tarbiya borasidagi tavsiyalarda sog‘lom turmush tarzi kun tartibini to‘g‘ri uyushtirish, sport bilan shug‘ullanish, tana a’zolarini chiniqtirish nazarda tutiladi. Axloqiy tarbiya orqali odob-axloq borasidagi bahs-munozaralar tashkillashtirib o‘tkazilmoqda. Axloqiy tarbiya manbaiga aylanmoqda. Axloqiy barkamol inson ma’naviy halovatdan mamnun bo‘lsa, ya’ni, qanoat qilsa ularning irodasi kuchlidir .

Insonda adolatlilik afzallik, burch kabi yuksak xislatlarni shakllantirish uchun ko‘plab chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Nafosat tarbiyasi orqali yoshlarning san’atga oid iqtidor qobiliyatlari o‘smoqda. Hayot tabiat go‘zalliklarini o‘zida namoyon etgan, ularni tushunish, ulardan oqilona foydalanishga e’tibor berilmoqda. Aynan nafosat tarbiyasi orqali xalqimizning madaniyat qirralarini o‘z bilimlari bilan dunyoga tanitmoqda. Shu asnoda turli san’at sohasidagi tanlovlarda ishtirok etmoqda. Aqliy tarbiya berish bilan yosh avlodni bilim olishga qiziqtirib, fan-texnika, madaniy sohasidagi bilimlarini kengaytirilmoqda. Axloq-odob borasidagi tadbirlarda aynan mutafakkirlarning merosiga murojaat etgan holda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muzokaralarning o‘tkazilishi ham nechog‘lik ularga bo‘lgan hurmat-ehtiromning yaqqol namunasidir. Aqliy tarbiya borasida yoshlarning ilmiy izlanishlar, tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullagishga, ilm-fan yutuqlardan foydalanishga e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda yoshlarimiz ham o‘zlari buyuk kashfiyotlar, ixtirolar ustida tinmay izlanishlar olib borishmoqda.

Davlat rahbarlarimiz tomonidan ozod yurtning hur fikrli vorislarini tarbiyalashning o‘ziga xos dasturiy, amaliy tavsiyalarini yaratish tadbirlari qo‘llanib kelinmoqda. Buning uchun davlat rahbarlarining “Ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat axloq haqidagi asarlarni ko‘plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini hamda yangicha tus olayotgan jamiyatimizning mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o‘rganish muhimdir” - degan fikrlarini yodga olish kifoyadir. Ma’naviy sohada o‘z ifodasini topgan aniq, ravshan yutuqlarni muvaffaqiyatli deb hisoblamoq joiz.

Xalqning ma’naviyati, madaniyati uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotganligi; jamiyatimizni taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljitishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Xalqimiz sarchashmalarining ko‘zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo‘r hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ma’naviy va madaniy merosi chuqur anglanmoqda.

Har bir avlodning o‘z o‘tmishiga oliyjanob milliy, madaniy, diniy an’analariga hurmat bilan qarash, ularni asrash ayni chog‘da hozirgi zamon jahon taraqqiyoti va ma’naviyati qadriyatlarini o‘zlashtirish muhim manbalardandir. Xalqimiz o‘zining milliy o‘zligini anglab yetdi. Yosh avlod buyuk ajdodlarimizga munosib bo‘lish borasida intilishlarini ta’kidlash darkor. Biror-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini insonlar ongiga ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlarini ma’naviy merosi asrlar mobaynida nafaqat Sharq

xalqlari uchun balki, G‘arb xalqlari uchun qudratli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Ma’naviy qadriyatlarni tiklash, milliy o‘zlikni anglash xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayondir.

Xalqimiz o‘z taqdirini chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori hamda o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi. Ma’naviy qadriyatlarni tiklanishi hozirgi zamon taraqqiyotining moslashishini anglatadi. Axloq va ma’naviyat har bir insonning fikri, zikrida bo‘lishi kerak. Yuksak darajadagi axloqiy fuqaroni voyaga yetkazish har bir fuqaroning burchidir. Ma’naviy tiklanish-insonlarning fikrlash tarzini o‘zgarishi, mustaqillik ruhini belgilab beradigan yangi avlodga munosib ziyolilarning paydo bo‘lishi demakdir. Xalqning kelajagi, ma’naviy qudrati milliy ongining ijodiy kuchiga bog‘liq. Ma’naviy, aqliy, axloqiy o‘sish hamda rivojlanishga hech qanday narsa to‘siq bo‘lishi mumkin emas. O‘zbek xalqi avlodan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarni, o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvofiq bo‘ldi. Tarix–millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylandi. Buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy, madaniy, ma’naviy merosi, jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, fuqarolar ongini yanada shakllantirib yubordi. Barkamol avlodni ulg‘aytirish uchun allomalarning o‘gitlari dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirda O‘zbekiston deb atalmish diyorimizda bilimli, salohiyatli yoshlarning nufuzi oshib bormoqda. Har bir yoshlarning g‘oya va maqsadlari yetuk cho‘qqilarni zabt etishdan iborat.

Yuqorida qayd qilgan manbalardan shuni xulosa qilish mumkinki, shu zaminda yashab dunyo taraqqiyotiga hissa qo‘shgan allomalarimiz shak-shubhasiz dunyo ilm ahli tan olgandek buyuk siymolardir.

Mana shunday buyuk allomalarning ishlarini yanada boyitib, to‘ldirib, sayqallashtirib, butun dunyo taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan olimlar va ularning farzandlari, shogirdlari buyuk bobolarimizning izdoshlari hisoblanadi.

Talaba yoshlarimizni milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan boyitishda “Avesto” nomli kitob bilan birga “Qur’oni karim” kitobi va “Hadisi sharif” nomli muqaddas kitoblarning ahamiyati beqiyos. Har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishda axloqning asosiy roli tasvirlanadi. Zero, jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga qay darajada zarar yetkazsa, yaxshi axloqli kishilar uning ravnaqiga shuncha hissa qo‘shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. ‘‘Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz’’. O‘zbekiston, 2017-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. ‘‘Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’’. O‘zbekiston, 2016-y.
3. Ma’naviyat yulduzlari. T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999-y.
4. Xasanboyev J. To‘raqulov X, Xaydarov M, Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.; Fan va texnologiya, 2008-y.
5. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. – T., 1971. 38-b.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T., 1993. 187-b.

Komila PARDAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Umumiy pedagogika’’
kafedrasi katta o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ABDULLA AVLONIY IJODINI O‘RGANISHNING MA’RIFIY-ESTETIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada atoqli ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy ilmiy-ijodiy merosining didaktik xususiyatlari, yetakchi tamoyillari yoritilgan. Umumiy o‘rta ta’limda adib asarlarini o‘rganishning ma’rifiy-estetik ahamiyati darslik manbalari asosida tahlil qilingan. Muhim pedagogik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Ilm, ma’rifat, didaktik, pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik, tushuncha, tamoyil, mazmun, metod.

В статье описываются дидактические особенности и руководящие принципы научно-творческого наследия известного ученого-просвещенца Абдуллы Авлони. На материале воспитательно-эстетическая значимость изучения произведений автора в общем среднем образовании анализируется согласно учебникам. Выдвинуты важные педагогические рекомендации.

Ключевые слова. Наука, просвещение, дидактическое, педагогическое, духовно-просветительское, художественно-эстетическое, понятие, принцип, содержание, метод.

The article describes the didactic features and guiding principles of the scientific and creative heritage of the famous scientist-educator Abdulla Avloni. On the material of textbooks, the educational and aesthetic significance of studying the author’s works in general secondary education is analyzed. Important pedagogical recommendations are put forward.

Key words. Science, education, didactic, pedagogical, spiritual and educational, artistic and aesthetic, concept, principle, content, method.

So‘nggi yillarda yurtimiz bo‘ylab barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar, o‘zgarish va yangilanishlar jadal sur’atlarda davom etmoqda. Xususan, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishi yo‘lida bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, nihoyatda salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

2022-yil 28-yanvarda davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni ham bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, natijadorlikni oshirishga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir.

Mazkur Taraqqiyot strategiyasining 5-yo‘nalishi aynan “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” masalalarini qamrab olgan bo‘lib, unda jamiyat ma’naviy-ma’rifiy hayotini yuksaltirishning dolzarb jihatlari, asosiy maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasining ushbu yo‘nalishdan o‘rin olgan 73-maqsad esa bevosita “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish”ga qaratilganligi bilan nihoyatda diqqatga sazovor bo‘lib, ushbu mazmundagi

ilmiy-pedagogik, ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning huquqiy asosi hamda bosh g‘oyasi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, ulug‘ ajdodlarimiz yaratib qoldirgan nodir tafakkur mahsullari, ilmiy-ijodiy meros, ma’naviyat durdonalari asrlar osha o‘zining yuksak qadr-qimmati va ahamiyatini saqlagan holda ta’lim-tarbiya jarayonining muhim hayotiy dasturulamali, ibrat maktabi, kamolot yo‘llanmasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bu borada atoqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning ham o‘ziga xos o‘rni va salmoqli ahamiyati mavjud.

Alloma zamonaviy o‘zbek pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan ma’rifat fidoyilaridan hisoblanadi. U o‘zining butun hayotini millatni ziyoli qilish, ma’nan va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lidagi zahmatli va sharafli faoliyatga baxshida etdi. Shu boisdan ham adibning ilmiy-ijodiy merosi nafaqat tadqiqotchilar tomonidan, balki ta’lim bosqichlarida ham o‘rganiladi. Xususan, umumiy o‘rta ta’limning 5-sinf “Adabiyot” fanida adibning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish bilan bir qatorda, uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan “Vatanni suymak” lavhasi hamda “Vatan” she’ri berilgan. O‘quvchilarning yosh va o‘zlashtirish xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tanlangan mazkur badiiy manzumalar o‘zining estetik ta’sirchanligi bilan muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Vatanni suymak” lavhasida adib Vatan tushunchasiga oddiy va hayotiy ta’rif beradiki, uni o‘qishni boshlagan kitobxon shuuriga Vatan tushunchasi tez va oson singib, unga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini his qiladi: Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortuq suyar. Hatto, bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayirilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”, - deya adib Vatan tuyg‘usini sodda tushuntirishga urinadi. Har bir inson o‘z tug‘ilib o‘sgan yeri xoh so‘lim va obod go‘sha bo‘lsin, xoh suvsiz sahro, xoh issiq o‘lka, xoh sovuq muzliklar bo‘lsin, juda ham qattiq yaxshi ko‘rishini uqtirishga urinadi: “Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortuq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi”.

Yosh o‘quvchi ushbu badiiy parcha bilan tanishar ekan, uning qalbida ham o‘z Ona Vataniga bo‘lgan muhabbat va e’tibori ortadi. Ayni lahzalarda ko‘z oldiga o‘zi tug‘ilgan go‘sha bor bo‘y-basti bilan gavdalanadi. O‘z yurtini boshqa mamlakatlar bilan qiyoslab, betakror jihatlari, afzalliklarini topadi hamda Vataniga nisbatan faxr va ardoq hislarini tuyadi. Adib mazkur manzumasida o‘zining Vatan haqidagi ulug‘vor tushunchalarini hikmatlar bilan asoslab beradi va ushbu poetik lavhani vatanini tashlab ketishga majbur bo‘lgan insonning hijrondan kun-u tunlari g‘am bilan to‘lishi, Vatanini hamisha qalbida ardoqlab, sevib-sog‘inib yashashi aks etgan she’r bilan yakunlaydi.

Shuningdek, 5-sinf “Adabiyot” darsligida adibning “Vatan” she’ri ham keltiriladi. She’rning birinchi bandidanoq o‘quvchi Vatan tushunchasining nihoyatda ulug‘ va mo‘tabar ekanligini, uni sevmagan, qadrlamaganlar “aqli past” bo‘lishini anglab yetadi:

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdur.
Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur”.

She’rning mazkur birinchi bandidayoq shoirning o‘z Vatanini nechog‘lik suyishi, ardoqlashi teran aks etgan. Uning uchun Vatan tuyg‘usi yuraklarda eng go‘zal hislarni

tarbiyalaydi, boshqa barcha dardlarni yengib o‘tadi. Vatan dardi, sog‘inchini hamma dard-u alamdan og‘irroq tuyadi. Shoirning bu otashin muhabbati beixtiyor o‘quvchiga ham yuqadi. Uning qalbida ham o‘z Ona Vataniga nisbatan yuksak ehtirom va muhabbat hislarini tarbiyalashga hissa qo‘shadi.

Navbatdagi bandlarda oddiy va hayotiy misollar orqali Vatan tushunchasini uning betakror tabiati, turfa rang ne’matlari bilan bog‘lab gavdalantiradi:

Yering, suving bizni boqub to‘ydiradur,
Semiz-semiz qo‘ylaringni so‘ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum – mevalaring,
Ot-u ho‘kuz, echki, taka, tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne’mat parchalari.
Sendan tug‘ub, katta bo‘lub, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag‘ring yorub.

Ushbu lavhalarni o‘qigan yosh kitobxon ko‘z o‘ngida Vatanining so‘lim tabiati, undagi jonzot-u mavjudotlar birma-bir gavdalanadi. “Vatan” shunchaki oddiy bir so‘z emas, nihoyatda keng qamrovli ulug‘vor tushuncha ekanligini anglab yetadi.

She’rning navbatdagi misralari esa maqsad va mazmunning yaxlit g‘oyasi sifatida gavdalanib, kulminatsion nuqta darajasiga ko‘tariladi:

Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!

Ushbu baytda shoir “onamizsan” so‘zini qat’iy takrorlash orqali Vatan tuyg‘usining Onaga qiyoslanishi yuksak badiiy pardalarda tarannum etadi va o‘z navbatida, kitobxon shuuriga manguga muhrlashga urinadi. Demak, Vatan bizning mushfiq va mehribon Onamiz. Biz o‘z onamizni qanday sevsak va ardoqlasak Vatanimizni ham shunday muhabbat bilan qadrlashimiz kerak. Ona o‘z farzandini qanday avaylab parvarishlasa, Vatan ham o‘zining har bir fuqarosini shunday tarbiyalaydi, ulg‘aytiradi, himoya qiladi. Shu boisdan ham azal-azaldan “ona” va “vatan” tushunchalari hamisha yonma-yon ifodalanadi, birining ta’rif-u tavsifida bevosita ikkinchisidan foydalaniladi.

Umumiy o‘rta ta’limda Abdulla Avloniyning Vatan haqidagi badiiy manzumalarini o‘rganish o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularning o‘z Vataniga nisbatan muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, ilm inson ruhi, tafakkurining quvvati, hayotiylik mezoni, najotkor rahbaridir. Ilm va aql insoniyatni butun borliq mavjudotlari ichra aziz va sharif aylaydi. Insonda ilm va aql rivojlanib, ko‘payib borgan sayin uning qadr-qimmati ham ortib boraveradi.

Shu jihatdan alloma Sharq dunyosida nihoyatda keng shuhrat yoygan “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida ham ilm olish, ziyoli bo‘lish masalasiga muhim e’tibor qaratib, ilm ta’rifi va ahamiyatini teranroq yoritish maqsadida “Ilm” mavzusida alohida tushuntirish beradi. Ilm ta’rifi-yu tavsifida bir qadar qisqa tuyuladigan ushbu lavhada “ilm” tushunchasining mukammal ta’rifini badiiy-estetik bo‘yoqlarda g‘oyatda ta’sirchan gavdalantiradi. Mazkur kichik tadqiqotimiz ayni shu mavzuni qamrab olganligi bois dastlab ushbu lavhani to‘liq keltirishni joiz topdik.

Avloniy yuksak ma’rifatning jonkuyar targ‘ibotchisi sifatida ilmni quyidagicha talqin qiladi:

Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va

muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur.

Alloma nazdida ilmsiz inson mevasiz daraxtga o‘xshaydi. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, yor-do‘stiga, din va millatiga foyda keltirmoq bir tomonda tursin, o‘zi uchun lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham yetarlicha bajara olmaydi. Avloniy ilmning foydasi nihoyatda ko‘p bo‘lib, ta’rifining adog‘i ko‘rinmaydi, deya quyidagi fikrlarini ilgari suradi: Bizlarni jaholat qorong‘ulig‘idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog‘lidur. Payg‘ambarimiz: “Ilmga amal qilguchilardan bo‘lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo‘lmangiz”, – demishlar.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Abdulla Avloniyning boy ilmiy-ijodiy merosi o‘zining yuksak darajadagi ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyati bilan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, jamiyat taraqqiyotida salmoqli o‘rin tutadi. Alloma o‘zining butun hayoti, ijodini xalqni ziyoli va ma’rifatli qilish, har tomonlama barkamol avlod tarbiyalash ishlariga bag‘ishladi. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirish, yangi usuldagi maktablar ochish, teatr san’ati va nashriyotchilikni taraqqiy ettirish yo‘lida samarali xizmatlar qildi. Ma’rifatparvarlar tomonidan ilgari surilgan ulug‘vor g‘oyalarni hayotga tatbiq etib, shaxsiy namuna ko‘rsatdi. Shu jihatdan uning hayoti va ijodiy merosini ta’lim bosqichlarida, xususan, umumiy o‘rta ta’limda chuqur o‘rganish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihatlarni e’tiborga olgan holda, nafaqt 5-sinflarda, balki yuqori sinflarda, xususan, “Tarbiya” fanlarida Abdulla Avloniy faoliyatini, badiiy-ma’rifiy, publitsistik asarlarini chuqur tahliliy asoslarda, interfaol metodlar yordamida o‘rganish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.
2. Ahmedov S.. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’limning 5-sinfi uchun darslik.
3. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004.
4. Qosimov B., Rizayev Sh.. Abdulla Avloniy. – T., 2016.

Nargiza XUSHIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Tabiiy fanlarda chet tili” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Sayyora MUXAMMADIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

AHMAD YASSAVIY PEDAGOGIK QARASHLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma’naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g‘oyalar, xususan Xo‘ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g‘oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, ta’lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma’naviy meros.

В этой статье рассматриваются исторические корни образования, идеи, выдвинутые в исследованиях по проблеме духовно-нравственного воспитания в нашей стране, в частности, важность гуманитарных идей Ходжи Ахмада Яссави в воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова. Педагогика, образование, воспитание, нравственность, человечность, честность, самодисциплина, духовное наследие.

This article discusses the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problems of spiritual and moral education in our country, in particular, the importance of the humanitarian ideas of Hodja Ahmad Yassavi in the education of young people today.

Key words. Pedagogy, education, upbringing, morality, humanity, honesty, self-discipline, spiritual heritage.

Pedagogika insonning ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanib, rivojlanib, kamol topishini yaqqol asoslab bergan fandir. Bunday yondashuvni bir necha asrlar ilgari Sharq mutafakkirlari Farobiy va Abu Bakr ar-Roziylar ham o‘z asarlarida e’tirof etganlar. Tasavvuf ham insonning ilm-ma’rifat asosida yuksalishi haqidagi ta’limotga tayanadi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra insonning bosh maqsadini muhabbat, poklik tashkil qiladi. Olamga, borliqqa bo‘lgan muhabbat Xudo ishqi sifatida talqin qilinadi. Bunday muhabbat esa odamdan faqat yuqori darajadagi ko‘ngli poklik va nafs ehtiyojlaridan ozod bo‘lishni talab etadi.

Bu holat Xoja Ahmad Yassaviy dunyoqarashini shakllantirgan ma’naviy ildizlardan birini tashkil qiladi. Chunki uning muhim va ibratli xususiyatlaridan biri–shaxsning o‘z-o‘ziga tanqidiy qaray olishi, o‘ziga murosasizligi. Ahmad Yassaviyning nuqtayi nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Insonni eng og‘ir gunohlari uchun hatto tog‘-u toshlar ham la’natlaydi, – deydi Ahmad Yassaviy. Bu esa gunoh qilishdan, noqonuniy ishlarni bajarishga, jamiyat a’zolarining nafratiga erishishdan saqlanishga da’vatdir. Shuning uchun ham Xoja Ahmad Yassaviy ‘‘Ishq yo‘lida jon berganni armoni yo‘q, - der ekan, inson ma’naviy-ruhiy tozalanish

uchun mashaqqatlarga bardosh berishi, halollikka, poklikka intilishi lozimligini quyidagi hikmatida ifodalaydi:

Jafo chekmay oshiq, bo‘lmas, tingla g‘ofil,
Jafo chekib sobir bo‘lg‘il bo‘lma johil.

Bu bilan u, zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o‘zini olib qochishga da’vat qiladi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunonchi:

Xudovando, meni solg‘il o‘z yo‘lingga,
Nafs ilkida harib, ado bo‘ldim mano,
Fisqu fujur to‘lib – toshib, haddan oshti,
G‘arqob bo‘lib isyon ichra qoldim mano.

Yassaviy “G‘arqob bo‘lib isyon ichra qoldim mano” deganda insonni haqiqat yo‘lida “nafs” dan qutulishga, nafsining quli bo‘lib qolmaslikka, atrofdagi yomon qarashlarning ta’siriga berilmaslikka chaqiradi. Bu esa o‘quvchilar va talabalarni turli ekstremistik oqimlarning ta’siridan saqlab qolishga da’vat sifatida qimmatlidir. Sinchiklab tahlil qilar ekanmiz, Ahmad Yassaviyning ma’naviy tarbiyaga oid qarashlarida tarkidunyochilikka undash yotdir. U yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik, mansabparastlik illatlariga qarshi tura olishga chaqiradi. Aksariyat jamiyat a’zolari manfaatlarini pisand qilmay, mol-dunyo to‘plash, mansabga intilishga harakat qilayotgan bugungi kun uchun bu hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Shu ma’noda Yassaviy hikmatlari juda katta pedagogik qimmatga ega.

So‘fiylik oqimining ilk namoyandalari Abu Yazid (Bayazid), Yusuf Hamadoniy, uning shogirdi Ahmad Yassaviy, Abdulloh Rometaniy (Azizxon), Abdulholiq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Junayd Bog‘dodiy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Xo‘ja Ahror Valiy kabi yirik olim va mutafakkirlar ana shu oqimning boshlovchilari hisoblanadi. Ularning har biri davrida shaxs ma’naviyatini rivojlantirishga oid targ‘ibot ishlarini amalga oshirdilar. Jumladan, Abu Hamid G‘azzoliy ta’limotiga ko‘ra, jamiyat a’zolari bilan totuv yashash, shaxslararo hurmat, xushmuomalalik, o‘z yukini o‘zgalar zimmasiga yuklamaslikka odatlanish eng yaxshi fazilatlardandir.

So‘fiylik ta’limotiga ko‘ra, kamtarinlik, kamsuqumlik, sabrlilik, ishonuvchanlik fazilatlarini egallash insonni ma’naviy jihatdan bezaydi, uni yuksaklikka ko‘taradi.

So‘fiylikda ruhiy kamolotga erishishning asosiy yo‘llari to‘rtta deb ko‘rsatiladi. Bular: shariat (musulmonlarning qonun-qoidalari majmui), tariqat (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish), ma’rifat (kishilarning ongi-bilimi, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya) va haqiqat (moddiy borliqni aniq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglash) bosqichlaridir.

Ilk so‘fiylik ta’limotiga ko‘ra inson Haqqa yetishi uchun to‘rtta bosqichni o‘tashi lozim.

–Birinchidan, shariat qonunlarini bilish barobarida shakllanib, insonga yolg‘iz Ollohni tan olishga, yolg‘iz unga sig‘inishi, Ollohning yerdagi rasuli Muhammad deb bilishi va musulmonchilikning barcha qonun-qoidalarini o‘rganishi va unga rioya qilishi buyuriladi.

–Ikkinchi bosqich–tariqat bo‘lib, insondan biror-bir sulukka tegishli bo‘lish, birorta pirga qo‘l berib, uning maktabida, uning ta’limoti ta’sirida tarbiyalanishi talab qilinadi.

–Uchinchi bosqich–ma’rifat bo‘lib, insonning bilimga intilishi, o‘qishi, o‘rganishi, shu bilan birga, foniy dunyoning yolg‘onchi huzuridan voz kechish, nafs qopqoni tushkunligidan o‘zini xalos qilish lozimligi ta’kidlanadi. Ma’rifat bosqichini to‘la egallagan inson yetuk, pok bo‘lib haqiqat bosqichiga yetadi.

–To‘rtinchi, ya’ni oxirgi haqiqat bosqichini egallagan kishi Haqqa yetadi. Haqqa yetgan insonning ruhi Ollohga borib qo‘shiladi va Olloh bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo‘ladi.

Xoja Ahmad Yassaviy o‘z tariqatida din va tasavvuf g‘oyalarini targ‘iboti uchun she’rdan unumli foydalangan. Uning shogirdlari zikr chog‘ida Yassaviy yaratgan hikmatlarni ham yod o‘qiganlar.

Ya’ni, Xoja Ahmad Yassaviy ‘‘Faqr Haq taoloning bog‘i vaslidin daraxte turur, ul daraxtining butog‘i aql turur, reshasi hidoyat turur, mevasi xayr-u saxovat turur, soyasi qanoat turur, oning bo‘yi shavq turur, aning bargi har kimga tegdi, amali solih hosil qildi, har kim mevasidan yedi, hayoti jovidona topti va agar bo‘yi har kimga tegsa, mast-u hayran bo‘lg‘ay va agar soyasida o‘rin olsa, oftobi haqiqat anga tushgay’’, - deydi.

Ahmad Yassaviyning dunyoqarashida ilm-ma’rifat, odob-axloq masalalari mujassamlashgan bo‘lib, faqirning ongi, odobi, 8 ta maqomi va 7 ta martabasi ko‘rsatilib, o‘zining ‘‘Faqrnoma’’ dagi vasiyatlari har kimga tegishli ekanligini tasdiqlab, kimki bularga amal qilib istiqomat qilsa, dunyo va uqbonga muyassar bo‘lgay, agar amal qilmasa, og‘ir damda pushaymon qilgay va sharmandai oxirat bo‘lgay, - deydi. Ahmad Yassaviyning dunyoqarash ildizlari haqidagi bo‘limning xulosa qismida quyidagi umumlashtiruvchi fikrlarni keltirish mumkin:

Maqomi jabarut (buyuklik) – shariat turur,

Maqomi malakut (podshohlik)– tariqat turur,

Maqomi lohut (ilohiy olam)– ma’rifat turur,

Maqomi nosut (odamlar yashaydigan mazkur dunyo)–haqiqat turur, deb o‘z dunyoqarashini sharhlaydi. Ularning mazmunini ochish va yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rnini isbotlash ishimizning yangi bo‘limlarini tashkil qiladi.

Xullas, Xoja Ahmad islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga, yosh avlodlarni islom dini qadriyatlari asosida tarbiyalash nazariyasi va uslubiyatiga katta hissa qo‘shdi. Keyinchalik O‘rta Osiyoda ta’lim-tarbiya sohasida mashhur bo‘lib ketgan “Hikmat” ma’rifiy janri orqali poklik, halollik, yolg‘ondan saqlanish, kishi moliga, omonatiga xiyonat qilmaslik, to‘g‘rilik kabi ko‘pgina insoniy fazilatlarni tarbiyalash, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘git, she’rlar, uslublar yaratdi. Bu bilan u turkiy tasavvufda, ma’naviyatda, shogirdlarni tarbiyalashda o‘ziga xos maktabga asos soldi. Bu butun turkiy ma’naviyat, san’at, adabiyot, milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotida o‘chmas iz qoldirdi. Biroq kommunistik mafkura ulug‘ alloma ijodiyotini sinfiy nuqtayi nazardan baholab, Yassaviylik tariqati haqida shunday qarashni targ‘ib qildi.

Yassaviylik – islomdagi so‘fiylik tariqati bo‘lib, XII asrda O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan va Eronga ham keng yoyilgan. Asoschisi – Ahmad Yassaviy. Uning tashviqotchilaridan biri – Sulaymon Boqirg‘oniydir. Yassaviylik ruhiy osoyishtalikka, so‘fiylik yo‘liga kirishga, ustoz rahbarligida ‘‘kamolot’’ sari borishga da’vat etgan. Kishi butun hayotida ishonch bilan, muhabbat bilan yashashi kerak, hayotning mohiyati ezgu ishlarga intilib yashashdan iborat ekanligi Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yetakchi g‘oyasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Xoja Ahmad Yassaviy merosiga bo‘lgan qiziqish yana ham ortdi. Bu merosning ma’naviy ildizlari nihoyatda boy ekanligi, u insonni ezgulikka, kamtarinlikka, qanoatga undashi Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining tahlilidan yaqqol ko‘rinib turadi. Bu hikmatlar sahih hadislarni o‘zida jo qilgan xalqchil she’riy misralar bo‘lib, bugungi kun o‘quvchisini ezgulik, sabr-bardosh, qanoat, kamtarinlik ruhida tarbiyalashga ma’lum darajada xizmat qila oladi.

Qur’oni Karimda tarannum etiladigan umuminsoniy qadriyatlardan biri yetim-ye-

sirlarga raxm qilishdir. Buning dolzarbligi shundaki, hozir boy-badavlat yashayotganlar ham kambag‘allarga, yetimlarga, yolg‘iz qolganlarga yordam berishi kerak.

Tasavvufda nafsni tiyish, ishq, haqiqat – asosiy mavzudir. Islom dinida so‘fiylik oqimi, darveshlar Payg‘ambar davridayoq yuzaga kelgan. Sufiylar shariat qoidalarini o‘rganib, bu bilan cheklanmay, yana ma’rifat va haqiqatga, Haqqa yetishga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlarlan biri – taqvoga sufiylar katta ahamiyat berganlar. Zuxud va taqvo ko‘ngilni foniy dunyo gunohlaridan: g‘araz, ta’nalardan tozalash va Xudo buyurganiga amal qilib, Olloh, ma’n etgan ishlardan saqlanish demakdir. Bizning fikrimizcha, ilohiy ishq har qanday g‘arazli manfaatlardan xoli bo‘lishi zarur.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, borliqdagi barcha xilqatlarda, xususan, odamzodda ham ilohiy zarralar bor. Sufiyning maqsadi – ko‘ngildagi ilohiy zarralarni, uzoq va mashaqqatli poklanish yo`lidan borib, yana Ollohga qaytarishdan iboratdir. Ishqning bir nechta turlari, bizning fikrimizcha quyidagilardir:

1. Haqiqiy ishq, ya’ni odamnning Ollohga bo‘lgan ishqi.
2. Majoziy ishq, ya’ni odamning odamga bo‘lgan ishqi.
3. Odamning borliqqa, bor go‘zal mavjudotga bulgan ishqi.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Ahmad Yassaviy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. So‘fiylik ta’limotiga ko‘ra inson shariat qonunlarini o‘rganib, unga itoat qilishi, zuhd va taqvoga (e’tiqodli bo‘lish, xaromdan hazar qilish) amal etishi, o‘zini foniy (o‘tkinchi) dunyo gunohlaridan, g‘araz va yomonlikdan tozalashi, shukur qilib, man qilingan ishlardan saqlanishi buyuriladi. Insondan, bu bilangina chegaralanmay, balki moddiy olamni bilishga, ma’rifat va haqiqatga – Haqqa yetishga intilish talab etiladi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Xoja Ahmad Yassaviy islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga, yosh avlodlarni islom dini qadriyatlari asosida tarbiyalash nazariyasi va uslubiyatiga katta hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. Ibrohim Haqqul. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2001-yil.
2. Al-Buxoriy. Hadis, Al-jome’ as-sahih. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1992-yillar, 1-4-kitoblar.
3. Komilov N. Tasavvuf. –T.: Yozuvchi, 1996-y.
4. Komilov N. Komil inson haqida 4 risola. –T.: Ma’naviyat,1997-y.
5. Kubro Shayx Najmiddin. Jamoling menga bas: Ruboiylar /Forsiydan Matnazar Abdulxakim tarj.–T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.–64-b.
6. Pardayeva K., Tangirov A., Muxammadiyeva S. (2020). The Use Of The Humanistic Ideas Of Khoja Ahmad Yassavi I+-9n The Teaching Of Pedagogical Sciences. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Muxammadiyeva S., Farsaxonova D. (2020). PEDAGOGY OF EASTERN THINKERS THE ISSUE OF ETHICAL EDUCATION IN THEIR VIEWS. Архив Научных Публикаций JSPI.

Ilxom SIRADJEV,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Moliya departamenti direktori

XALQ TA'LIMI RAHBAR XODIMLARINING IQTISODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA OLIB BORILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLAR NATIJASI

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi muassasalarining iqtisodiy kompetentligini tashxislash va takomillashtirishga oid ishlar metodologiyasi va tajriba-sinov natijalari ochib berilgan. Shuningdek, tajriba-sinov natijalari asosida ta'lim muassasasi rahbarlarining iqtisodiy va moliyaviy bilimlari yetarli darajada emasligi va maktabning budjetdan tashqari qo'shimcha manbalarini yaratishda faolligini oshirish lozimligi va moliyaviy hisob-kitoblarda, daromad va xarajatlarda shaffoflik masalasini, ayniqsa, maktab jamoasi bilan ochiq va konstruktiv ruhda buni shakllantirishiga katta e'tibor qaratish kerak degan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiy kompetensiya, so'rovnoma va fenomenologiya, budjetdan tashqari daromad va xarajatlarni samarali boshqarish.

В статье раскрываются методика и экспериментальные результаты работы по диагностике и повышению экономической компетентности учреждений народного образования. В статье также отмечается недостаток экономических и финансовых знаний у руководителей школ по результатам экспериментов, необходимость более активной деятельности школы в создании дополнительных внебюджетных ресурсов, сделаны выводы о том, что следует уделять большое внимание формированию экономической компетентности у руководителей учреждений народного образования.

Ключевые слова. Экономическая компетентность, обзор и феноменология, эффективное управление внебюджетными доходами и расходами.

The article reveals the methodology and experimental results of work on diagnostics and improving the economic competence of public education institutions. The article also notes the lack of economic and financial knowledge among school leaders based on the results of experiments, the need for more active school activity in creating additional extrabudgetary resources, it is concluded that great attention should be paid to the formation of economic competence among heads of public education institutions.

Key words. Economic competence, review and phenomenology, effective management of off-budget revenues and expenditures.

Butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham ta'lim sifati va samarasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifa hisoblanadi. Ta'lim mamlakat istiqboli, kelajak avlodni to'g'ri tarbiyalash va malakali kadr bo'lib shakllanishini ta'minlash kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni qamrab olganligi bois, ta'limning asosiy moliyaviy manbasi davlat budjeti bo'lib qolmoqda. Shu bilan birgalikda, bugungi global moliviy-iqtisodiy inqirozlar, pandemiya sababli barcha tovar va xizmatlarda inflyatsiyaning shiddat bilan ortib borayotganligi natijasida davlat resurslarini yetishmasligi va budjet

taqchilligi muammolari mavjud (turli ko‘rinishdagi) manbalardan oqilona foydalanish vazifasini yuklamoqda.

Ushbu maqsad-vazifa va dolzarblikdan kelib chiqib ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining iqtisodiy kompetensiyasini o‘rgandik. Bu maqsadda maktab direktorlarining iqtisodiy kompetensiyasini o‘rgangan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni o‘rganib chiqqan holda tadqiqot metodologiyasini shakllantirdik. So‘rov (survey) va fenomenologiya tadqiqot metodlaridan foydalanib, tadqiqot olib bordik.

Birinchi so‘rovnoma – maktablarning budjetdan tashqari asosiy daromadlari haqida bo‘lib, unda maktablarda budjetdan tashqari daromad manbalari mavjud yoki mavjud emasligini va ularning turlarini, ahamiyatini aniqlashga harakat qildik.

Ikkinchi so‘rovnoma – maktablarning byudjetdan tashqari asosiy xarajatlari haqida bo‘lib, bu orqali maktablarda budjetdan tashqari xarajatlar aniqlandi va ahamiyati belgilab olindi.

Uchinchi so‘rovnoma – maktab direktorining iqtisodiy kompetentini o‘lchash to‘g‘risida bo‘lib, bu maktab direktorlarining iqtisodiy kompetentini o‘lchash va aniqlashga qaratildi.

To‘rtinchi so‘rovnomada – maktab direktorining byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarni ta’minlashda ichki va tashqi tizimlar bilan aloqa o‘rnatish ishlari o‘rganildi.

Beshinchi so‘rovnomada – maktab direktorining iqtisodiy va buxgalteriya bilimlari bo‘yicha tadqiqot olib borildi.

So‘rovnoma tahlilida Toshkent shahrida o‘tkazilgan 5 ta maktab, Navoiy shahrida o‘tkazilgan 5 ta maktab va Xorazm viloyati bo‘yicha 3 ta maktab tanlab olindi. Maktablarning 8 tasi shahar markazida, 2 tasi shahar chekkasida va 3 tasi qishloqda joylashgan. Ishtirokchilarning tarkibi (so‘rovnoma soniga nisbatan) 236 tasi maktab direktori va direktor o‘rinbosari, 892 tasi o‘qituvchi, qolgan 322 ota-ona hamda boshqalardan iboratdir. Jami so‘rovnoma 1450 tani tashkil qilmoqda.

Toshkent shahar bo‘yicha so‘rovnomamizda ishtirok etganlar maktabning budjetdan tashqari qo‘shimcha daromadi asosan oshxona (bufet) faoliyatidan tushadigan daromad ekanligini ko‘rsatmoqda. Beshala maktabda ham bu faoliyatdan qo‘shimcha daromad topayotganligi ilgari surilmoqda. Qolgan daromad manbalari sifatida tadbirlar uchun ijaraga zal va xonalar ajratish, repititorlik, to‘garaklar, sog‘lomlashtirish maskanlari ijarasi, maktab yerlarini ijaraga berish, davlat va nodavlat tashkilotlaridan yordamlar va homiylar ko‘rinishida bo‘lib, tuzib chiqqanimiz 15 ta qo‘shimcha daromad manbalaridan 8 tasida daromad topishini bildirgan.

Navoiy shaharda ham maktablarning asosiy daromadi oshxona (bufet)dan ekanligi bildirilmoqda va jami 10 ga yaqin (maktablarga ko‘ra farq qiladi, eng ko‘p 7 ta daromad manbasini ko‘rsatgan 18 maktab bo‘lmoqda) daromad manbasi borligi ko‘rinmoqda.

Xorazm viloyati bo‘yicha ham maktablarning daromad manbasi oshxona (bufet) ekanligi ko‘rinmoqda va qo‘shimcha tarzda maktab yerlarini ijaraga berish hamda to‘garaklar ekanligi aytilmoqda.

Maktab daromadlari bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rib chiqqan maktablarning barchasida qo‘shimcha daromad manbasi maktab oshxonasi (bufet) ekanligi, qolgan o‘rinlarda ota-onalarning xayriya yordamlari, to‘garaklar va nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlar va fermerlarning xayriya yordamlari bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, Toshkent shahri bo‘yicha Shayxontohur tumanidagi 59-ixtisoslashgan maktabni eng kam daromad


manbasi borligini ko‘rsata oldi. Qolgan maktablar Yakkasaroy tumanidagi 118-maktab, 160-maktab va Yunusobod tumanidagi 235-maktab 6 tadan qo‘shimcha daromad manbasini ko‘rsatmoqda. Mirobod tumanidagi 328-maktab qo‘shimcha daromadlar ba’zan mavjud bo‘lishini ma’lum qilmoqda. Navoiy shaharda esa 18 va 10 maktablar 7-8 tadan qo‘shimcha manbasini ko‘rsatmoqda. Eng past ko‘rsatgichni 19-maktab bermoqda. Xorazmdagi so‘rovnomada ishtirok etgan maktablarning barchasi qishloqlarda joylashganligi bois qo‘shimcha manbalardan tabiiy ravishda kam foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, Xiva tumanidagi 8 maktab yaxshi ko‘rsatgichni bermoqda. Bu yerda gap shundaki, nega deyarli bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay Toshkent bo‘yicha tadqiqotimizda 59-maktab, Navoiy shahar bo‘yicha tadqiqotimizda 19 maktablar deyarli qo‘shimcha manbalarini ko‘rsatib bera olmayapti? Javob ikki xil bo‘lishi mumkin: birinchisi, maktab ma’muriyati haqiqatdan ham qo‘shimcha daromad manbalarini yarata olmagan, ikkinchisi esa moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda shaffof emas, balki xayriyalarni “arzimas” deb hisoblar va ochiqlashni istamas. Ammo, har ikkala holat ham ta’lim muhitiga va sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. So‘rovnomadan ham buni bilish mumkin. Masalan, so‘rovnomaning eng pastida yillik o‘rtacha qo‘shimcha daromadni yozishi iltimos qilingan va 59-maktab bu joyni bo‘sh qoldirgan bo‘lsa, Glinka ko‘chadagi 118-maktab 60 mln. so‘m, Sh.Rustavelli ko‘chasidagi 160-maktab esa 120 mln. so‘m deb ko‘rsatmoqda. Bu esa mazkur 118- va 160-maktablarning hisobdorligini va jamoatchilik uchun moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda ochiq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Navoiy shahar bo‘yicha holat biroz farqli. U yerda eng yaxshi ko‘rsatgichga ega bo‘lgan 10 maktab o‘rtacha yillik qo‘shimcha daromadini 100 mln. so‘m deb ko‘rsatmoqda, yana bir yaxshi ko‘rsatgich berayotgan 18-maktab esa yillik daromadini ko‘rsatmagan, ammo yaxshi ko‘rsatgichga ega bo‘lmagan 19-maktab esa yillik daromadini 1,836,000 deb yozmoqda. Shunday bo‘lsa-da, shahar chekkasida joylashgan 10 maktab yillik o‘rtacha 100 mln. so‘m qo‘shimcha daromad topayotgan bir paytda, 19 maktab esa shahar markazida joylashganligiga qaramay yillik 1.836 ming so‘m ya’ni, 10 barobar kam qo‘shimcha daromad topmoqda. Bu 19-maktab ma’muriyatining qo‘shimcha daromad manbalarini yarata olmayotganligini, boshqa so‘z bilan aytganda 59- va 19-maktab ma’muriyatlarining iqtisodiy kompetensiyalarining yetarlimasligini ko‘rsatmoqda.

So‘rovnoma ishtirokchilari budjetdan tashqari maktab xarajatlari sifatida asosan maktab ta’miri, svet, gaz va suv to‘lovlari, org-texnika vositalarining ta’miri va kartridjlarni to‘ldirish, telefon va internet to‘lovlari, ish qurollari sotib olish va o‘quvchi va o‘qituvchilarni rag‘batlantirish kabilarni ma’lum qilmoqda. Ammo daromadlardan farqli o‘laroq, bu yerda 15 turdagi xarajatlarni deyarli barchasi borligini (maktablarga ko‘ra farq mavjud) ko‘rsatmoqda. Shu bilan birgalikda, ba’zi maktablarda mavjud xarajat turi ba’zi maktablarda yo‘q. Bu yana ikki sababga asoslanishi mumkin. Birinchisi, maktab ma’muriyatidagilar (izoh: №1-2 so‘rovnomalar maktab direktori va o‘rinbosarlari, buxgalterlar tarafidan to‘ldirilishi ta’kidlangan va katta ehtimol bilan ular tarafidan to‘ldirilgan) budjet xarajati bilan byudjetdan tashqari xarajatlarni aralashtirib yubormoqda yoki ajrata olmayapti, ikkinchisi, xarajatlar bo‘yicha ham shaffof emas. Xususan, tadqiqotimizdagi Toshkent bo‘yicha 59 maktab yillik o‘rtacha xarajatlarini ko‘rsatmas ekan, 118-maktab 40 mln. so‘m deb, 160-maktab 90 mln. so‘m deb, 328-maktab 5 mln so‘m deb ko‘rsatmoqda. Ammo,

Yunusobod tumanidagi 235-maktab ham 59-maktab kabi daromadini ham xarajatini ham ko‘rsatmagan. Navoiy shahardagi 10-maktab daromadini ko‘rsatgandek, xarajatini ham 100 mln. deb ko‘rsatmoqda. 12-maktab esa daromadini 40-50 mln. so‘m deb ko‘rsatgan bo‘lsa, xarajatlarini ko‘rsatmagan. Vaholanki, ushbu maktab 15 turdagi xarajatlarni barchasini mavjud deb ko‘rsatmoqda. 15-maktab yillik o‘rtacha 2,5 mln. so‘m xarajatini va 7 mln. so‘m daromadini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, 18 maktab daromadini ham xarajatini ham ko‘rsatmagan. 19-maktab esa yillik o‘rtacha daromadi va xarajatini 1,836,000 so‘m deb ko‘rsatmoqda. Xorazm viloyati bo‘yicha esa Xiva 8-maktab daromadini va xarajatini yillik o‘rtacha 3 mln. so‘m deb ko‘rsatmoqda, Bog‘ot 3-maktab esa 48 mln so‘m, Shovot 31-maktab esa daromadini 6 mln. so‘m xarajatini esa ko‘rsatmagan. Bu yerda Bog‘ot 3 maktabning Xiva 8 va Shovot 31-maktabga nisbatan daromad va xarajatdagi tafovutning kattaligi diqqat tortuvchi holat.

Diagramma 1. №3, 4 va 5 asosida Toshkent shahrida o‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirokchilarning maktab direktorlarining iqtisodiy va moliyaviy kompetensiya va javobgarligiga munosabati (foizda):



Ushbu diagrammada Shayxontohur tumanidagi 59-maktab va Yunusobod tumanidagi 235-maktablarda “ideal maktab direktori yaratilishiga” urunishganini ko‘rishimiz mumkin. 59 maktabda ishtirokchilarning 90 foizga yaqini direktorning iqtisodiy kompetensiyasi va moliyaviy bilim hisobdorligi borasida berilgan savollarga “har doim”, 235-maktabda esa 60 foizga yaqini “har doim”, 30 foizga yaqini “tez-tez” javoblarini belgilash orqali maktab direktorlarining “har doim” maktabning budjetdan tashqari qo‘shimcha manbalar topishida faol bo‘lishi va “har doim” yoki “tez-tez” daromad hamda xarajatlarda shaffof va hisobdorligini ko‘rsatishga urungan. Bu har qanday tadqiqotchida shubha uyg‘otishi tabiiy. Birinchidan, so‘rovnoma savollariga ishtirokchilar tomonidan obyektiv javob berilmagan. Ikkinchidan, daromad va xarajatlarga oid №1 va №2 so‘rovnomalarga javob berishda har ikkala maktab ochiq ma’lumot bermagan va yetarlicha qo‘shimcha daromad manbalarini ko‘rsata olmagan. Bu holatda qanday qilib ushbu maktablar qo‘shimcha daromadlar yarata olish va ularni sarf-xarajatlarida shaffof bo‘lish, oldi-

sotdi komissiyalarini tuzish, barcha daromad va xarajatlarda jamoatchilikka hisobdor bo‘lishi mumkin? Albatta, yo‘q. Shu bois, 5- va 235-maktablardagi so‘rovnoma natijalarining ishonchliligi juda pastdir. Bu maktab ma’muriyatlarining iqtisodiy va boshqaruv kompetentligini ham yaxshimasligini ko‘rsatadi. Boz ustiga, agar ushbu maktablarda so‘rovnomalarda ishtirok etganlar obyektiv baho berishdan qocharkan, maktab direktori bilan munosabatlarini yomonlashuvidan (so‘rovnoma anonim ko‘rinishda bo‘lsa-da) yoki ishdan haydalish kabi psixologik qo‘rquv va hadiklardan kelib chiqqan bo‘lsa, maktab direktori va o‘qituvchilar orasida jiddiy muammo borligini ham ko‘rsatadi. Masalan, 59-maktabda so‘rovnoma ishtirokchilarning ba’zilari moliyaviy hisobdorlik va shaffoligiga oid muhim so‘rovlarni ochiq qoldirgan, ya’ni belgilamagan.

118-, 160- va 328-maktablarda so‘rovnomada ishtirok etganlar nisbatan obyektiv baho bergan ko‘rinadi. Chunki, ishtirokchilarning 30-40 foizi maktab rahbariga nisbatan salbiy munosabat bildira olgan. Salbiy munosabat bildirganlarning oralarida maktab direktorining o‘rinbosarlari ham borligi taxsinga sazovor. Bu obyektivlikni yanada oshirgan. Ushbu maktablar daromadlari va xarajatlarida nisbatan shaffofligini va qo‘shimcha daromadlar yarata olganligini yuqorida ham ta’kidlab o‘tgandik. Ammo, ishtirokchilarning taxminan 30-40 foizlari ushbu maktablarning direktorlariga nisbatan maktabning sotib olish va sotish komissiyalarini tuzishi, barcha daromad va xarajatlarni hisobga olishi, maktab ustuvorliklaridan kelib chiqib xarajat va foydani tahlil qila olishi, tasarrufli bo‘lishi, xarajat va daromadlarda jamoatchilikka hisobdor bo‘lishi kabi so‘rovlarga “hech ham”, “juda kam”, javoblarini belgilagani, mazkur maktab direktorlarining ham iqtisodiy kompetensiyalarini yetarli emasligini, bu yo‘nalishda o‘qishi va qayta tayyorlanishi kerakligini bildiradi.

Xuddi shunday so‘rovnomalar Navoiy shahrida, Xorazm viloyatida o‘tkazildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasasi rahbarlarining iqtisodiy va moliyaviy bilimlari yetarli darajada emas va maktabning budjetdan tashqari qo‘shimcha manbalarini yaratishda faolligini oshirish lozim va moliyaviy hisob-kitoblarda, daromad va xarajatlarda shaffoflik masalasini, ayniqsa, maktab jamoasi bilan ochiq va konstruktiv ruhda, buni shakllantirishiga katta e’tibor qaratish kerak bo‘lmoqda. Albatta, ba’zi maktablar(118, 160, 18, 15, 8)da nisbatan shaffoflik mavjud va maktab uchun qo‘shimcha manbalar yaratishda faol ko‘rinadi. Ammo, qolgan maktablarda bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p. Shu bilan birgalikda, tadqiqotdagi barcha maktab ma’muriyatini iqtisodiy kompetentligini oshirish borasida biz tuzib chiqqan so‘rovnomalar asosida iqtisodiy moliyaviy bilimlar berish, ularni takomillashtirish, rivojlantirish uchun o‘qish va qayta tayyorlanishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 22-dekabr. – www.uza.uz.

2. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563-1582.

3. Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. 2015. № 8. С. 129-148.

Oybek ACHILOV,
"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI MURABBIYLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH (sport va harakatli o'yinlar misolida)

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarini murabbiylik faoliyatiga tayyorlash hamda talabalarni sport va harakatli o'yinlar orqali jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, sport va harakatli o'yinlar, sog'lom hayot, talaba, yoshlar, yo'nalish.

В статье рассматривается подготовка учителей физической культуры к тренерской деятельности и способы вызвать интерес учащихся к занятиям физической культурой через спортивно-подвижные игры.

Ключевые слова. Физкультура, спортивно-подвижные игры, здоровый образ жизни, студенты, молодежь, направление.

The article discusses the preparation of physical education teachers for coaching activities and how to arouse students' interest in physical education through sports and movement games.

Key words. Physical education, sports and movement games, healthy living, students, youth, direction.

Tarbiyaning turlari ko'p. Bularning tarkibidagi, yetuk shaxs shakllanishida eng muhimi jismoniy tarbiyadir. Kishi sog'lom bo'lsa, sog'lom fikrli va faqat jismonan emas, balki ma'nan ham ancha yetuk bo'ladi. Yoshlarni hayotga yo'naltirish, o'z kuchidan to'g'ri foydalanishiga ko'mak berish, ularni xalqqa, o'z tug'ilgan yeriga mehr-oqibatli qilib tarbiyalash barcha muallim va muallimalar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham bog'liq. So'nggi yillarda xalqni jismoniy taraflama, sog'lom hayot tarziga tayyorlash bo'yicha juda ko'p va xo'p qarorlar chiqyapti, yana ko'plari amaliyotga joriy etilyapti. Quyidagilar, jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari etib belgilanishi aytib o'tildi:

– jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

– davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizga yetkazish;

– joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– O'zbekiton Respublikasi Turizm va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari orasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni

aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish;

– aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarni aniqlash maqsadida "Umumta'lim maktab sporti" festivali, "Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa" ko'rik tanlovini bosqichma-bosqich (tuman, shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominatsiyasini joriy etish;

– 2020-yildan boshlab sport sohasida "Tashkent Marathon" xalqaro marafoni, "Save Aral" xalqaro ekomarafoni, avtoralli va motocross sport musobaqalarini tizimli o'tkazish orqali sport turizmini rivojlantirish;

– aholining barcha qatlamlari orasida "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sinovlarini o'tkazishni joriy etish;

– sport turlari bo'yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sport sohasida samarali tibbiy va farmakologik ta'minotni yo'lga qo'yish;

– sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmini joriy etish;

– 2020-yil 1-fevraldan boshlab bosqichma-bosqich olimpiya sport turlari bo'yicha respublika sport musobaqalarida doping-test namunalarini olish tizimini joriy etish;

qishki Olimpiya sport turlari infratuzilmasini yaratish, ushbu sport turlarini ommaviylashtirish orqali professional sportchilarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va h.k.;

Bundan kelib chiqadiki, qaror aholining har qatlami, hatto, chekka qishloq tumanlarini ham qamrab olishga mo'ljallangan.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi har bir mavzuning ahamiyatini ko'rsatishi va aniqlashi, o'quvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishi hamda bilimlar, mavzularni muntazam ravishda o'rgatishi juda muhimdir. Talabalar amaliy ishlarini hayotga joriy etish uchun nazariy bilimlarni egallashi, o'qitishning pirovard maqsadi to'g'risida bir daqiqa ham unutmaslik ehtiyojini hosil qilishi zarur. O'qituvchilar talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishlari, jismoniy tarbiyada qo'llaniladigan uslublar bo'yicha so'nggi ma'lumotlar bilan qurollangan bo'lishlari kerak. O'qituvchi talabalarga jismoniy tarbiya va sport masalasi oddiy masala emasligini, balki insonni har tomonlama rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini, birinchi navbatda, uning mehnat faoliyati, Vatanni himoya qilish vositasi ekanligini tushuntira olishi, o'quvchilarni kasbiy amaliy tayyorgarlik ishlarining uslublari va shakllari to'g'risidagi bilimlar bilan ta'minlashi zarur. Bunda talabalarning o'z kasbiga qiziqishi juda muhim.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida talaba quyidagilarni o'rganishi kerak:

– yuklama me'yorini bilish, jismoniy tarbiyaning aniq vazifalarini yechish uchun shakl va uslublarining vositalarini tanlash;

– ishning asosiy rejalarini tuzib chiqish va jismoniy tarbiyaning har xil zvenolarida uni hisobga olib borish;

– talabalarning o'rganish natijalarini aniqlash, ularning muvaffaqiyatlarini baholash,

uyg‘unlashtirish va shug‘ullanuvchini mustaqil ishlarga yo‘naltirish;

– o‘quv-tarbiya muassasalarining ishlarini nazorat qilish;

– ommaviy tadbirlar rejasi, musobaqalar to‘g‘risida nizom ishlab chiqish, ularni amalda o‘tkazish va uyushtirish;

– maktab o‘quvchilari bilan jismoniy tarbiya sohasida olib boriladigan ishlar sifatini oshirish maqsadida bolalar ijtimoiy tashkilotlari, oila va maktab kuchlarini birlashtirish;

– o‘rgatish texnikasiga oid o‘ziga xos moslamalar va vositalardan foydalanish;

– yangi pedagogik texnologiya asoslarini o‘zlashtirish va ularni amalda qo‘llash.

Barchamizga ma’lum, shuncha qaror chiqishiga qaramay maktablarda jismoniy tarbiya fanlari o‘quvchi qizlarga qo‘l to‘pi va bolalarga futbol o‘yinlarini o‘ynatish bilangina cheklanib qolayotgan edi. Taassufki, bu hol ba’zi joylarda hamon davomiyligini yo‘qotayotgani yo‘q. Har tomonlama malakali kadrlarni yetishtirish davlatni ma’nan boy qiladi. O‘quvchi jismoniy tarbiya fanidan ilg‘or bo‘lsa, qolgan fanlardan ham bu harakatchanlikni va energiyani ko‘rsata oladi. Buning uchun uni kerakli tarafga yo‘llay bilish lozim. Bu murabbiydan anchagina kasb salohiyatini talab qiladi. Maktablarning ahvoli, undagi sharoitlarni ham e’tibordan qoldirmasak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. 2019-yil 4-sentabrda Shavkat Mirziyoyev raisligida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xalqaro musobaqalarga tayyorgarlikni kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda O‘zbekistondagi aksariyat maktablarda sport zallari yetishmasligi va bori ham qoniqarsiz ahvolda ekanligi tanqid qilingan edi. Prezidentimiz “Bunday ahvolda sportni qanday qilib ommalashtirish mumkin”, deya savol qo‘ygan. Hamda bir qancha topshiriqlar berilgan. Islohotlar hamon amalga oshirilmoqda. “2245 ta maktabda sport zali mavjud emas” sarlavhali maqolalarga ham munosib javoblar bildirilgan. Bizda “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lur”, - deyilishi bejiz emas. Dars uchun qulay sharoit bor bo‘lsa, har qanday malakali kadr bajonidil, darsini zo‘r qiziqish bilan o‘tadi. Agar aksi bo‘lsa, kadr har qancha malakali bo‘lmasin, o‘z darsidan qoniqish hissini tuyolmaydi.

Eng qadimiy harakatli o‘yinlar faqat mehnatga hamda uy-ro‘zg‘or ishlariga xos narsalarni aks ettirgan xolos. Keyinchalik, bu tushunchalar anchagina kengaytirilib, uning keng miqyosda mazmuni boyitib berila boshladi. Mehnatga taqlid qilish harakatli o‘yinlari, ko‘rinishi bo‘yicha, juda erta jismoniy tarbiya vositasi kabi obyektiv hayotiy manba sifatida qo‘llana boshlanganligi aniq. Binobarin, jamiyatni rivojlantirish bilan o‘ziga xos va mos talablar paydo bo‘la boshladi. Ya’ni, harakatli o‘yinlarni boshqacha shakllariga o‘tkazish hayajonliroq yana ham jonliroq o‘tkazishga to‘g‘ri keldi. Bolalarni kollektivchilik, mehnatsevarlik va jamoa oldida o‘z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalari hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo‘ygan birinchi kundan boshlaboq unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg‘otish, uyushqoqlik, ishchanlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi xususiyatlarni shakllantirish lozim. Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, jumladan, bolalarning sevimli o‘yinlaridan foydalanish ayni muddaodir.

Ma’lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlari taqlid qilishdan iborat bo‘ladi. Ular atrofni kuzatadi, har yerga bir-bir bosh suqib chiqadi. Undagi ba’zi narsalarni o‘yinga kiritadi va shu o‘yin vositasida o‘zini qurshab turgan olamni bilib oladi. Kitobda bayon etiladigan o‘yinlar, chunonchi, yurish, yugurish, sakrash, irg‘itish, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bola harakatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘yin haqida bolalar ensiklopediyasida quyidagicha ta’riflanadi: “Qachonlardir,

o‘tmishdoshlarimiz ov yoki jangga jo‘nashdan oldin, jangovor raqs va o‘yinlar tashkil etishgan. Nishonga olishda, chaqqonlik va kuch sinashda musobaqalar uyushtirishgan. Bunday mashqlar ularga dushman ustidan g‘alaba qozonishga ham yordam bergan. Siz katta bo‘lganingizda, kim bo‘lishingizdan qat’i nazar – shifokor yoki shofyormi, operator yo konstruktormi, o‘qituvchi yoki sinovchi-uchuvchimi, foydali, xushchaqchaq, qiziqarli o‘yinlarga albatta zarurat sezasiz”.

Hozirgi kunda o‘yinlar ikki turga ajratiladi:

1. Harakatli o‘yinlar.
2. Sport o‘yinlari.

Yugurishning har xil turlari, sakrash, uloqtirish va boshqa harakatlardan tashkil topgan o‘yinlar harakatli o‘yinlar deb ataladi. Pedagogik amaliyotda harakatli o‘yinlarning ikkita asosiy turi qo‘llaniladi:

1. Ozod, ijodiy yoki erkin o‘yinlarda. O‘yin qatnashchilari o‘zlari o‘yin rejasini belgilaydi va belgilangan maqsadni o‘zlari amalga oshirishga harakat qiladilar. Go‘daklarda, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda ko‘pincha ular syujetli bo‘ladi. Rollar syujetga bog‘liq holda taqsimlanadi. Shuning uchun psixologlar ularni rolli deb ataydi. Ular yakkalik va guruhli bo‘lishi mumkin.

2. O‘rnatilgan qoida asosida tashkillangan harakatli o‘yinlar. U rahbarlikni yoki bolalarning o‘z sardorlari bo‘lishini talab etadi. Ular mazmuni va murakkablik darajasiga ko‘ra juda rang-barang:

A) Oddiy, jamoasiz harakatli o‘yinlar. Bunda, har bir qatnashchi qoidaga rioya qilgan holda o‘zi uchun kurashadi. Barcha o‘yin faoliyati boshqalar ustidan tezlik, kuch, chaqqonlik kabi sifatlar orqali shaxsiy ustunlikka erishishga yo‘naltirilgan. Bu o‘yinlarda shaxsiy tashabbus ko‘rsatish ustunlik qiladi;

B) Nisbatan murakkab, jamoaga o‘tish harakatli o‘yinlar, o‘ynovchilar, birinchi navbatda, o‘z qiziqishlarini himoya qiladigan, lekin ba’zan, shaxsiy xohishiga ko‘ra o‘rtoqlariga yordam beradi, ularga ko‘maklashadi. O‘yinda hujumchidan saqlanish – qutulishga yordam beradi. (Bog‘lash-qo‘lni berish-asir bilan qochib o‘tish) Ba’zan o‘ynovchi maqsadga erishish uchun boshqa o‘ynovchilar bilan vaqtincha hamkorlikka kirishishi mumkin. Ayrim o‘yinlarda bunday hamkorlik, hatto, qoidalarda nazarda tutilgan (Oq ayiq-bo‘ri va qo‘ylar);

V) Jamoali harakatli o‘yinlarda o‘ynovchilar alohida jamoa guruhlarni tashkil qiladi. Ular jamoaning umumiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatini ifodalaydi. Barcha shaxsiy qiziqishlar o‘z jamoasi qiziqishlariga bo‘ysundirilgan har bir o‘ynovchi faoliyati barcha jamoa muvaffaqiyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, shaxs rivoji uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta. Jismonan ham ma’nan yetuk insonlarni ko‘paytirish albatta bu fan murabbiylariga bog‘liq. Shunday ekan kelajak kadrlarini munosib tarbiyalaylik va mos bilim beraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. –T.: ITA-PRESS, 2014. –296-b.
2. kun.uz
3. zarnews.uz

Normurod ROZIQOV,
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINING SPORT SOG‘LOMLASHTIRISH FAOLIYATIDA OMMAVIY SPORTNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada oliy o‘quv yurti talabalarining sport sog‘lomlashtirish faoliyatida ommaviy sportni takomillashtirish hamda yanada rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash va uni hayotga tatbiq qilish to‘g‘risida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Sport, rivojlantirish, tatbiq qilish, natijaga erishish, jismoniy barkamollik, yuqori malaka, sport musobaqalari.

В статье описано применение и внедрение технологий совершенствования и дальнейшего развития массового спорта в спортивной деятельности студентов вузов.

Ключевые слова. Спорт, развитие, применение, результаты, физическая подготовка, высокая квалификация, спортивные соревнования.

The article describes the application and implementation of technologies for the improvement and further development of mass sports in the sports activities of university students.

Key words. Sports, development, application, results, physical fitness, high qualification, sports competitions.

Sport – inson jismoniy barkamolligini ta’minlovchi vosita bo‘lib, bir xil shakldagi jismoniy mashqlar va harakatlar majmuidir. Shuningdek, bir turdagi jismoniy harakatlar bo‘yicha yuqori malakaga hamda yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat. Sportning maqsadi va vazifasi sportchilarni sport turiga muvofiq harakatlar texnikasi va taktikasini shakllantirish, umumiy va maxsus tayyorgarlik, sport tayyorgarligi, jismoniy va nazariy tayyorgarlikni ta’minlash hamda sport turi bo‘yicha yuqori malakali sportchi tayyorlashdir.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab yoshlarning jismoniy-intellektual resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va tashkiliy shart-sharoit yaratish imkoniyatlari ham paydo bo‘ldi. Mustaqillik tufayli xalqimizning ko‘p tarixga ega milliy sport o‘yinlari ham qayta tiklandi va u xalqaro miqyosda, xalqaro maydonlarga olib chiqildi. Milliy sport o‘yinlari mustaqilligimizdan bir yil o‘tib boshandi, festivallar o‘tkazildi. Jumladan, 1999-yildan “To‘maris” milliy sport musobaqalari ham ayol-qizlar o‘rtasida o‘tkazildi. Mamlakatimizda Jismoniy tarbiya va sportni kompleks rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori 1999-yilda qabul qilindi. Unga binoan, “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi konsepsiyasi” tasdiqlanib, uning asosiy yo‘nalishi sifatida quyidagilar qabul qilindi:

1. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish.
2. Jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlarini

rivojlantirish.

3. Jismoniy tarbiya hamda sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta’minlash.

4. Jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish.

5. Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilish.

6. Jismoniy tarbiya sport sohasida mablag‘ bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish, nodavlat sektorini rivojlantirish.

Dastur tadbirlari asosida “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriridagi loyihasi ishlab chiqilib, 2000-yilda Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi:

– Toshkent shahrida boksni, milliy sport turlarini rivojlantirish, Shahrisabzda esa, kurashni rivojlantirish respublika markazlari tashkil etildi;

– aholining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beradigan “Alpomish” va “Barchinoy” testlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi;

– mamlakatimizdagi barcha sport inshootlari ro‘yxatdan o‘tkazildi;

– viloyat markazlarida olimpiya zaxiralari kollejlari ishga tushira boshlandi.

Mamlakatimizda yoshlarning jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni oshirish, joylarda bolalar, o‘smirlar sportini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining mashg‘ulot darslari va sport to‘garaklari talabalarni insonparvarlik ruhida, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashda ijtimoiy fanlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. U har bir talabaning o‘z kasbini egallashga jismonan tayyorlanishiga, shaxs sifatida shakllanishida muhim bir vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga u sog‘liqni mustahkamlash omili bo‘lib, talabaning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya oliy o‘quv muassasalari dasturiga fan sifatida 1928-yilda kiritilgan. Ungacha mutaxassislar qisqa 3 oylik kurslarda tayyorlangan.

1921-yilda Farg‘ona va Toshkent shaharlarida jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni ko‘zda tutib, 3 oylik kurslar ochilgan, shu yili bu kurslarni 60 kishi tugatdi.

1926-yilda jismoniy tarbiya yo‘riqchilarini (instruktor) tayyorlaydigan 3 oylik kurslar ochilib, o‘sha yilning o‘zida ularni 30 kishi bitirib chiqdi.

1929-yilning noyabr oyida O‘rta Osiyoda xalq xo‘jaligini tezda yuksaltirish va bu o‘lkada mutaxassislar kamligini hisobga olib, mamlakatning sharqida birinchi Oliy texnika o‘quv muassasasi, O‘rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya-politexnika instituti, hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti tashkil etildi.

1933-yilda jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash uchun Samarqand shahrida bir yillik kurs ochildi.

1935-yilda Yo‘ldosh Oxunboboyevning farmoniga muvofiq birinchi jismoniy tarbiya texnikumi ochilib, shu yili bu o‘quv maskaniga 100 kishi qabul qilindi.

1949-yilda Toshkent Davlat muallimlar tayyorlash instituti qoshida birinchi marta oliy malakali jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash bo‘limi ochildi.

1954-yilda Farg‘ona, Nukus va Andijon Davlat muallimlar oliygohida jismoniy tarbiya fakultetlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

1955-yilda O‘zbekiston (Toshkentda) jismoniy tarbiya texnikumi negizida O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti tashkil topdi.

Jismoniy tarbiya va sport talabalarning kun tartibidan muhim o‘rin olgan o‘quv muassasalarida, talabalar turar joylarida sport to‘garaklari ishlab turibdi. To‘garaklarni yuqori malakali jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport ustozlari boshqarib borishadi.

Bu o‘quv muassasalarida talaba, o‘quvchilar, o‘qituvchi va sport ustozlari boshchiligida jismoniy tarbiya, sport bilan amaliy shug‘ullanishdan tashqari ilmiy izlanish ishlarini ham olib borishadi.

Normuradov A., Morgunov I va Suxova Y.lar tomonidan ToshDShI talabalari bilan olib borilgan imiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, reyting-sinovlari topshirish davrida talabalar organizmining funksional holati susayarkan. Bu holatni tez va jadal tiklash uchun jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari katta yordam berishini ko‘rdik. Oliy o‘quv muassasalarida talabalar bilan semestr paytida ko‘pincha jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi. Buning asosiy sababi ilmiy asoslangan tavsiyaning yo‘qligidir.

Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo‘lib,yosh avlodning sog‘ligi, jismonan yetukligi, ijtimoiy faolligi, axloqan sog‘lom o‘suvchi avlodni shakllantirishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan bir tarbiyaviy vositadir. Jismoniy tarbiya jarayonida organizm funksional va morfologik takomillashtiriladi, harakat ko‘nikmalari, jismoniy harakat sifatlari: chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamkorlik maxsus bilim va ko‘nikma bilan shug‘ullanadi.

Jismoniy madaniyat – yangi jamiyat quruvchilari, yetuk shaxslarni har tomonlama tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositalari bilan birga sport va madaniyatning maxsus vosita, uslublarini aniq maqsadga yo‘naltirish orqali insonni jismoniy takomillashtirishni o‘z ichiga oladigan maxsus tadbirlar majmuasidir.

Jismoniy madaniyat – umumiy madaniyatning bir qismi bo‘lib, uning rivoji jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga bog‘liqdir. Jismoniy taraqqiyot inson organizmining o‘sishi bilan, uning shaklan o‘zgarishi va davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayondir. U obyektiv, biologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu qonunlardan asosiysi organizm va muhit taraqqiyotining birlik qonuni hisoblanadi. Sport – madaniyatning bir shakli. Jamiyat madaniy faoliyatining bir turi. U jismoniy taraqqiyot va inson qobiliyati bilan bog‘liq boshqa xususiyatlarni ham amalga oshiradi.

Jismoniy tarbiya fani “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi”ning 1990-yil 3-avgustdagi 183-sonli buyrug‘iga, (1992-yil 14-yanvar) O‘zbekiston Respublikasining qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri 2000-yil 26-may) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yilning 26-mayidagi 271-sonli qarori (yangi tahriri 2005-yilning 26-mayi) asosan OTMlarida umumiy majburiy mashg‘ulot sifatida 1-2-kurslarda kamida 4-6 soatdan belgilangan.

Biroq hozirgi paytda OTV o‘quv rejasida “Jismoniy tarbiya” faniga umumiy 234 soat, undan 120 soati amaliy mashg‘ulotlarga, 108 soati mustaqil ishlarga va 6 soati reyting testlar topshirishga ajratilgan, xolos. U yarim yillik va o‘quv yilining oxirida test sinovlari bilan yakunlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– o‘quv mashg‘ulotlarini (amaliy) Oliy ta’lim muassasasining o‘quv rejasida asoslangan holda o‘tkazish, bundan tashqari talabalarning xohishiga ko‘ra sportning har xil turlari bilan sport to‘garaklarida shug‘ullanish;

– ommaviy sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport anjumanlari, tadbirlarida qatnashish;

– jismoniy tarbiyaning bunday xilma-xil shaklda olib borish yoshlar organizmining bir me’yorda ishlashi uchun ko‘rilgan chora-tadbirlarga kiradi;

– talabalarda harakat faoliyatining davomiyligi haftada 12-16 soat bo‘lishini taqozo qiladi.

Institutlardagi ta’lim dasturi shaxsning o‘quv jarayonida o‘quv-tarbiya, jamoat ishlari bilan birga jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga bo‘lgan

ehtiyojini qanoatlantirmaydi. Talabalar o‘qish davomida jismoniy tarbiya va sport faoliyati shakllari bilan tanishib chiqadi. Talabalar jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanganda, o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

– o‘z sog‘ligini mustahkamlash,har tomonlama jismonan rivojlanish,jismoniy harakatlarni tarbiyalash, organizmining kasallikka bardoshliligini, mehnat unumdorligini oshirish;

– aql-idrok faoliyatini faollashtirish va toliqishni yengishga qaratilgan vositalarni topish.

O‘zbekiston sharoitida gigiyenik gimnastika mashqlarini ochiq havoda o‘tkazish ijobiy natija beradi.

Gigiyenik gimnastika mashqlarni tuzishda uning qancha vaqt davom etishini va ularning turini aniq tartibda belgilab olish lozim bo‘ladi. Bu mashqni bajarishdan oldin gantel, tosh, shtanga vazni shug‘ullanuvchilar kuchiga qarab belgilanadi. Shu tariqa har bir mashg‘ulot 10-15 daqiqa davom etadi.

Ommaviy sog‘lomlashtirishda Jismoniy tarbiya va sport ishlari oliy o‘quv muassasalarida o‘qish davrida, o‘qishdan tashqari vaqtlarda, bayram, dam olish kunlarida, amaliy ishda, talabalar turar joyida ta’til kunlari, talabalarni yozdagi ish faoliyatida ham muntazam olib boriladi. Ular gigiyenik, umumiy tayyorgarlik, sport va davolash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi mumkin.

Ommaviy sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport ishlari, talabalar sport klublari tomonidan umumiy jismoniy tarbiya xodimlari, jismoniy tarbiya kafedra o‘qituvchilari, yoshlar harakati, kasaba uyushmasi tashkilotlarining faol qatnashishlariga tayangan holda olib boriladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda fakultet sport kengashi asosiy rol o‘ynaydi. Kengash bu ishlarni rejalashtiribgina qolmay, balki oliy o‘quv muassasasida talabalarni shu ishga tayyorlaydi, tashkilotchilik ishlarini olib boradi, jamoa a’zolarini yig‘ib, turli musobaqalarga tayyorlaydi va musobaqalar uyushtiradi. Bundan tashqari, sport-sog‘lomlashtirishga, sog‘lom turmush tarziga oid ma’ruzalar, suhbatlar, kechalar, ko‘rgazmalar, devoriy gazetalar, rekordchilarning ro‘yxati, guruh, kurs, fakultet, oliy o‘quv muassasasi va talabalarning yutuqlarini e’lon qilib borish shartlarini bajaradi.

Sport kengashining moliyaviy ishlarini, asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta’minlashni fakultet kasaba uyushmasi qo‘mitasi, sport klubi va dekanatlar o‘z zimmasiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurodov A. Jismoniy tarbiya. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi tomonidan bakalavriat ta’lim yo‘nalish talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. TAFAKKUR-BO‘STONI nashriyoti. –T., 2011-y.
2. Lex.uz sayti

Isajan MIRZAKULOV,
Toshkent davlat transport universiteti v.b. dotsenti

BELBOG‘LI KURASHNING O‘QUV FANI SIFATIDA QABUL QILINISHI VA TUZILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Belbog‘li kurashning o‘quv fani sifatida Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi, ularning Milliy kurash texnikasi usullari borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash, kurash taktikasini yetarli darajada o‘rgatish shuningdek, mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi-trenerning talabalar bilan ishlash usullarini oshirish borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Belbog‘li kurash, sport snaryadlari, gimnastik snaryadlar, qadoq toshlaridan unumli foydalanish, material, shakli va vositalari.

В данной статье предусмотрена практическая подготовка студентов высших учебных заведений как предмета борьбы на поясах, дальнейшее закрепление их знаний и умений в приемах национальной борьбы и адекватное обучение тактике борьбы, а также В ходе занятия проводится рассказать о повышении квалификации педагога-тренера в работе со студентами.

Ключевые слова. Борьба на поясах, спортивные снаряды, гимнастические снаряды, эффективное использование упаковочных камней, материалов, форм и инструментов.

This article provides practical training among students of higher education institutions as a subject of belt wrestling, further strengthening their knowledge and skills in the methods of national wrestling techniques and adequate teaching of wrestling tactics, as well as In the course of the lesson there is a talk about improving the skills of the teacher-trainer in working with students.

Key words. Belt wrestling, sports shells, gymnastic shells, effective use of packing stones, materials, shapes and tools.

Oliy ta’limning fundamentalligi real dunyodagi jarayonlar, obyektlar va hodisalar orasidagi munosabatlarni ajrata olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda asos sifatida qabul qilingan. Davlat ta’lim standartlari tayyorlanayotgan kadrlarning ko‘nikma va malakalariga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu talablar zamonaviy sharoitlardan bevosita kelib chiqqan bo‘lib, ularning maqsadi ta’lim olayotgan yoshlardan milliy intellektual elitani shakllantirishdan iborat. Gumanitar ta’lim yo‘nalishlari uchun qo‘yilgan malaka talablari ichida kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi faniga doir talablar alohida o‘rin tutadi. Bu esa o‘quv rejalarda o‘z ifodasini topdi. Ushbu dasturda jismoniy tarbiya darslarida kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, turkumlari, tasnifi, milliy kurash texnikasi va taktikasini o‘rgatish, milliy kurash darslarini tashkil qilish va o‘tkazish metodlari hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini qamraydi.

Davlatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mamlakatimizda barkamol avlod, yoshlarni har tomonlama yetuk va intellektual salohiyatli qilib voyaga yetkazishga ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratildi. Ta’lim tizimidagi keng ko‘lamli islohotlar “Ta’lim

to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va qator muhim hujjatlar hayotga bosqichma-bosqich tadbiq etilib, sohaning barqaror sur’atlar bilan rivojlanishida, ta’lim samaradorligining oshib borishida mustahkam omil bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”da yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish kerakligi ko‘rsatilgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – kurash fani talabalarga kurashni o‘qitish uslubi va nazariy bilimlarini o‘rgatish, milliy kurash texnikasi va usullari haqida nazariy bilim, amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini egallash, o‘rganish, kurash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish uslubiyotini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida milliy kurash vositalaridan samarali foydalanib o‘qitish, barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalar bilan o‘quv mashg‘ulotlari ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida o‘tkaziladi. Shu mashg‘ulotlar jarayonida O‘zbekiston Respublikasida kurash turlarining rivojlanish tarixini o‘rgatish, O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida kurash turlarini o‘rni, kurash mashg‘ulotlarida umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarni o‘rgatish, kurash mashg‘ulotlarida shikastlanishning oldini olish, kurashning muayyan turi texnikasi qoidalarini o‘rgatish, kurash turlari texnikasi, usullarini o‘rgatish, kurash turlari mashg‘ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash, ularning jihozlanishini o‘rganish, kurash turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish, o‘tkazish, shuningdek, musobaqa hujjatlarini yuritish, hamda hakamlik qilish, bolalar sportida kurashning o‘rni, milliy kurash mashg‘ulotlarining ayrim xususiyatlari kabi vazifalarni amalga oshirish bilan birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakasiga quyidagi talablar qo‘yiladi. Talaba:

– kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari;

– kurash turlarining rivojlanish tarixi;

– O‘zbekiston Respublikasida kurash turlarining rivojlanish tarixi;

– O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida kurash turlari;

– kurash mashg‘ulotlarida umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar;

– kurash mashg‘ulotlarida shikastlanishning oldini olish;

– kurash turlari mashg‘ulotlari uchun sport inshootlarini tanlash va ularning jihozlanishi haqida bilimlarga ega bo‘lishi kerak;

– kurashning muayyan turi texnikasi va qoidalarini o‘rgatish;

– kurash turlari texnikasi va usullarini o‘rgatish;

– kurash turlari usullarini amalda qo‘llay olish;

– kurash turlari texnikasini bajara olish;

– bolalar va o‘smirlar bilan sport kurashi bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkaza olishi haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak;

– kurash turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi;

– bolalar sportida kurashning o‘rni;

– kurash turlari texnikasi va usullarini o‘rgatish metodikasi;

– kurash turlari usullarini amalda qo‘llay olishni o‘rgatish metodikasi;

– kurash turlari texnikasini bajara olishni o‘rgatish metodikasi;

– kurash mashg‘ulotlarining ayrim xususiyatlari to‘g‘risida malakalarga ega bo‘lishi

lozim.

Belbog‘li kurashda o‘quv-ta’lim mashg‘ulotlari dars shaklida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlovchi to‘rt – qismdan iborat.

Kirish qismi (4-5 daqiqa).

Vazifalar: guruhni tashkil qilish, saflash, mashg‘ulot vazifasini tushuntirish, guruhni bo‘lajak ishga tayyorlashdir.

Vositalar: turganda va harakatda sof mashqlarni bajarish turlicha yo‘nalishda yurish va yugurish, diqqat-e’tiborni o‘stiruvchi mashqdir.

Tayyorlash qismi (20-25 daqiqa).

Vazifalar: jismoniy qobiliyatlarni tayyorlashga yordamlashish, UJT – umumiy jismoniy tayyorgarlik, MJT – maxsus jismoniy tayyorgarlik, talaba organizmini darsning asosiy qismiga tayyorlash.

Vositalar: umumrivojlantiruvchi va amaliy – qo‘shimcha mashqlar, harakatli o‘yinlar va etasfetalar, predmetli mashqlar, gantellar, gimnastika tayoqchalar, sakrash arg‘imchoqlari, to‘plar, qadoq toshlar, akrobatik mashqlar, gimnastika devori, halqalar, arqon, batut, maxsus mashqlar, bo‘yin muskullarini mustahkamlovchi, teskari bajariluvchi va to‘p bilan bajariladigan mashqlar, o‘rgangan mashqlarni taqlid qilib takrorlash, raqibni ushlab tortish, kurashda sherikni belbog‘idan ushlab tortish, oyog‘iga tashlash, ilib tashlash, qoqma usullarni bajarish.

O‘qituvchi-trener yangi o‘rganuvchilar bilan shug‘ullanganida asosan umumrivojlantiruvchi mashqlar berib borishi, yuqori malakali polvonlar bilan ishlaganda ko‘proq, maxsus rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanishi lozim. O‘qituvchi-trener ko‘pgina har xil mashqlarni tanlar ekan, ularning organizmiga beradigan ta’sirini bilmog‘i lozim.

O‘qituvchi-trener badanni qizdiruvchi mashqlarni olib borganida ommaviy turdagi sport snaryadlaridan, gimnastik snaryadlardan va qadoq toshlaridan unumli foydalanishi zarur. Qisqasi mashg‘ulotning tayyorlov qismida qo‘llaniladigan material uning shakli va vositalari doimo yangilanib turishi kerak, chunki bir xilda o‘tkaziladigan mashg‘ulot qiziqishni so‘ndiradi.

Asosiy qism (40-45 daqiqa).

Vazifalar: kurash texnika va taktikasini o‘rganish hamda takomillashtirish, mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchilar umumiy va maxsus jismoniy sifatlarini o‘stirish, uning tayyorgarlik malakasini oshirish.

Vositalar: maxsus mashqlar, sherik bilan birga kurashish texnikasi va taktikasini o‘rganish hamda takomillashtirish, o‘quv bellashuvlar. Bunda tayyorlash qismida qo‘llaniladigan materiallardan tashqari, boshqa sport turidagi vositalardan ham foydalanish mumkin.

Yakunlovchi qism (5-10 daqiqa).

Vazifalar: sekin yurish, charchoqni yo‘qotishga yordamlashuvchi mashqlar, saf mashqlari, qoidaga muvofiq mashqlar uyushqoqligi vaziyatida tugallanishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi-trener guruhini saflaydi, mashg‘ulot nihoyasida har bir talabaning yutug‘i va kamchiligi to‘g‘risida o‘z mulohazasini aytadi. Uyda bajarish uchun topshiriqlar, ertalabki badantarbiya, jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha mustaqil shug‘ullanishiga oid ko‘rsatmalar beradi.

Dars qismi	Darsning qisqacha mazmuni	Mashqlar soni	U.M.K.
Tayyorlov qismi 20-25 daqiqa	Bir qatorga talabalarni saflash va ro‘yxatdan o‘tkazish. Dars mazmuni bilan tanishtirish.	1 marta	Bir tekisda tartib bilan bajarish
	U.R.M.		
	I. Boshlang‘ich holat, oyoqlar yelka kengligida: 1-chuqur nafas olib, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib, nafasni to‘liq chiqarib, qo‘llarni pastga tushiramiz;	3-4 marta	Guruh 3-4 qatorga saflanib bajarish
	II. B.H. Oyoqlar yelka kengligida: 1-boshni oldiga, orqaga egish; chapga o‘nga burish; 2-boshni o‘ng tomonga 2 marta chap tomonga, 2 marta aylantirish;	4-5 marta	Sekin-asta bajarish
	III. B.H. 1-barmoqlarni, bilaklarni, tirsaklarni aylantirib, qizdiramiz	4-6 martadan	Sekin-asta tezlashtirilgan holda bajarish
	IV. B.H. 1-qo‘llarni bukgan holda yelkaga qo‘yamiz; 2-oldiga 4 martadan; 3-orqaga 4 martadan aylantiramiz;	4-6 marta	Nafasni bir tekisda olib, chiqarib bajarish
	V. B.H. Ikki qo‘l tepada: 1-oldiga 4 marta; 2-orqaga 4 marta aylantiramiz;	4-8 marta	Qo‘llarni bukmasdan katta ampletudada aylantiramiz
	VI. B.H. O‘ng qo‘l tepada, chap qo‘l pastda: 1-o‘ng qo‘lni oldi tomonga 2 marta qaytaramiz; 2-chap qo‘lni orqa tomonga 2 marta qaytaramiz;	6-8 marta	Qo‘llarni bukmasdan bajaramiz
	VII. B.H. Qo‘llar bukilib ko‘krak oldida: 1-ikki marta qo‘llarni oldiga, orqaga qaytarib; 2-o‘ng tomonga burilib, qo‘llarni 2 marta to‘liq yozish; 3-chap tomonga burilib, qo‘llarni 2 marta to‘liq yozish;	6-8 marta	Qo‘llarni bukilib, tirsaklar orqali to‘liq bajarilishi kerak
	VIII. B.H. Qo‘llar belda: 1-chap tomonga 2 marta egilish; 2-o‘ng tomonga 2 marta egilish;	6-8 marta	Nafas bir tekis olish
	IX. B.H. Qo‘llar belda: 1-belni o‘ng tomonga aylantiramiz; 2-belni chap tomonga aylantiramiz;	6-8 marta	Belni toz bilan qo‘shib aylantirish
	X. B.H. Qo‘llar belda: 1-belni oldinga egilgan holatda o‘ng tomonga katta amplitudada aylantiramiz; 2-belni oldiga egilgan holatda chap tomonga katta amplitudada aylantiramiz;	6-8 marta	Katta ampletudada mashqni bajaramiz

Tayyorlov qismi 20-25 daqiqa	XI. B.H. Oyoqni kengroq ochgan holda: 1-belni oldiga egib, qo‘lni oldiga bukib egilish; 2-o‘ng oyoqqa egilish; 3-o‘rtacha egilish; 4-chap oyoqqa egilish (naklon) va turgan holatga qaytarish;	6-8 marta	Oldinga egilganda tizzalarni bukmasdan bajarish kerak
	XII. B.H. Oyoqlarni kengroq kerib egilgan holatda: 1-charxpalakga o‘xshab aylantiramiz; 2-qo‘llar bilan birga boshni ham buramiz; 3-sekin asta ko‘tarilib boramiz, boshlang‘ich holatga qaytamiz.	6-8 marta	Yelka va boshni bir tekisda buramiz
	XIII. B.H. Oyoqlar yelka kengligida: 1-o‘ng oyoqni chap qo‘l uchiga ko‘taramiz; 2-chap oyoqni o‘ng qo‘l uchiga ko‘taramiz;	6-8 marta	Borgan sari tezlikni oshirib boramiz
	XIV. B.H. Oyoq yelka kengligida: 1-qo‘llarni oldiga bukgan holda o‘ngga buramiz; 2-oyoqlarni chapga buramiz (nasochka);	6-8 marta	
	XV. B.H. 1-o‘ng oyoqni oldiga chiqarib, tizza bilan bukib, chap oyoqni orqaga qilib, 4 martadan tizzalarni oldiga egamiz; 2-oyoqlarni almashtiramiz (rastyajka);	8-10 martadan	Bir xil tezlikda bajaramiz
	XVI. B.H. Qo‘llar oldinda: 1-ikki oyoqni kengroq kerib, har bir oyoqqa o‘tirib, chapdan o‘ngga o‘tamiz;	8-10 marta	O‘tgancha pastroq o‘tamiz
	XVII. B.H. Qo‘llar oldinda: 1-o‘tirib turamiz;	20 marta	Nafasni bir tekisda olamiz
	XVIII. Chuqur nafas olib chiqaramiz.	3-4 marta	Qo‘llarni tepaga ko‘tarib, pastda bo‘sh qilib tushuramiz
Asosiy qism 40 – 45 daqiqa	I. Akrobatik mashqlar bajariladi: 1. Oldinga dumaloq oshish; 2. Orqaga dumaloq oshish; 3. Chap va o‘ng yelka bilan straxovka qilish; 4. Ikki yelka bilan straxovka qilish.	2-3 marta	Nafasni bir tekisda olgan holda ikki tomondan qaytish
	1. Yonbosh usulini o‘rganish 1. Beldan ushlab yelkadan oshirib tashlash. 2. Ikki qo‘lidan ushlab yelkadan oshirib tashlash 3. Tizzalab yelkadan oshirib tashlash	2-3 marta	Yelka bilan harakatlanish
	I. Kurash qoidalarini o‘rganish: 1. Chala, yonbosh, halol 2. Tanbeh, dakki, ғirrom	3-4 marta	Diqqat bilan eshitish

Yakuniy qism 10 daqiqa	I. Yengillashtiruvchi mashqlar: 1 O‘yin elementlari ishtirokida estafetalar bajariladi: to‘p bilan yugurish, to‘pni uzatish, ilish va boshqalar. 2. Nafasni tiklovchi mashqlar majmui. 3. Sport o‘yinlari. 4-Talabalarni saflab, oraliq nazorat natijalarini aytish. Uyga vazifa: Kurash qoidalari va usullarini o‘rganib kelish	200 metrga, 100 metrga 4-6 mar-tadan	Safni buzmas-dan bir yoki ikki qatorda yugurish va yurish

Shunday qilib, mashqlar (variantlar) soni cheksiz bo‘lishi mumkinligi aniq bo‘ladi. Shuning uchun fan va amaliyotning vazifasi – chidamlilik, kuch va tezlikning o‘ziga xos turlarini rivojlantirishga yordam beradigan mashqlar uchun bunday variantlarni topishdir.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, mashqlar sportchining tanasiga ta’sir qilish yo‘nalishiga qarab tanlanishi va tasniflanishi kerak.

Umuman olganda, pedagog, eng avvalo, tajribachi ekanligiga ishonchimiz komil. Ammo tajribalar xaotik tarzda, sinov va xato bilan emas, balki ilmiy asosda va faraz mavjud bo‘lgan holda amalga oshirilishi kerak.

Ma’lum darajada, bu qarama-qarshiliklarni bir mashqda, bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalar hal qilinganda, mashg‘ulotning usuli yordamida hal qilish mumkin:

1. Vazifalarni parallel, ya’ni bir vaqtda bajariladigan tarzda tanlash (tezlik va kuchni rivojlantirish; texnologiya va maxsus tezlikka chidamlilik).

2. Vazifalar mashq yo‘nalishiga mos kelishi, asosiy vazifaga zid kelmasligi kerak. Shunday qilib, agar aralash aerob-anaerob qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha ish taklif etilsa, unda tezlikni rivojlantirish vazifasi bir vaqtning o‘zida qo‘yilmasligi kerak.

3. Har bir alohida holatda, sportchilar tomonidan ularni idrok etish va bajarish imkoniyatini, assimilyatsiya darajasini (mashq ta’sirini) hisobga olgan holda vazifalar sonini aniqlash kerak.

Bu yerda didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ong tamoyili ustunlik qiladi. Hamma narsani rejalashtirish mumkin. Ammo talabalar qo‘yilgan vazifalarni to‘g‘ri tushunishlari, ularning mohiyatini anglab yetishlari va ularni ham shakl, ham mazmunan imkon qadar aniq bajarishga intilishlarini ta’minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаммадиев К.Б. Спортизированное физическое воспитание студентов на основе сочетания средств борьбы и игрового метода // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/UDC 796.011.2:5:012.33. – М., № 9, 2021. С. 23-24.

2. Mirzakulov I.M. Jismoniy tarbiya va sport (belbog‘li kurash). O‘quv qo‘llanma. –T., 2021, 175-b.

Shohruh NABIJONOV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Texnika oliy ta’lim muassasalari, talabalar, jismoniy sifatlar, rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar.

В статье рассматриваются педагогические технологии, применяемые в развитии физических качеств у студентов технических вузов.

Ключевые слова. Технические вузы, студенты, физические качества, развитие, педагогические технологии.

The article deals with pedagogical technologies used in the development of physical qualities in students of technical universities.

Key words. Technical universities, students, physical qualities, development, pedagogical technologies.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarini tashkil etish – qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon tushuniladi.

Talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda texnika oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi, shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirilishi muhim bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun oliy ta’lim pedagogikasi sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish; jismoniy madaniyat, fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash; zamonaviy didaktik metodlar, vositalarni chuqur o‘zlashtirish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish prinsiplari, bosqichlari, usullari haqida fikr bildirar ekanmiz, bugungi kunda ta’lim tizimida tabaqalashtirilgan ta’limga bir qator yondashuvlar mavjudligini inobatga olish lozim. Bu yondashuvlarda tahsil oluvchilarga individual yondashuv bilan birga ta’lim shakllarining optimal qo‘llanilishi va auditoriyadagi talabalarni bir necha guruhlarga bo‘lish tushuniladi.

Jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarni chiniqtirish uchun taqdim qilingan topshiriqlar talabalarda oldindan erishilgan jismoniy kuchi, epchilligi, chaqqon-

ligi, egiluvchanligiga tayanishni belgilaydi. Shu bilan birga, kuchliroq talabalar nafaqat ta'lim standartida belgilangan minimal talablar, balki qo'shimcha (murakkab) vazifalarni ham bajara olishadi.

Bugungi kunda texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy sifatlari innovatsion-pedagogik faoliyat tuzilmasi va mazmuni innovatsion-pedagogik faoliyatning jarayonli tarkibiy qismi; ilmiy-metodik tadqiqot va amaliy innovatsion faoliyatning boshqa shakllarini ishlab chiqishga bog'liq holda kechishi muqarrar. Bunda samarali ta'lim indikatorlaridan foydalanish; shaxsning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning tayanch strategiyasini yaratish, ta'lim mazmunini tanlash; didaktik yondashuvlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish; didaktik tizimlar asosida pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablarni tahlil qilish zarurati oshadi. Buning uchun jismoniy madaniyat o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish; shaxsning jismoniy va intellektual sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari, shartlarini takomillashtirish; nazariy, amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuvni amalga oshirish; o'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash; mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash; talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish; talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash kompetensiyasiga ega bo'lishi lozim.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy madaniyat ta'limi modulli va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib borilishi mumkin. O'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, nazariy mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda sport jihozlari bilan birga texnik vositalardan, interfaol metodlardan, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqalarni qo'llash nazarda tutiladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda nazariy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish o'ziga xos zamonaviy yondashuvlarda amalga oshirilib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod, vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida subyekt-subyekt munosabatini tashkil etuvchi metodlar tushuniladi.

Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llay olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

Interfaol ta'lim metodlari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarni rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

O'z mohiyatiga ko'ra, tabaqalashtirilgan ta'lim jarayon ishtirokchilarining individual

ravishda to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda talabaning ham jismoniy, ham intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilgan ta’limni, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni anglatadi.

Jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida imitatsion o‘yinlar – jamoa, guruh faoliyatini imitatsiya qiladi. Imitatsion o‘yinlar ssenariysi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi, ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o‘z ichiga oladi.

Operatsion o‘yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma’lum bir o‘ziga xos jismoniy kuch talab qilinadigan operatsiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Rolli o‘yinlar – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi jismoniy, ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda “modulli o‘qitish” (“modul”, lot. modulus) – jismoniy madaniyat bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan, tugallangan bo‘lakni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda nafaqat amaliy mashg‘ulotlar, balki, nazariy mashg‘ulotlarda: “Bahs-munozara”, “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Zig-zag”, “Idrok xaritasi”, “T-jadval”, (Grafik organayzerlar): “BBB”, “Konseptual jadval”, “Toifalash jadvali” va boshqalardan foydalanish mumkin.

Ta’limga yangicha yondashuv: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bosqichlari o‘qituvchi, talabalarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo‘lib, bu jarayonda talabalarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

Ta’lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyaning rivojlanishi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, talabalarda kuch sifatlarini boshqarishda odatda uchta ko‘rsatkichlar guruhi hisobga olinadi:

1. Asosiy:

a) harakatlanishning har qanday momentidagi kuchning oniy qiymatlari, xususan maksimal kuch;

b) o‘rtacha quvvat.

2. Integral – kuch impulsi.

3. Differensial – kuch gradienti va boshqalar.

Maksimal kuch juda aniq, ammo, tezkor harakatlarda u harakatning yakuniy natijasini nisbatan yomon tavsiflaydi (masalan, maksimal itarish kuchi va sakrash balandligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nolga yaqin bo‘lishi mumkin).

Mexanika qonunlariga ko‘ra, kuch ta’sirining yakuniy ta’siri, xususan, uning harakati natijasida erishilgan jismning tezligining o‘zgarishi, kuch ta’sirida aniqlanadi. Demak, talabalarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish, ularning fanga oid kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi, yoki, agar kuch doimiy bo‘lsa, u holda impuls kuchning harakatga keladigan vaqtiga mos bo‘lishi, kuch

impulsining sonli hisob-kitoblarida integratsiya jarayoni amalga oshirilishi, shuning uchun bu ko‘rsatkich integral deb nomlanishi, ayniqsa, tez-tez kuch impulsi perkussiya harakatlarini (boksdagi musht va boshqalarni) boshqarishda ishlatilishini bilgan talabaning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori, dunyoqarashi adekvat holatda rivojlanadi. Masalan, talabalarda chidamlilikni rivojlantirish – mashqlarni uzoq vaqt davomida samaradorligini buzmasdan bajarish qobiliyatini o‘stirishdan boshlanadi. Sport amaliyotida ko‘plab mashqlar qo‘llaniladi va ular xilma xil (tuzilishi, davomiyligi, muvofiqlashtirish murakkabligi va h.k.) ko‘rinishga ega. Shuning uchun, ular turli xil chidamlilik turlari (umumiy, tezkorlik, kuch va boshqalar) haqida gapirish mumkin. Chidamlilik ikki xil o‘lchanadi: o‘ziga xos bo‘lmagan (shaxsning samarali raqobatlashishi yoki charchoqning kuchayishi sharoitida mashq qilish imkoniyatlari asosida) va o‘ziga xos (natijalari ushbu potensial imkoniyatlarning amalga oshirilish darajasini ko‘rsatadi).

Shunday qilib, texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vazifasi talabaning jismoniy sifatlari, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. O‘qitish jarayonida talabani jismoniy va aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, jismoniy topshiriqlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o‘rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш. А. (2019). Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. In Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития (pp. 4-10).
2. Абдуллаева Ш. А., Зайнитдинова М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования, 4(3).
3. Абдуллаева Ш. А., Хужаназарова, С. Ф. (2017). Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах. Современное образование (Узбекистан), (7).
4. Абдуллаева Ш. А. (2018). Совершенствование механизмов профилактической и реабилитационной работы снижения роста правонарушений среди несовершеннолетних. In Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития (pp. 459-464).
5. Абдуллаева Ш.А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
6. Абдуллаева Ш. А., Абдусаматова, Ш. А. (2019). Профилактика правонарушений среди несовершеннолетних учащихся. Молодой ученый, (5), 154-156.
7. Абдуллаева Ш. А., Зайнитдинова, М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования, 4(3)

D. KARAMATOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARDA ATROF-MUHITGA ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilarning atrof-muhitni asrab-avaylash va parvarishlash uchun unga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Atrof-muhit, tabiat, ekologiya, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik madaniyatni rivojlantirish.

В данной статье освещены пути формирования у учащихся осознанного отношения к окружающей среде с целью ее сохранения и ухода.

Ключевые слова. Окружающая среда, природа, экология, экологическое сознание, экологическое воспитание, экологическая культура, развитие экологической культуры.

This article covers the ways in which students form an nannisbatan conscious attitude to environmental preservation and care.

Key words. Environment, Nature, Ecology, environmental consciousness, environmental education, environmental culture, development of environmental culture.

Inson tabiatning bir qismi bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘zining hayot faoliyatida yangidan-yangi usullar bilan tabiatga ta’sir qilishni davom etmoqda. Bu esa ekologik tizim holatining o‘zgarishiga, ayniqsa, ularning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarining buzilishiga olib keldi. Bunday faoliyat natijasida yer shari yuzasi, iqlimi, o‘simligi, hayvonot dunyosi, sayyoramiz havosi o‘zgarishi, suvning ifloslanishi, o‘rmonlarning qirqib yuborilishi, yer yuzasida tuproq nurashi, hayvonot va baliqlarning ko‘p ovlanishi natijasida ekologik inqiroz yuzaga keldi. Inson faoliyati ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketishiga sabab bo‘ldi.

O‘quvchilarda ekologik ma’suliyat va madaniyatni shakllantirib borishda xuddi shu masalalarni yuqori darajada amalga oshirishga bog‘liqdir. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi va tabiatan oqilona foydalana olish to‘g‘risidagi bilim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, tabiat qonunlarini yaxshi bilsa, ana shundagina tabiatdan foydalanish madaniyati va ma’suliyati ham shu qadar yuqori bo‘ladi. Bunday ishlarni amalga oshirish pedagog o‘qituvchilar zimmasiga tushadi. Biz pedagoglar o‘quvchilar ongida tabiat, tabiat mavjudotlari, inson va tabiat bog‘liqlari, qolaversa, ekologiya, uning maqsad vazifalari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Ekologik tabiatning maqsadi inson va tabiat, inson, atrof-muhit o‘zaro uyg‘unlikda, ekologiyani anglatish hamda o‘quvchilarda ekologik ma’suliyat, ma’naviyatni shakllantirish demakdir. Bu tabiatga ilmiy asoslangan ta’sir orqali namoyon bo‘ladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy

yo‘nalishlarini tashkil etadi. Ayniqsa, atrof-muhit barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashda milliy qonun hujjatlarining poydevori hisoblangan konstitutsiyamizning ahamiyati beqiyosdir. Konstitutsiyada shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’rifiy sohalaridagi vazifalari mustahkamlangan bo‘lib, bular o‘z navbatida ekologik huquqiy mexanizmni shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu masala mamlakatimiz Konstitutsiyasining 50-moddasida ‘‘Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar’’, 55-modda ‘‘Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb ta’kidlanadi. Shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida’’gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish deb nomlangan 4-moddasida quyidagicha yoritilgan: “Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo‘jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo‘jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak: ... barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi”.

Bo‘lajak mutaxassislar yuksak darajadagi umumiy ekologik madaniyat va kasb mahoratini egallagan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirgan, tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan O‘zbek xalqining milliy an’analariga tayanadigan bo‘lsa tabiatga, uning zaxiralariga salbiy ta’sir etmaydi. Shu sababdan ham bo‘lajak mutaxassislar o‘z kasbiy faoliyati bo‘yicha chuqur bilim, yuqori ekologik madaniyatga ega bo‘lishlari zarur. Bu ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muhim pedagogik jarayondir.

“Avesto”da hayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari to‘g‘risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. “Avesto”da maxsus bo‘lim bo‘lib, uning nomi “Suvlar qasidasi”dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri – Amudaryo haqida so‘z yuritiladi.

Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta’lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo‘yadi, ular:

1) yoshlarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponentlarini yaxlitlikda va o‘zaro aloqadaligini his etish;

2) tabiatning yoshlar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo‘lishi;

3) atrof-muhitga munosabatni ma’naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;

4) tabiat yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;

5) atrof-muhitga nisbatan ekologik madaniyatni shakllantirishda yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;

6) ekologik madaniyatni shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo‘naltirilganligini tushunish;

7) ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

Shular asosida yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan

ta’lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta’minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o‘quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyligi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha yoshlarga o‘rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o‘z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

– yoshlar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;

– tabiat va jamiyat o‘rtasidagi ma’lum bo‘lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;

– yoshlar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o‘zlashtirilishiga erishish;

– tabiatda sodir bo‘ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta’lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g‘oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;

– tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg‘usini uyg‘otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;

– Respublika hududidagi biologik xilma-xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g‘oyalarni o‘rganishni tashkil etish;

– ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, uning zaxiralaridan unumli foydalanishga o‘rgatish;

– yoshlarni atrof-muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof-muhitga nisbatan faol ta’sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik ta’lim mazmuni: psixologik, pedagogik, shaxs faoliyatiga yo‘naltirilgan omillarga tayanadi:

– tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda bo‘lish zaruriyatini anglab yetish;

– tabiat bag‘rida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini his qila bilish;

– atrof-muhit bilan muloqotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;

– tabiat bilan muloqotda bo‘lganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Shunday qilib, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

– ekologik muammolarning paydo bo‘lish sababini ilmiy-amaliy jihatdan aniqlay olish;

– tasodifan hosil bo‘ladigan antropogen omillar holatini hamda uning salbiy oqibatlarini anglash va undan himoyalanish;

– tabiat zaxiralaridan foydalanishga oid amaliy, aniq ma’lumotlarni olish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish;

– ekologiyaga oid oddiy tadqiqot ishlarini o‘tkaza olish, olingan natijalarni tahlil etib, xulosa chiqarish;

– mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish, tahlil etish va bartaraf qilishda faollik ko‘rsata olish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko‘rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni

shakllantirish muammolari inson ongidagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur’atlarda rivojlanib, inson va tabiat o‘rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a’zolarida g‘amxo‘rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko‘zlab munosabatda bo‘lish, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo‘lib turibdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishni quyidagi umumiy bilimlar asosida olib borilishi lozim deb topdik:

– Birinchidan, kelajagimiz quruvchilari ruhiyatida ona tabiat go‘zalliklarini sevish, ulardan zavqlanish hissiyotini uyg‘otish;

– Ikkinchidan, atrofimizdagi olamning rivojlanish qonuniyarlari, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi mustahkam aloqadorlik, o‘zaro ijobiy va salbiy munosabatlar va uning oqibatlarini tushuntirish;

– Uchinchidan, yoshlarda ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish, tabiat, jamiyatga tirgaklik va oqibatlilik, ma’naviy vatanparvarlik ruhini sindirish, shuningdek, o‘quvchilarning mehnat qobiliyati, ijodiy faoliyatini oshirish zarur. Demak, buning uchun biz o‘qituvchi mutaxasislar oldiga hozirgi ekologik vaziyat tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangilashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ma’naviyat tarixan inson xulqi me’yorlarini, uning jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabatlaridagi mas’uliyatini aniqlaydigan mezon bo‘lgan. O‘zbek xalqi tarixi yosh avlodlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga doir boy ijodiy merosga ega bo‘lib, bu merosni o‘rganish, hayotga tatbiq etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish shu kunning eng muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dusanova Sh. “Tabiatdan foydalanishda ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari”. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. – T., 2008-yil № 2 son – 42-44-betlar.
2. Ismoilova. G. Xalqimizning ekologik an’analari va ularni tiklashning nazariy va amaliy masalalari. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. –T., 2007-yil № 1-2 sonlar – 97-98-betlar.
3. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. –T.: O‘qituvchi, 1997-yil.

Abdumalik IBRAGIMOV,
A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti, Xalq ta’limi tizimi statistikasini shakllantirish va tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Ismat MEXMONOV,
A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti, o‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi

O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablari 10-11-sinf o‘quvchilarini asosiy ta’lim jarayonlaridan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish, shu asosida intellektual, ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, bandligini ta’minlash, maktab bitiruvchilarining zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish, har tomonlama zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda kasbga yo‘naltirishni dasturiy ta’minot asosida avtomatlashtirish, tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar, masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish masalalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Intellektual, ma’naviyat, salohiyat, yangi avlod, kadrlar tayyorlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ish beruvchilar, ishlab chiqarish, korxonalar, klasterlar, kooperatsiyalar, elektron dastur, ko‘rgazmali materiallar.

В данной статье рассматриваются вопросы профессиональной подготовки учащихся 10-11 классов общеобразовательных школ в свободное от основных образовательных процессов время, подготовки на этой основе нового поколения высококвалифицированных кадров, обеспечения занятости, формирования необходимых навыков и знаний у выпускников школ, чтобы стать обладателями современных профессий, создания системы автоматизации программного обеспечения и анализа результатов обучения.

Ключевые слова. Интеллектуальный, духовность, потенциал, новое поколение, подготовка кадров, информационно-коммуникационные технологии, работодатели, производство, предприятия, кластеры, кооперация, электронная программа, наглядные материалы.

This article discusses the issues of vocational training of students of grades 10-11 of secondary schools in their free time from the main educational processes, training on this basis a new generation of highly qualified personnel, providing employment, forming the necessary skills and knowledge of school graduates to become owners of modern professions, creating a software automation system and analyzing learning outcomes.

Key words. Intellectual, spirituality, potential, new generation, personnel training, information and communication technologies, emploers, production, enterprises, clusters, cooperation, electronic program, visual materials.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi, talaba yoshlarda zamonaviy bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi, uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar, pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual, ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Har tomonlama zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Umumta’lim maktablarida tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish hamda o‘zaro uzviy bog‘liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish, o‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o‘z bilim va ko‘nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o‘rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish, fanlararo o‘zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to‘liq rioya qilgan holda o‘quv dasturlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, o‘quvchilarning fan bo‘yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholash hamda kasblarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash tizimini joriy etish asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarni boshlang‘ich texnologik bilim bilan qurollantirish, texnologiya fanidagi mavjud politexnik bilim ko‘nikma va malakalar bo‘yicha ma’lumot berish kasb tanlashda muayyan bilim darajasini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yosh avlodning mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishini tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga xosdir, u qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat qidiradi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o‘z o‘yinlarida ota-onalariga, yon atrofdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Mehnat faoliyatiga ana shunday intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo‘lib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o‘rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo‘llar faqat mehnatdagina – mohir qo‘llarga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o‘rganib bo‘lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur. Umumiy ta’lim maktablarida, zamonaviy klasterlarda, ishlab chiqarish korxonalari va o‘quv yurtlarida kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘tkazish zaruriyatini turmushning o‘zi taqozo etmoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: o‘quvchi tanlagan kasb og‘zaki tushunchagina bo‘lib qolmasligi, o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko‘rishi, ushbu kasb to‘g‘risidagi tushunchasi qanchalik to‘g‘ri ekanini xolisona tekshirib ko‘rishi lozim. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunga o‘qitishning to‘g‘ri

yo‘lga qo‘yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa, ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog‘langan mehnat ta’limidagi mavjud politexnik bilim ko‘nikma va malakalarni chuqur hamda mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. Har qanday kasbda eng muhimi – uning mehnat mazmuniga ega bo‘lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarni tarbiyalash va ularni mehnat jo‘shqinligiga ko‘chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e’tiboran bolalarni bo‘lg‘usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak. Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga mehnat ta’limidagi politexnik bilim ko‘nikma va ma’lumotlarni ola turib, shu asosda o‘zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. – Kim bo‘lsam, ekan? muammosi, qanday odam bo‘lish kerak muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishga oid ishlarni ta’lim yo‘llari orqali mutassil va izchillik bilan olib borish kerak.

Bu jarayonda texnologiya darslarida o‘quvchilarni 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazish, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma’lumotlar bazasini yaratish, umumta’lim maktablarida 7-sinf o‘quvchilari uchun har oyda bir marta ‘‘Kasblar olamiga sayohat’’ mavzusida maxsus kurslar olib borish, 8-sinf o‘quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba ‘‘Mening kelajakdagi kasbim’’ mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda o‘quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish, 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu asosida umumta’lim muassasalari 10-sinfdan o‘quvchilar uchun maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qilmaydigan mutaxassisliklarga o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish va o‘quvchilarning maktab fanlari bo‘yicha amaliy darslarini salohiyatli ish beruvchilar, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi korxonalari, klasterlar va kooperatsiyalarda o‘tkazilishi belgilab olinadi. Bundan tashqari hozirgi kunda umumta’lim maktablarida texnologiya xonalari zamon talablariga javob bermasligi va ayrim maktablarda texnologiya xonalarining mavjud emasligi o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirishdagi eng katta muammolardan biri sanaladi. Bugungi kun talabidan kelib chiqib xalq ta’limi tizimida kasbga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko‘rsatish, ilg‘or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish, umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maxsus ‘‘situatsion xona’’larni tashkil etish, elektron dastur va ko‘rgazmali materiallar bilan ta’minlash eng muhim dolzarb vazifalardan bari hisoblanadi. 10-11-sinf o‘quvchilarini asosiy ta’lim jarayonlaridan bo‘sh bo‘lgan vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish tartibini ishlab chiqish, kelajakda umumta’lim maktablarida ham amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish asosida dual ta’lim tizimi joriy etish, dual ta’lim tizimi asosida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tayotgan o‘quvchilarga ish beruvchi bilan tuzilgan muddatli mehnat shartnomasiga muvofiq ish haqi to‘lash va bandligini ta’minlashga erishiladi.

Kasbga yo‘naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o‘rin tutadi. Bular orasida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va kadrlar muammolari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu masalalarni kasbga yo‘naltirish jihatlari bilan o‘zaro bog‘liq tarzda o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlarida ko‘rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo‘lgan maktabning roli har qachongidan ko‘ra o‘sdi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta’lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir. Kasbni to‘g‘ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘lig‘ini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va namoyon bo‘ladi. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo‘lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo‘lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo‘lida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma’lumotli bo‘lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma’lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob’ektiv zaminga ega bo‘lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo‘yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo‘jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta’lim maktablarida mehnat ta’limi bo‘yicha axborot texnalagiyalari rivojlangan sharoitda kasbga yo‘naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.

2. Ishmuhamedov R.I, Yuldashev M. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma. – T., 2013. 162-b.

3. Sharipov Sh.S., Davlatov K., Nasriddinova G.S. “Kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – T., 2007. 9-12-betlar.

Shaxnoza SHAKARBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti ‘‘Umumiy psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA O‘Z USTIDA ISHLASH FAOLIYATINI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida pedagogik faoliyatda o‘z ustida ishlash qobiliyatiga ta’sir etuvchi psixologik asoslar, ijtimoiy psixologik determenantlari, o‘qituvchilarda shakllangan kasbiy motivlar, tolerantlilik va empatik qobiliyatlar kabi masalalar ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, ta’lim, pedagogik faoliyat, o‘z ustida ishlash, tolerantlik, empatik qobiliyat, muvaffaqqiyat motivlari, bilim, malaka, kasb, o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Данная статья посвящена социально-психологическим аспектам развития самоэффективности у будущих учителей. Также в статье рассматриваются психологические основы, влияющие на способность работать над собой в педагогической деятельности, социально-психологические детерминанты, сформированные у педагогов профессиональные мотивации, толерантность и эмпатические способности.

Ключевые слова. Учитель, образование, педагогическая деятельность, самосовершенствование, толерантность, эмпатия, мотивация успеха, знания, умения, профессия, саморазвитие.

This article focuses on the socio-psychological aspects of developing self-efficacy in future teachers. The article also discusses the psychological foundations that affect the ability to work on oneself in pedagogical activities, social psychological determinants, professional motivations formed in teachers, tolerance and empathic abilities.

Key words. Teacher, education, pedagogical activity, self-improvement, tolerance, empathy, motivation for success, knowledge, skills, profession, self-development.

Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy faoliyatni rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi psixologik shart-sharoitlar mavjud sanalib, unda o‘qituvchilarning xarakterologik xususiyatlari sanalgan, ma’naviy-axloqiy barkamollik, mas’uliyatlilik, hayotiy qadriyatlilik, ijtimoiy onglilik, o‘zini o‘zi nazorat qila olish, boshqaruv qobiliyati bilan bog‘liq kompetentlilik kabi ijtimoiy-psixologik unsurlar mujassamlashgan. Shuning uchun, mazkur tushunchalar mohiyatini tahlil etishdan oldin, bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun o‘ta muhim sanalgan, kasbiy kompetentlik fenomenining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tish ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tushuncha o‘qituvchining o‘z sohasiga bo‘lgan motivatsion harakatlari majmui bilan ham xarakterlanadi.

A.N.Novikovning aytishicha, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentlik xususiyatlari bilan tarbiyalash quyidagilar bilan tavsiflanadi:

– boshqalar bilan erkin muloqot qila olish ko‘nikmalari;

– zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish malakalari;

– sohaga oid ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lilsh;

– iqtisodiy va sohadagi yangiliklardan xabardorlik;

– ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, farmonlar hamda tegishli vazirliklarning buyruq va xujjatlari mazmunidan xabardorlik;

– xorij tillaridan birini mukammal bilish;

– boshqalarni o‘zgartirishga nisbatan psixologik tayyorgarlik va hokazo.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatdagi kompetentlik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta’kidlangan. Tadqiqotchi Muchinskaya P.I. ta’kidlashicha, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi mezonlarini tushuntiruvchi uch ijtimoiy – psixologik jihati mavjud:

1. Umumiy ilmiy yoki fundamental jihat – mazkur jihat bo‘lajak o‘qituvchilarning tabiiy-gumanitar fanlar bo‘yicha bilimlarini, kompyuter bilan ishlashga oid kasbiy tajribalarini nazarda tutadi;

2. Ijtimoiy-shaxsiy va kommunikativ – ushbu jihat o‘qituvchilar uchun muhim sanalgan tanqid qilishga qobiliyatlilik, bag‘rikenglik, jamoada ishlash qobiliyati kabilar bilan tushuntiriladi;

3. Tashkiliy va boshqaruv xususiyatli jihat bu – o‘qituvchilarda shakllangan ishlarni rejalashtirish va ularni bajarish, nazariy va amaliy bilim hamda ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati, sohaga oid turli ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qila olish ko‘nikmalari, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga tez moslasha olish malakalari kabilar bilan tavsiflanadi. Demak, muvaffaqqiyatli o‘qituvchi uchun kasbiy kompetentlik va uning psixologik tarkibiy qismlari o‘ta muhim sanaladi.

Yuqoridagi qarashlardan farqli o‘laroq, Yusupov F.M.ning so‘zlariga ko‘ra, pedagogik faoliyatdagi kasbiy kompetentsiyalarni ikki blokga ajratish mumkin:

1. Asosiy umumiy kasbiy bilimlar bloki;

2. Ixtisoslikka oid kasbiy sohadagi bilimlar bloki.

Ushbu ikki blok ma’lumotlarisiz kasbiy faoliyatni amalga oshirish hamda samarali faoliyat olib borish mumkin emas. Buning uchun har bir shaxs o‘z sohasiga yo‘naltirilgan ta’lim muassasalarida o‘qishlari lozim sanaladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlik mezonlarini shakllantirish, o‘quv jarayonida uchraydigan ko‘plab murakkab vaziyatlar hamda muammoli vazifalarni bajarish vazifalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bizningcha, o‘qituvchilarning malakalarini oshirishga qaratilgan barcha oliygohlar maqsadiga ko‘ra, kasbiy kompetenlikni takomillashtiradigan dinamik tizim vazifasini bajaradi.

T.A.Potapovning ta’kidlashicha, malaka oshirishga ixtisoslashgan ta’lim muassasalari ikki muhim tamoyil asosida ish yuritishi lozim hisoblanadi. Ya’ni mazkur tamoyillar umumiy va maxsus turga ajratilib, u o‘z mazmunida quyidagilarni maqsad qiladi:

1. Dinamizm tamoyili – bu ta’lim dasturlarini doimiy o‘zgartirib borish va yangilab turishni nazarda tutadi;

2. Istiqbollilik tamoyili – bu talabalar va o‘qituvchilar tomonidan turli xil ta’lim imkoniyatlari tizimini chuqur tushunishlarini xarakterlaydi;

3. Ko‘p qirralilik tamoyili – bu o‘quvchilarning yuqori qiziqishlar ko‘lamini va o‘qituvchilarning malakasi kabilarni o‘z ichiga oladi;

4. O‘zaro ta’sirlashish tamoyili – bu talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro munosabatlari hamda o‘quvchi – o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot jarayoni kabilar bilan tavsiflanadi.

Muallif nazaricha, o‘zaro ta’sirlasha olish qobiliyati o‘qituvchini o‘quvchilar tomonidan tez qabul qilinishining muhim omillaridan biri sanaladi.

